НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ

**Институт управления и социально-экономического развития,
Центр профессионального менеджмента "Академия бизнеса",
Центр поддержки научных исследований WORLDLY KNOWLEDGE Узбекистана провели
международную научно-практическую конференцию**

7 октября 2024

УДК 004.02:004.5:004.9
ББК 73+65.9+60.5
Н34

Редакционная коллегия:
Тожибоев К.Т., кандидат химических наук, профессор
Таджибаев К.Т., доктор биохимических наук, профессор
Хонбобоев Х., кандидат технических наук, профессор
Зарайский А.А., доктор филологических наук, профессор
Смирнова Т.В., доктор социологических наук, профессор
Дилдора И.М. - доктор педагогических наук, доцент
Каримова С.М., кандидат филологических наук, доцент
Эшназарова М.Ю., кандидат педагогических наук, доцент
Икрамова М.Х., доктор педагогических наук
Икрамова М.М., кандидат биологических наук
Досжанова Г.Д., кандидат филологических наук, доцент
Алиев Х.М., кандидат медицинских наук, доцент
Казокбоева Д.И., кандидат философских наук, доцент
Хакбердиев Ш.М., доктор философских наук, доцент
Қозокбоева. Д.И., доктор философии (PhD)
Рузиева Д.М., доктор философии (PhD)
Содикова С.А., доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Н34 НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ: материалы II международной научно-практической (7 октября 2024г., Узбекистан, Андижан) Отв. ред. Саломов Ш.Н. – Издательство ЦПМ «Академия Бизнеса», Саратов 2024. – 401с.

Сборник содержит научные статьи и тезисы ученых Российской Федерации, Узбекистана и других стран. Излагается теория, методология и практика научных исследований в области информационных технологий, экономики, образования, социологии.

Для специалистов в сфере управления, научных работников, преподавателей, аспирантов, студентов вузов и всех лиц, интересующихся рассматриваемыми проблемами.

Материалы сборника размещаются в научной электронной библиотеке с постатейной разметкой на основании договора № 1412-11/2013К от 14. 11. 2013.

DOI 10.5281/zenodo.13950510

https://wordlyknowledge.uz

Abdialimova S.

Guliston davlat universiteti

Lingvistika : o‘zbek tili yo‘nalishi magistranti

“SHAYTANAT” ASARINING SOTSIOLINGVISTIK TADQIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilning taraqqiyotiga jamiyatning, aksincha jamiyat rivojiga tilning ta‘siri, buning omillari, qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi sohasi bo‘lgan sotsiolingvistika hamda “Shaytanat” asarining sotsiolingvistik tadqiqi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: sotsiologiya, mafiya, psixologiya, etnografiya, lingvistika, etnolingvistika,sotsiolingvistika.

Abdialimova S.

Gulistan State University

Linguistics: master of the Uzbek language

SOCIOLINGUISTIC STUDY OF” SHATYANAT"

Annotation. This article will talk about the influence of language on the development of language on the development of society, or rather on the development of society, sociolinguistics, a field that studies the factors, laws of this, as well as the sociolinguistic study of the work “Satanat”.

Keywords: sociology, mafia, psychology, ethnography, linguistics, ethnolinguistics, sociolinguistics

Umumjahon xalqlari o‘z-o`zining o`rnini qidirayotgan bir davrda Vatanimiz O`zbekistonning har bir yashovchisi o`z nutqi va odobida, o`z muomala madaniyatida o`zbeklarning dunyo xalqlari o`rtasidagi mavqeyining naqadar ustunligini namoyon qilayotgani ma‘lumdir.

Shuning uchun ham olimlar inson tilini u yashab turgan jamiyat bilan chambarchas bog`liqligini isbotlab, o‘z mulohazalarini ilmiy asosda bildirib kelmoqdalar.

Ma‘lumki, sotsiologiya jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari, torroq ma‘noda ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy sistemalarning yashashi va taraqqiyot xususiyatlarini, uni harakatlantiruvchi kuchlarni o‘rganuvchi fandir.

https://wordlyknowledge.uz

Tilning taraqqiyotiga jamiyatning, aksincha jamiyat rivojiga tilning ta‘siri, buning omillari, qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi sohani sotsiolingvistika (ijtimoiy tilshunoslik) deb yuritilmoqda.

G‘arb va Amerika tilshunosligida sotsiolingvistika muammolariga doir bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu tadqiqotlarning aksariyatida til bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabat, til taraqqiyotiga jamiyatning, sotsial omillarning ta‘siri, ijtimoiy tilshunoslik bilan sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, lingvistika, etnolingvistika va boshqalar orasidagi bog‘liqlik, sotsiolingvistikaning tadqiq ob‘ekti, predmeti, tilning ijtimoiy tarmoqlanishi, bu tarmoqlarning milliy tilga munosabati, tilning sotsial-differensial variantlari va ularda lisoniy variantlarning ko‘rinishlari, muloqot jarayonida shaxslarning roli, nihoyat davlat til siyosatining til rivojiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta‘siri va boshqalar haqida fikr yuritiladi.

Sotsiolingvistika sotsiologiyaning tarkibiga kiradimi yoki tilshunoslik tarkibigami yoxud mustaqil sohami?‖, ―Sotsiolingvistika o‘z mustaqil ob‘ekti, predmeti va metodlariga egami?‖ – deyilgan savollar yuzasidan munozaralar davom etmoqda. Ba‘zi ishlarda umumiy sotsiologiya, makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya, sotsiolingvistika va lingvosotsiologiya haqida gap boradi.

Hozirda sotsiolingvistika, lingvosotsiologiya va lingvistik sotsiologiya deb yuritilayotgan soha: o‘z vaqtida til sotsiologiyasi (социология языка, sotsiologik lingvistika (социальная лингвистика), sotsial tilshunoslik (социалогическое языкознание), lingvistik sotsiologiya, lingvosotsiologiya kabi nomlanib kelgan.(1)

V. Bondaletovning fikricha, sotsial lingvistika tilshunoslikning bir yo‘nalishi bo‘lib, u til kelib chiqishining ijtimoiy asoslarini, tilning jamiyatga ta‘sirini tadqiq qilishi kerak.(2)

Sotsiolingvistika tilshunoslikka daxldor bilim tarmog‘i bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida o‘z o‘rnini topmoqda. Tilning ijtimoiy holati, tilning paydo bo‘lishi, til va jamiyat, ikkitillilik va ko‘ptillilik, tillarning o‘zaro ta‘siri, ism va toponimlarning yuzaga kelishi, bunda jamiyatning o‘rni, ijtimoiy muhitning

https://wordlyknowledge.uz

ta‘siri, ism va toponimlarni motivativ tasniflash ushbu yo‘nalishning dolzarb vazifalaridan biridir. Ismlar ma‘nosini ochishda ekstralingvistik omillarning o‘rni haqida gap ketganda ism etnolingvistik jihatdan ham tavsiflanadi. Umuman, sotsiolingvistik yoki lingvosotsiologik tahlilni lingvistik tahlildan farqlanuvchi, ammo u bilan bog‘liq holda amalga oshiriluvchi tahlil usuli deb bilish lozim bo‘ladi. Sotsiolingvistikani fan sifatida o`rganish jarayonida uning umuminsoniy hamda siyosiy xususiyatlari, jumladan, til va jamiyat, til va mafkura, til va tafakkur, til va xalq, til va yosh, til va jins, davlat institutlarida til, til taraqqiyotini rejalashtirish, shuningdek, tilning falsafiy xususiyatlarini o`rganish lozim bo`ladi. Shunday ekan, sotsiolingvistikani o`rganish va tatbiq etish jarayonida uning ijtimoiy-lisoniy omil sifatida hayot va jamiyatda tutgan o`rni baholanadi. Shu orqali sotsiolingvistika va umumiy fanlar nazariyalari haqida ma'lumotga ega bo`lamiz. Ayniqsa, ko`pgina tilshunos olimlar nazdida ―sotsiolingvistika‖ni falsafiy tilshunoslik deb qarashlar ham bu fanni boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligini anglatadi. Holbuki, ko`pgina tilshunos olimlar «sotsiolingvistika»ni o`rganish jarayonida turli xil falsafiy mushohadalar yuritishdi. Ularning ayrimlari materialistik nuqtayi nazardan yondashgan bo`lsalar, ba‘zilari esa idealistik nuqtayi nazardan qarab keldilar. Biz esa ijtimoiy tilshunoslik masalalarini to`g`ri baholash va aniqlashni hayot va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog`lab o`rganamiz. Jumladan, O.Axmanovaning «Lingvistik terminlar lug`ati» yoki A. Hojievning «Lingvistik terminlarning qisqacha izohli lug`ati» ni ko`zdan kechirish orqali ham bu masalaga oydinlik kiritish mumkin. Xususan, O.Axmanova lug`atida «sotsiolingvistika» termini «ijtimoiy lingvistika», «tilshunoslikning ijtimoiyligi» deb atalishi asosida quyidagicha ma'no kelib chiqadi: birinchidan, tilning umuminsoniy munosabatlardagi o`rni, til va jamiyat o`rtasidagi xususiyatlarning o`zaro bog`liqligini o`rganish tatbiq etilsa, ikkinchidan, tilshunoslikning ijtimoiy munosabatlardagi turli xil vazifaviy xususiyati va aloqadorligi (masalan, ijtimoiy dialekt, hududiy dialektlar, argo va jargonlar) va hokazolar til va jamiyat

https://wordlyknowledge.uz

o`rtasidagi mushtaraklikni bog`lashga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Ikkinchi vaziyatda ijtimoiy dialektlarning ijtimoiy til mohiyatlarini belgilovchi xususiyatlari faqat ijtimoiy dialekt sifatida emas, balki professional nutq, koyne va h.k tarzda tushuniladi. Ko`rinadiki, sotsiolingvistikaning asosiy muammosi «til va jamiyat» o`rtasidagi munosabatlarni o`rganishdan iboratdir. Shunday ekan, til va jamiyat munosabatlari o`rtasidagi bu bog`liqlik til va jamiyat taraqqiyotining uzviy ko`rinishidir.

Koʻpchilikning sevimli yozuvchisiga aylangan adib Tohir Malik badiiy til bobida oʻziga xos soʻz sanʻatkori, novatordir. Isteʻdodli yozuvchining “Shaytanat” asari oʻzida bir qancha mavzularni qamrab olganligi (mafiya aʻzolariga aylangan jinoyatchilar, yirik siyosiy oʻyinlar, davlat huquq-tartibot idoralaridagi dastlabki tergov bilan bogʻliq vaziyatlar) ni inobatga olgan holda biz asardagi asosiy qahramonlar, yaʻni mafiya aʻzolariga aylangan jinoyatchilar nutqini sotsiolingvistik tadqiq etish masalasini yoritishga harakat qilamiz.

Jahon va oʻzbek adabiyotida mafiya aʻzolari hayot tarzidan hikoya qiluvchi qator asarlar yozilgan, jumladan, Mariyo Pyuzoning “Choʻqintirgan ota”, “Sitsiliyalik”, “Birinchi don”, “Soʻnggi don”, Roberto Savyannaning “Gomorra”, Garri Greyning “Bir kuni Amerikada”, Tohir Malikning “Shaytanat” kabi asarlari mafiyalar hayoti, ular yaratgan qonun-qoidalari, yashash tarzi haqida atroflicha maʻlumot beradi. Hatto Mariyo Pyuzoning “Choʻqintirgan ota” asariga ishlangan filmning butundunyo 250ta eng yaxshi filmlar roʻyxatining beshligiga kirgani va qariyb yarim asr oʻz tomoshabopligini yoʻqotmay kelayotganligining oʻziyoq mafiyalar hayotiga qiziqishning kuchli ekanligidan dalolat beradi. Ularning nutqi, oʻzaro qoʻllanuvchi maxsus jumlalari va iboralari ham koʻpchilikni beeʻtibor qoldirmay kelayotir. Mafiya aʻzolari nutqining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish mikrosotsiologiya uchun muhim maʻlumotlar berishi bilan ahamiyatlidir.

Avvalo, “mafiya” atamasi bir qancha maʻno anglatishini quyidagi faktlardan koʻrish mumkin: Sitsiliyacha “mafiusu” arabcha sleng “mahyas”

https://wordlyknowledge.uz

so‘zidan olingan bo‘lib, “qat‘iy maqtanchoqlik” ma‘nosini berishi ayrim manbalarda ko‘rsatilgan bo‘lsa, ba‘zi manbalarda shu tildagi “marfud” so‘zidan olingan bo‘lib, “yaroqsiz, yaramas” degan ma‘nolarni anglatishi ko‘rsatilgan . Uning “xavfsizlik, himoya” ma‘nolarini beruvchi “mu‘afa” so‘zidan olinganligi to‘g‘risidagi qarashlar ham yo‘q emas.

Mashhur sotsiolog olim Diego Gambette tadqiqotlari17ga ko‘ra, XIX asrda Sitsiliyada “mafiya” atamasi ikki xil, ya‘ni, “jirkanch, mag‘rur”hamda “qo‘rqmas va tadbirkor” kabi ma‘nolarni anglatgan.

Tarixiy manbalar esa 1282-yili Italiyada fransuzlarga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonning shioridagi bosh so‘zlari: —O‘lim Fransiyaga, Italiya, “nafas ol” (“Morte Alla Francia, Italia Anela”) ushbu atamaning vujudga kelishiga zamin yaratganligini ko‘rsatadi.

Mafiyalar hayotini yorituvchi shoh asar hisoblangan “Cho‘qintirgan ota”romanida esa mafiya so‘zi sitsiliyacha dialectda “boshpana” ma‘nosini anglatishi bayon etilgan.

Italiya – mafiya sardorlari yurti hisoblansa-da, ushbu jinoiy guruh faoliyatini boshqa bir qator mamlakatlarda (Meksika, Braziliya, Rossiya, ko‘plab Yevropa mamlakatlari) ham keng kurtak yozganini kuzatish mumkin. Xususan, O‘zbekistonda ham o‘tgan asrning oxirlarida mafiya va boshqa uyushgan jinoiy guruhlar faoliyati keng avj olgan edi. Taniqli yozuvchi Tohir Malikning biz tadqiq etayotgan “Shaytanat” romanlar to‘plamida aynan ushbu guruh a‘zolarining faoliyati, hayot tarzi, ayanchli taqdirlarini yoritilganligi millionlab kitobxonlarning diqqatini tortdi.

Mafiya a‘zolarining o‘tmishiga nazar solsak, ko‘pincha maktabni tashlagan, ota-onadan erta yetim qolgan, bolaligida kimdandir ozor yetgan va qalbida qasos olovi paydo bo‘lgan yoki hayotda adolatsizlikka uchragan yigitlar mafiya saroyiga kirib qolganini ko‘rishimiz mumkin. Aynan ushbu hayot tarzi ularning adabiy til normalariga umuman e‘tibor qilmasliklariga (adabiy til normalari haqida tushunchaga ega emasliklari ham ehtimoldan xoli emas), har

https://wordlyknowledge.uz

qanday idora yoki jamoat joyida ham faqat so‘zlashuv uslubidan foydalanishlariga zamin yaratgan. Nutq jarayonida adresantlarning dunyoqarashi, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy sa‘viyasi, atrofdagilar bilan munosabati ro`yobga chiqadi. Bu guruh vakillarining nutqida ko‘pincha varvarizmlar: rus tiliga oid bo‘lgan: отдых — “Bugun oddix bo‘lsa, shoshib qayoqqa ham borasiz” (I kitob, 51-b.); черный пояс — —Men o‘zi… “чўрний поясман” (II kitob, 381-b.); шоколад — “Gap yo‘q, shikalad.” (II kitob, 385- b.) брат — uka so‘zining erkalanish-kichraytirish formasi “Kalla pishdimi, братишка?”; отвечать — javob bermoq “Lekin haddingizdan oshsangiz , otvechayt qilasiz.”; ba‘zan esa inglizcha atamalar ham ko‘zimiz tushishi mumkin: Boss- boshliq, ho‘jayin “Bo‘ssning gapi bor ekan, - dedi Shomil.”; no problem-muammo yo‘q —Chuvrindi “Doktor Xudoyorning O‘zbeksitonga kelishi uchun ruhsat olish masalasini hal etish mumkinmi?” deganda “No problem”, deb gapini “kalta qildi.” (III kitob, 518-b.). Ushbu misollardan ko‘rinadiki, chetdan kirib kelgan so‘zlarning talaffuzida ham mafiya a‘zolari nutqida ba‘zi buzilishlar, aksent (lotincha, “urg‘u” ona tilidan boshqa tilda so‘zlashgandagi o‘zgalik xususiyatlari) 20da gapirish holatlari mavjud bo‘ladi. Shuningdek, ushbu guruh a‘zolari asosan yigitlarni tashkil etgani uchun ham ular nutqida ko‘pincha vulgarizm (disfemistik ifoda)larni uchratishimiz mumkin: “Men seni erkak deb yursam, hebbim ekansan-ku, - dedi Kesakpolvon yigitga.” (I kitob, 349-b.); —Qon chiqmaydigan joyiga ur. Kaltakdan qo‘rqadi u xunasa! (I kitob, 348-b.); —Xe, seni xudojo‘y qilib tuqqanni…

Yuqorida ta‘kidlanganidek, mafiya – yashirin guruh bo‘lgani uchun ham ular orasida bir-birini nominativ vazifa bajaruvchi laqab va taxalluslar, maxsus sifatlar bilan atash odatiy holdir:

“Men Shilimshiqni jazolashim zarur edi.”

“Sen bu o‘yinda ikkita xatoga yo‘l qo‘yding. Birinchisi – akademikni “tuz” deb bilding.”

“Bo‘tqa, tushundingmi aytganimni qil. Otarchi kelmadimi?”

https://wordlyknowledge.uz

“O‘qilon g‘irromlik qilmaydi.”

“Bo‘ydoq olib keldi, kutib o‘tiribdi”.

Mafiya sardorlari nutqidagi og‘ir-bosiqlik, qisqa va lo‘ndalik, g‘azab otiga mingan paytda ko‘pincha so‘kinish, ba‘zan jahli chiqqanda ham past va bosiq ovozda, ba‘zan piching, kinoya yoki aybdor kimsani sizlab gapirish, ular qo‘l ostidagi kishilar nutqida esa kamgaplik, hissiyotlarga berilmagan holda beparvo so‘zlash (hatto o‘limga hukm etilganda ham) ushbu guruhga xos jihatdir.

Mafiya sardorlari nutqidagi og‘ir-bosiqlik, qisqa va lo‘ndalik, g‘azab otiga mingan paytda ko‘pincha so‘kinish, ba‘zan jahli chiqqanda ham past va bosiq ovozda, ba‘zan piching, kinoya yoki aybdor kimsani sizlab gapirish, ular qo‘l ostidagi kishilar nutqida esa kamgaplik, hissiyotlarga berilmagan holda beparvo so‘zlash (hatto o‘limga hukm etilganda ham) ushbu guruhga xos jihatdir. Mafiya a‘zolari bir-birlari bilan doim ham do‘stona munosabat bo‘lmasligi, o‘zaro uchrashuvlarda ham ba‘zi bir tilga olinmas so‘zlarning yoki harakatlarning ko‘z harakatlari orqali ifoda etilishini ushbu asar bilan tanishgach guvohi bo‘lamiz:

“Asadbek Chuvrindi bilan ko‘z urishtirib oldi. Nigohlarning bu uchrashuvi qanday ma‘no anglatishini uqqanday mehmon ostonada to‘xtab orqasiga o‘girildi-da: -Qardosh, orqamdan odam qo‘yishni o‘ylama. Biz ko‘pchilikmiz,-dedi.” (III k 718-b.) .

Mafiyalar – jinoiy uyushgan kishilar to‘plami va ularning faoliyati (korrupsiya, narkotik moddalar savdosi, qurol-yarog‘ savdosi) qonunga zid, shu sabab ham ularga qarshi doimo hukumat tomonidan kurash olib boriladi. Shunday bo‘lsa-da, mafiyalarning ildizini butunlay quritib yuborishning ya‘ni ular faoliyatiga butunlay chek qo‘yish dushvor. Mafiya – jamiyatda yashayotgan guruh ekan (garchi u jinoiy va yashirin bo‘lsa-da) bunday guruhga mansub kishilarning nutqini maxsus o‘rganish sotsiolingvistika fani uchun qimmatli ma‘lumotlar beradi. Til doimo inson hayoti, uning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liqdir. Lisoniy belgining qanday ijtimoiy vazifa o‘tashi, undan qanday foydalanishni bilishi uchun insonning qaysi ijtimoiy tuzumda yashashini ham

https://wordlyknowledge.uz

e'tiborga olish bugungi kun tilshunosligining asosiy vazifalaridandir. Birgina “Shaytanat” asari yaratilgan davrni inobatga olsak, bugungi kunga kelib lisoniy hamjamiyatning taraqqiyoti natijasida ko‘plab yangi atamalar, jumlalar, maxsus kodlangan so‘zlar vujudga kelganligi hamda nutqda keng qo‘llanilayotgani tabiiy. Muayyan guruhlar, boshqa bir ijtimoiy qatlam uchun qo‘llaniladigan sotsiolingvistik metodlar (kuzatish, anketa olish, intervyu olish)ni ushbu guruh uchun qo‘llashning imkoni yo‘qligi sababli, bu ishda adib va yozuvchilarimizning mafiyalar hayoti haqidagi asarlari bizga tadqiqot manbai bo‘lib qolaveradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki,sotsiolingvistika haqida fikr yuritish qaysidir ma'noda til va jamiyat bilan bog`liq tushunchalarni nazariy jihatdan tekshirish va o`rganishni taqozo etadi. Bunda, shubhasiz, til va jamiyat o`rtasidagi turli xil munosabatlar uzviy mushtaraklik kasb etadi. Xulosa shuki, til va jamiyat o`rtasidagi ana shu aloqadorlik sotsiolingvistikani yaxlit tizimga ega bo`lgan fan sifatidagi imkoniyatlarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бондалетов Б.Д. Социалная лингвистика.- М., 1987, С.10.
2. Бондалетов Б.Д. Социалная лингвистика.- М., 1987, С.10. 3-10-betlar.
3. Тоҳир Малик. Шайтанат. – Тошкент.: Hilol-nashr, 2017.

WORDLY KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz

Abdurakhimova M.O.
Tashkent Institute of Irrigation and Mechanization
of Agriculture National Research University

IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF THE LAND IN A DIGITAL ECONOMY

ABSTRACT

It is well known that land is the primary foundation, an important factor in the development of industries. Its effective and rational use will become an important direction for ensuring stability in the economy of the republic in the future. However, practice shows that in recent years land use in economic sectors, including agriculture, households and dekhan farms, does not meet the conditions of a market economy and is inefficient. Today, it is important to conduct research on land privatization in order to eliminate this situation, fully form market relations in the economy, use the experience of foreign countries, improve existing forms and methods and adapt to our conditions.

Keywords: privatization, real estate, land market, land plot, land cadastre, market economy

The solution of a number of objective problems of society in the process of forming market relations determines the success of the reforms. At the same time, the reform of land ownership, based on the reform of land relations and the formation of the land market, is an important factor.

Large-scale reforms in the Republic of Uzbekistan led to the formation and sale of land ownership, to a certain extent, the land market. The natural and climatic conditions of our republic, the ethnic, national and traditional customs of our people are also reflected in land-use relations. The problem is also relevant due to the scientific and methodological justification for the formation and organization of the land market at the national and regional levels and its impact on the socio-economic conditions of the population. One of the obstacles to the effectiveness and development of land reform is the imperfection of competent decisions on land rights. A further increase in budget revenues, the creation of a unified system of government on the land market, and the development of rational

https://wordlyknowledge.uz

methods of paying rent for the use of land will ensure the efficient use of land resources. Land valuation by state bodies is carried out mainly on agricultural land. However, information on the assessment of non-commercial land types is not enough, especially about the value of the land plots on which the property is located. From this point of view, the article is aimed at studying the general issues of liberalization and modernization of the economy, the formation and management of the land market, as well as the study of priority areas of land relations in Uzbekistan based on the concept of the formation of the land market.

The third area of the "Strategy of Action in Five Priority Directions for the Development of the Republic of Uzbekistan for 2017–2021", developed by the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev, is the reduction of state participation in the economy, protection of private property rights and its priority status. The issue of further strengthening is outlined. It provides for further expansion of the privatization of state property and simplification of its procedures.


The next step in the formation of the land market in accordance with international standards was the privatization of land. We believe that the use, assessment and legal protection of land as real estate is mandatory for land users. This will create the basis for more efficient use of land resources. This is because one of the principles of a market economy is the transition from general to particular. The privatization of the land and its ownership begins. Privatization of land leads to the rational and economical use of land resources. This is due to the fact that it has the same value as real estate, like buildings and structures, and allows you to sell, buy and exchange real estate with sale.

This is due to the development of multifunctional forms of ownership and use of land, which necessitates the development of land privatization processes. Privatization of land can only be successfully carried out through an in-depth study of factors and conditions affecting the value of plots, and the selection of

https://wordlyknowledge.uz

optimal approaches and methods for conducting an objective assessment of the land.

Factors and conditions affecting the value of privatized land can be divided into general (general) and specific (private) types. The specific factors and conditions affecting the value of privatized land are determined by the nature of the land plots involved in this process, their actual use, property relations and legal relationship with real estate located on these land plots.



Graph 1. Description of land involved in the privatization process

In accordance with the current legislation of the Republic, the land plots shown in graph 1 may be involved in the privatization process.

The study and analysis of available scientific resources indicate that currently the privatization of land in the republic is as follows:

expansion of various forms of ownership of land resources;

expansion of private ownership of real estate and land (as a single property complex);

privatization of land privatization procedures.

The determination of market value plays an important role in the privatization of land. Studying the experience of the countries of the world and their use in the development of land reforms in the country will create the basis for effective land use. As a result of studying the experience of Europe, Asia, the USA and the Commonwealth of Independent States (CIS), we single out the following areas that can be applied in the Republic of Uzbekistan:

- ensuring strict compliance with laws and regulations in the implementation of the land market in the implementation of land policy;
- further strengthening the legal protection of agricultural land in order to determine the priority of agricultural production;
- Strengthen the scientific, methodological and economic justification in order to prevent "disintegration" or increase the minimum or maximum area of land by specialization;

https://wordlyknowledge.uz

- the introduction of tenders on the basis of the rational development of property criteria for the purposeful, rational and efficient use of land;
- severe restrictions on the terms of the lease, resale and collateral;
- financial support of owners and heirs;
- achieve a certain degree of regulation of capital flows in this area, using transparent market principles, such as transparency and transparency in pricing and trade;
- the introduction of a differentiated land tax taking into account regional characteristics of pricing.

It should be remembered that land privatization should be considered as one of the key ways to improve land use efficiency, and not the development of the land market. In this regard, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev № 5623 "On measures to radically improve the processes of urbanization" of January 10, 2019 is of great practical importance. The main purpose of the Decree is to regulate the processes of urbanization, bringing the population into line with the existing infrastructure, housing, jobs. On the other hand, land privatization is aimed at owning people, that is, citizens and organizations acquire several times more valuable property at market prices, while the land that they own or use is acquired from the state at par value. As a result of the fact that the privatized land will enter into civil circulation, its value will continue to grow. As a result, the economic situation of citizens will continue to improve as the value of their property increases. The ultimate goal of introducing private ownership of land is to guarantee full ownership. To date, the building of a residential building or service facility built on a land plot is the private property of a citizen or organization, and the land is state property. This situation did not allow them to become economically strong, develop existing facilities, and make additional investments here. As soon as the land is now completely owned by a citizen or organization, both the land and the building above it will become completely untouchable. This is the most important guarantee for investors. By privatizing land, they can increase their value as property, forcing land to be considered the capital, and not a specific area.

Further improvement of the land use system in the transition to a market economy is very important for the national economy of the Republic of Uzbekistan. The modern land use system should be regulated by the government taking into account the needs of the state and land users working with land. According to the same principle, it is necessary to form a system of the state mechanism for managing land resources, coordinating land relations and land reclamation for economic purposes.

As a result of the study, the following scientific conclusions and practical recommendations for improving the legal and economic base of land use were obtained:

1. The state land cadastre, state control over the use and protection of land, land management mechanisms, land monitoring should be constantly improved

https://wordlyknowledge.uz

as a single system of government decision-making. It is advisable that the law, as a rule, make decisions on public administration decisions at the national and regional levels on the basis of prospective and annual land use documentation.

2. The completion of the general registration of land plots within the established administrative-territorial boundaries should be completed and based on the main registration of land plots, with appropriate changes to the land cadastral documentation and the preparation of separate cadastral documentation for each plot.

3. Work on the definition (clarification) of the administrative boundaries of the district, district, household and settlements (city, town) should be included in the land management work, ensuring the maintenance of the state land cadastre.

4. Do not delay the organization and conduct of registration activities in rural areas to generate accurate information of the land cadastre. To date, such information is not complete in the system of state land cadastre.

REFERENCES

1. The Land Code of the Republic of Uzbekistan. T., East 2014. (Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси. Т., Шарқ, 2014.)
2. Abdullaev Z.S. Modeling the land valuation process. National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2013 - 92 p. (Абдуллаев З.С. Ер ресурслари қийматини баҳолаш жараёнини моделлаштириш. Т., Алишер Навоий номли Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2013 – 92 б.)
3. Mardonov I.T. Agribusiness of Uzbekistan: reform of the management system in the context of the Aks Market. T., Science, 1993 - 46 p. (Мардонов И.Т. АПК Узбекистана: реформа системы управления в условиях рынка. Т., Фан, 1993 – 46 б.)
4. Altiev A.S. The economic mechanism of land use liberalization. T., Science, 2009. (Алтиев А.С. Ер ресурсларидан фойдаланиш тизимини эркинлаштиришнинг иқтисодий механизми. Т., Фан, 2009.)
5. https://doi.org/10.1016/j.biocon.2019.07.010
6. https://doi.org/10.1016/j.landusepol.2017.10.037

https://wordlyknowledge.uz

Abduraxmonova R.A.

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

LIDERLIK MAHORATINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

ABSTRAKT

Mazkur maqolada umumta'lim muasassalarida liderlik xususiyatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bugungi bugungi globallashuv talablarini inobatga olgan holda bayon etilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida boshliqlarning liderlik qobiliyatning tutgan o'rni haqida so'z yuritilgan. Shuningdek maqolada rahbar va liderlik o'zaro farqli jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Lider, liderlik, rahbar, xarizma, ta'lim-tarbiya, qobiliyat, boshqaruv.*

Abduraxmonova R.A.

Graduate student of the International Nordic University

PEDAGOGICAL ASPECTS OF EDUCATION OF LEADERSHIP SKILLS

ABSTRACT

In this article, the priority directions for the development of leadership qualities in educational institutions are described, taking into account the requirements of today's globalization. The role of leaders in the process of education and training was discussed. The article also analyzes the different aspects of leader and leadership.

Key words: Leader, leadership, charisma, education, ability, management.

KIRISH

Jahondagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatida ijodiy yondashuv, zamonaviy bilim, ko'nikma, malakalari va kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda ta'limga liderlik yondashuv asosida rahbarlarning raqobatbardoshligini oshirish, ularda ijodiy muhitni shakllantirish, kasbiy faoliyat sohalariga sog'lom muhitni yaratish orqali kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ta'lim sifatini ta'minlash va samaradorlikga erishish masalalari

https://wordlyknowledge.uz

dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Ana shu nuqtai-nazardan ilg‘or xorijiy tajribalar asosida boshqaruv faoliyatini modernizatsiyalash, rahbarlarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik holatlarini o‘rganish, ijodiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, boshqaruv faoliyatida sog‘lom va ijodiy muhitni yaratish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda uchinchi Renesans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsad qo‘yilgan ekan, ta’lim menejmenti yo‘nalishida rahbar kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, hamda boshqaruv faoliyatiga bo‘lgan talabni qamrab olish darajasini kuchaytirish bilan birga zamonaviy raqobatbardosh rahbarlarni tayyorlashga qaratilgan. Tub islohotlar jamiyatning maktab ta’limiga bo‘lgan talabini qamrab olish darajasini ko‘p jihatdan “Xalq ta’limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish” kabi vazifalar belgilandi [1].

Ma’lumki, har qanday guruh, tashkilot, jamoada, bo‘linmada tan olingan obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan shaxs mavjud bolib, u mazkur tashkilotning faoliyatiga bevosita ta’sir o‘tkazadi, bu o‘zini boshqaruv harakatlari sifatida namoyon qiladi. Buni Amir Temurning “Azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir”, degan fikri ham tasdiqlaydi. Bugungi kunda biz bunday shaxslarni liderlar deb ataymiz.

Lider so‘zi inglizcha “leader” - yetakchi, boshliq, rahbar biror siyosiy partiya yoki tashklilotning rahbari, yo‘lboshchisi ma’nolarini anglatadi [5].

Bir qarashda liderlik rahbarlik kabi ko‘rinishi mumkin. Qisman to‘g‘ri, ammo ularning o‘zaro farqli jihatlari mavjud.

Birinchidan, lider har doim parda ortida va o‘z-o‘zidan aniqlanadi, rahbar esa rasmiy ravishda tayinlanadi.

Ikkinchidan, rahbar u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ma’lum bir guruh vakili bo‘lib, yetakchi, aksariyat hollarda, guruhdan ajraladi.

Uchinchidan, liderning asosiy sohasi - bu shaxslararo munosabatlar, rahbar esa rasmiy munosabatlardir. Ammo rahbarning ixtiyorida juda ko‘p tashqi

https://wordlyknowledge.uz

ma’lumotlar mavjud, qonuniy sanksiyalarni qo‘llash mumkin, ya’ni u rasmiy shaxs. Ilmiy tilda guruhga kuchli va ta’sirchan ta’sir ko‘rsatadigan rasmiy rahbar, ya’ni uning ta’siri pozitsiyaga bog‘liq bo‘lsa, "bo‘ysunuvchilar" ga ta’sir qiladi.

Ushbu masalalar siyosiy darajagacha ko‘tarilib 2019 yil 24 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonda ham o‘z aksini topgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Rahbarlarda boshqaruv qobiliyatlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan bilan bog‘liq tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va ta’lim muassasalari, jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO, Shveysariya), Braziliya universiteti (Universidade de Brasília, Braziliya), Jon Kennadi boshqaruv instituti (John F. Kennedy School of Government, AQSh), Ural Federal universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Davlat boshqaruv universiteti (Rossiya Federatsiyasi), “Saville Assessment” kompaniyasi (Buyuk Britaniya), A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot instituti(O‘zbekiston)da olib borilgan [7].

Mamlakatimizda boshqaruv tizimi, ta’lim tizimida innovatsion, strategik, funksional menejmentni shakllantirish masalalari R.Djuraev, J.Yo‘ldoshev, U.Inoyatov, S.Turg‘unov, M.Yuldashev, O.Xayitov, Ya.Ismadiyarov, A.Magrupov, N.Muxamedova, M.Saidov, M.Mirsolievalar; nosog‘lom muhitni keltirib chiqaruvchi pedagogik ziddiyatlarni kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish bo‘yicha M.Axmedova, M.Davletshin, G‘.Shoumarov, S.Jalilova, X.Ibragimov, V.Karimova, D.Narziqulova, Z.Nishonova, E.G‘oziev, R.Samarov, A.Xoliqov, N.Safaev, G.To‘ychieva, N.Shermuxammedova, Sh.Mo‘minov, B.Qodirov, R.Sunnatova tomonidan o‘rganilgan [3, 4].

https://wordlyknowledge.uz

METODOLOGIYA

Tadqiqotda o‘quv-metodik, ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, suhbat, pedagogik kuzatuv, test, cavol-javob, intervyu, pedagogik tajriba-cinov, matematik-ctatictik tahlil usullardan foydalanilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi rahbarining samarali boshqaruv faoliyatini shakllantirish tuzilmasi sog‘lom va ijodiy muhitni yaratish algoritmini jamoada turli toifadagi xodimlar bilan ishlashga doir ichki va tashqi ijtimoiy jarayonlarning ijtimoiy-pedagogik funksiyalari empirik darajasi bo‘yicha amaliy g‘oyalar ta’sirchanligiga hamda barqaror taraqqiyotga moyilligini aniqlashtirish asosida takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

TADQIQOT NATIJASI

Umumta’lim muassasalari rahbarlaridagi liderlik qobiliyatlarini shakllantirish negizida quyidagi shaxsiyatga aloqador qobiliyatlar shakllantirish maqsadga muvofiqdir:

- insonparvarlik tamoyili - rahbarlarning ijtimoiy faolligi, ma’naviy barkamolligi, shaxsiy erkinligi, axloqiy fazilatlari, kreativlik va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlashni bildiradi;

- demokratlashtirish tamoyili - boshqaruvning asosiy vazifalarini hal etishda mustaqillikni rivojlantirish, hamkorlik va sherikchilikning turli shakllarini takomillashtirish, innovatsion faoliyat ishtirokchilari orasida ishonchni tarkib toptirishni bildiradi;

- individuallashuv tamoyili - rahbarlarni o‘z-o‘zini anglashga, o‘zo‘zini boshqarishga, o‘z-o‘zini nazorat qilishga, o‘z-o‘zini yo‘naltirishni bildiradi;

- rahbarlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltiruvchi va yuksaltiruvchi tamoyil-innovatsion ta’lim sharoitida jamiyat ehtiyojlariga rahbarning boshqaruvchanligining mos kelishini bildiradi;

- innovatsion tamoyil - rahbarning yangilikka intilishi, ta’limning zamonaviy tendensiyalaridan xabardor bo‘lishi va jamoa boshqaruvida yangiliklarni qo‘llashini bildiradi;

https://wordlyknowledge.uz

XULOSA

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi rahbari amaldagi umumiy o‘rta ta’lim sohasidagi tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni; maktab faoliyati va uni rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini, jamoani boshqarishning samarali usullarini; o‘quv va tarbiya sifati, davlat ta’lim standartlari talablarini joriy qilish natijalari bilan bog‘liq holda xodimlarni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish tizimlari va metodlarini; kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish usullari, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini; ta’lim muassasasi va o‘qituvchilar faoliyatini tahlil qila olishni, ta’lim muassasasi faoliyatidagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilishning samarali yo‘llarini topishni; maktabni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, ta’lim muassasasini boshqarishning tashkiliy tarkibini tuzish, shartnomalar tuzishni; pedagogik jamoada qulay psixologik muhit yaratishni bilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda ta’lim muassasalari rahbarlarining liderlik xususiytalarini rivojlantirish uchun bugunda kunda mamlakatimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Buni O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risda”gi qonuni, “Ta’lim to‘g‘risda”gi qonunlarda o‘z aksini topganligida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu normalarni amaliyotga tatbiq etish yoshlarda liderlik xususiyatlarini namoyon bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi [2].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5538-son Farmoni. 2018 yil 5 sentabr.

2. K.Turaev Yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiyamaliy konferensiyasi maqolalar to„plami. –T. 2020. 14-b.

3. Djuraev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.; Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim yangilanish yo‘lida. - Toshkent: O‘qituvchi, 2000. -207 b.;

https://wordlyknowledge.uz

4. Inoyatov U.I. Teoreticheskie i organizatsionno-metodicheskie osnovы upravleniya kontrolya kachestva obrazovaniya v professionalnom kolledje. Diss...dok. ped.nauk. - T.: 2003. -327 s.;

5. O‘zbek tilining izohli lug„ati. –T. “O„zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2013. 497-b.

6. https://www.ilo.org/global/research/lang--en/index.htm

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz

Abduyusupova F.R.

O'zbekiston milliy universiteti magistranti

CHOR HUKUMATINING XIVAGA UYUSHTIRGAN 1839 YILDAGI QISHKI HARAKATI

Annotatsiya: *XIX asr, Rossiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan siyosati tobora kuchayib bormoqda. Rossiyaning mintaqadagi faollashishi Orenburg harbiy gubernatori V. A. Perovskiy faoliyati bilan bevosita bog'liq edi. 1834 yilda uning farmoniga binoan nihoyat Kaspida yangi Aleksandrovskiy qal'asi qurildi. Biroq, bu qal'ani qurilishi Xiva muammosini hal qilmadi. Xivaliklar savdo karvonlarini talon - taroj qilishlari va rus qozoqlarini doimiy talashlari davom etdi. Har yili Xivaga Rossiya fuqarolaridan 200 ga yaqin asir o'g'irlangan. Perovskiy yurishi hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, Xivaga qarshi harbiy yurishga tayyorgarlik ko'rishni boshladi. Harbiy gubernatorga xonlik poytaxtini olish, uning hukmdorini Rossiya uchun foydali shartnoma imzolashga majbur qilish va Rus asirlarini hammasini ozod qilish buyurildi.*

Kalit so`zlar: *Sankt-Peterburg, -Xivaliklar, Orol dengizi, Nikolay I, A. I. Chernyshev, Angliya hukumati.*

Abduyusupova F.R.

Master of the National University of Uzbekistan

THE TSARIST GOVERNMENT'S WINTER MOVEMENT OF 1839 IN KHIVA

Abstract: *In the 19th century, Russia's policy towards Central Asia is getting stronger. The activation of Russia in the region was directly related to the activities of the military governor of Orenburg, V. A. Perovsky. In 1834, according to his decree, a new Alexandrovsky fortress was finally built on the Caspian. However, the construction of this fortress did not solve the problem of Khiva. The Khiva people continued to rob trade caravans and constantly rob Russian Kazakhs. Every year, about 200 prisoners of Russian citizens were stolen from Khiva. The Perovsky campaign, supported by the government, began to prepare for a military campaign against Khiva. The military governor was ordered to take the capital of the khanate, force its ruler to sign a treaty beneficial to Russia, and release all Russian prisoners.*

Key words: *St. Petersburg, Khiva people, Aral Sea, Nicholas I, A. I. Chernyshev, British government.*

https://wordlyknowledge.uz

1839 yil mart oyida Sankt-Peterburgda Osiyo departamentining maxsus qo'mitasi yig'ilishi ishtirokchilari 44-harbiy yurishning asosiy maqsadlarini aniqladilar :

-Xivaliklarning Rossiya imperiyasi tasarrufidagi hududlarga hujumlarini to'xtatish,

- Xiva xonligida rus asirlarini ozod qilish.

-xavfsiz savdoni ta'minlash va Orol dengizini o'rganish.

Ekspiditsiya omadli kelgan taqdirda ya‘ni shahar egallansa Xiva xonini ag'darish va uning o'rnini ishonchli xon bilan almashtirish, tartibni o‘zgartirib uni mustahkamlash, barcha mahbuslarni ozod qilib va savdo-sotiq qilishga to'liq erkinlik berish kabi topshiriqlar yuklatilgandi.[1][1] Nikolay I va harbiy vazir A. I. Chernyshev "Rossiyaning Markaziy Osiyodagi ta'sirini kuchaytirish va mustahkamlash, shuningdek, xivaliklarning uzoq vaqtdan beri jazosiz qolishini va ayniqsa, Angliya hukumati bizning sanoatimiz va savdo-sotiqqa zarar etkazadigan harakatini toxtatish"talabi bilan kampaniya memorandumini qo'llab-quvvatladilar. Bu sohalarda o'z ustunligini tarqatishga intilgan" [2][2]

Zamonaviy britaniyalik tarixchi A. Morrisonning fikricha, Rossiya "Xiva tomonidan savdogar karvonlariga hujumlar natijasida yuzaga kelgan jiddiy shaxsiy shikoyatlarga murojaat qilish sabab bo‘layotgandi".

Rossiya fuqaroligidagi ko'chmanchi xalqlar va xatto A. Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini xoinlik bilan yo'q qilish uchun harakat qilganlar bor edi. Biroq, bu harbiy yurishni qonuniyligini aniqlagan mahbuslar edi. Rossiya buyuk davlatning raqobatbardosh maqomini saqlab qolishga majbur bo'ldi va Xiva o'z hokimiyatiga zarar etkazishiga yo'l qo'yolmadi, Buyuk Britaniya esa Afg'onistondagi ta'sirini kuchaytirmoqchi edi"[3][3]

[1] Захарьин И.Н. Граф В. А. Перовский и его зимний поход в Хиву. СПб., 1901. С. 90.
[2] Morrison A.S. Twin Imperial disasters. The invasions of Khiva and Afghanistan in the Russian andBritish official mind, 1839–1842 // Modern Asian Studies. 2014. Vol. 48. № 1. P. 277.
[3] Morrison A. S. Twin Imperial disasters. The invasions of Khiva and Afghanistan in the Russian andBritish official mind, 1839–1842. P. 253–300.

https://wordlyknowledge.uz

Dastlab, harbiy harakat 1839 yil bahorida rejalashtirilgan edi, ammo ular buni Xon Do'st-Muhammadga qarshi ingliz missiyasi tugaguniga qadar kechiktirishga qaror qilishdi. "Markaziy Osiyodagi harakatlarimizning ta'siri yoki taassurotlari og'irroq bo'lishi uchun va Angliya o'z g'alabalari bilan hukumatni bezovta qilish huquqidan mahrum qilishi uchun turli xil tushuntirishlar talabi bilan chiqishgan. Ammo har qanday holatda ham kampaniyani keyinga qoldirmaslik kerak edi. Qishki yurishning qo'shimcha sabablari "Xitoyni zabt etish uchun 200 ming armiya bilan qorda Gobi dashtidan o'tgan Chingizxonning tarixiy misollari (1211) va har doim qishda Sibir yoki Uralga bostirib kirishni boshlagan Amir Temur, shuningdek Ushatoy va Kurbskiy gubernatorlarining qishki yurishi misol bo‘la o‘ladi. Berg ekspeditsiyasi va Vaterloo jangida qatnashgan Vellington dukosi kengashi ham qish foydasiga harakat qildi, u qorni ichimlik suvi sifatida ishlatish imkoniyati tufayli qishda yurish qulayligini ko'rsatdi. A. Bekovich-Cherkasskoga 50% yozgi kampaniyasining muvaffaqiyatsiz otadi deb o‘yladi.

1839 yil 14-noyabrda imperatorning Deklaratsiyasi chiqdi, unda Xivaga qarshi harbiy ekspeditsiya o'tkazishga sabab bo'lgan sabablar bayon qilindi: "ushbu ekspeditsiyaning maqsadi qurol kuchi bilan Xivaliklarni Rossiyaning adolatli talablarini bajarishga majbur qilish edi."

Xivani zabt etishning yana bir sababi Xivada yashovchi rus qullarini ozod qilish, imperiya chegaralari yaqinida sodir bo'lgan talonchilik va zo'ravonlikni to'xtatish va kelajakda Rossiya fuqarolarining foyda huquqlarini ta'minlash uchun hukumatlar yaratishdan iborat edi.[4][4]

24 noyabr kuni Orenburgning asosiy maydonida askarlarga imperatorning buyrug'i e‘lon qilindi. Unga kora Orenburg gubernatori V. A. Perovskiy qo'mondon etib tayinlandi, uning rahbarligida Ural va Orenburg kosak qo'shinlari,

[4] *Мирза Абд ал-Азиз Сами*. Тарих-и салатин-и мангитийа (История мангытских государей) / Мирза Абд ал-Азиз Сами ; пер., введ. и примеч. Л. М. Епифанцевой. М., 1962. 445 с.

https://wordlyknowledge.uz

Rossiya muntazam armiyasining 1-Orenburg polki, boshqor-meshcheryak qo'shini va artilleriya qismlari 5 bo'lgan.[5][5] Shahardan to'rtta kolonna chiqardi, ulardan birinchisini General-leytenant Tolmachev, ikkinchisini polkovnik Kuzminskiy, uchinchisini polkovnik Mansurov, to'rtinchisini va butun kavaleriyani general – mayor Tsiolkovskiy boshqargan. Har bir ustunga buyurtma va ta'minot sarfini nazorat qiluvchi navbatchi tayinlangan. Chiqish paytida ob-havo qo'rqinchli emas edi, lekin kechasi harorat 22 darajadan pastga tushdi.

Manbalarga ko'ra, "yurishga tayyorgarlik to'g'ri olib borilgan, qurol va o'q-dorilardan tashqari, qo'shinlarning hayotiga katta e'tibor berilgan, sotib olingan: kibitkalar va jun gilamlar, odamlarni parazitlardan himoya qilish uchun, sovun, tamaki, ko'mir va ponton vagonlari, jabduqlar, asbob bilan egarlar, suv olish uchun temir chelaklar (va uni qazib olish uchun(agar kerak bo'lsa), chuqur quduqlardan maxsus snaryad ixtiro qilingan), yog'och chelaklar, mixlar, ko'zoynaklar, arqonlar, qayin yog'ochlari va hammom uchun taxtalar, chiroqlar va boshqalar yetarlicha tayyorlangan.[6][6] Xodimlarning kiyim-kechaklariga alohida e'tibor qaratilgan"yarim paltolar, ya'ni yosh qo'zichoq junidan qilingan. Pastki shimlar ham qirg'iz junidan va mahkam tikilgan; qalin va qora matodan tikilgan shimlar.

Bu vaqtda siyosiy vaziyat birmuncha o‘zgarib bormoqda edi.1839 yil 2 avgustda Kobuldan qochgan afg'on xoni Do'st-Muhammad rus qo'shinlari yordamida yo'qolgan pozitsiyalarini tiklashga harakat qiladi. 1839 yil dekabr oyida Xivaga ingliz razvedkasi agenti D. Abbott jo'nab ketadi, Shuning uchun Rossiyada Buyuk Britaniya Xivaga yordam bermoqchi degan xavotirlar paydo bo'ldi. Asosiy savol Xivaga kim tezroq etib borishi edi-inglizlar yoki ruslar, shuning uchun ikkala tomon ham shoshilishdi.[7][7]

[5] Косырев Е. М. Поход в Хиву в 1839 г. (Из записок участника) // Ист. вестник. 1898. № 8.С. 538–545.
[6] Иванин М. И. Описание Зимнего похода в Хиву в 1839–1840 году. С. 143.
[7] Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах, гвардейского Генерального Штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сии страны для переговоров. М., 1822. 182 с.

https://wordlyknowledge.uz

Biroq, Xiva kampaniyasining birinchi haftalaridan boshlab qiyinchiliklar paydo bo'ldi. Askarlarning kiyimlari noqulay bo'lib chiqdi, qo'y junini issiq edi, lekin tezda bu kiyimlar noqulay ekani aniqlandi. Paltolar yarim paltolarga sig'madi, Haram shimlari etiklarning tor millariga sig'madi va paypoq va oyoq kiyimlari oyoqlarga kerakli issiqlikni bermadi. To'liq kiyim-kechak va to'liq tartib bilan o'tgandan so'ng, askarlar tunashga joylasha olmadilar. Harbiy harakat ishtirokchilarining o'zaro guvohliklariga ko'ra, ekspeditsiya sharoitida "faqat shlyapalar yaxshi ish bergan edi"[8][8]

Ustyurt cho'li va platosi deyarli o'rganilmagan, Xivaga yo'l joyida qurilgan. Harbiy navigatsiya Emba daryosi va Amudaryo daryosigacha cho'lda katta suv to'siqlari yo'qligi haqidagi kam ma’lumotlar bilan qanoatlantirildi. Shu bilan birga, Moskvada Xivaga bag'ishlangan kitob nashr etildi: "Xiva nima? Biz u haqida deyarli bilmaymiz. Xiva butun Osiyo yo'llari chorrahasida turadi; undan to'g'ridan-to'g'ri Sharqiy Hindistonga, chapga Xitoyga, o'ngga Forsga yo'l bor edi. Butun Sharqiy va Janubiy Osiyodan Rossiyaga boradigan karvonlar Xiva orqali yoki uning yaqinida, shu sababli ushbu hududdan qat'iy ravishda o'tishlari kerak edi.

Agar ingliz hukumati Xiva bilan munosabatlarni yaxshilasa Angliya Ost-Indiya kompaniyasi Hindistonda u tomonidan bosib olingan yuz o'ttiz million odam bilan qanoatlanib, butun Sharqiy Osiyoga o'z ta'sirini kengaytirishi mumkin edi.

Polkovnik Bergning noto'g'ri xulosalari ham kampaniya uchun halokatli rol o'ynadi. Uning maslahatiga ko'ra, kuzda Xivaga boradigan yo'lning yarmida zaxiralarni saqlash, otlar va tuyalarni dam olish va Ustyurtda qor suvi bo'lishi uchun birinchi qorni kutish kerak deb hisoblar edi. U Donguz-Tau traktida chorva mollari uchun zararli o'tlar bilan qoplangan botqoq sho'r suvdan iborat zaxiralarni saqlash joyini muvaffaqiyatsiz taklif qildi. [9][9]Yurish paytida Donguz-Tau

[8] Терентьев М. Хивинские походы русской армии. С. 11.
[9] *Гродеков Н. И.* Хивинский поход 1873 года. Действия кавказских отрядов. Издание редакции

https://wordlyknowledge.uz

traktini oldindan tekshirishmagan, bu ekspeditsiyaning yana bir noto'g'ri hisob - kitob qilingani uchun askarlar juda qiynalgan . V.A.Perovskiy Sirdaryoga kelib o ‘rnashishni, bu erda rus koloniyasini tashkil etishni va keyin G'arbiy sohil bo'ylab emas, balki Orol dengizining Sharqiy qirg'og'i bo'ylab harakatlanishni taklif qildi. 1836 yilda Perovskiy bosh shtabning ikki ofitseriga (Ivanina va Nikiforovga) Sirdaryo daryosining quyi oqimida 1000 kishiga mo'ljallangan koloniya bilan mustahkamlanish loyihasini tuzishni topshirgan edi. Ammo tez orada Perovskiyning rejalari eski Berg loyihasi foydasiga o'zgardi . Orol dengizining Sharqiy tomoni bo'ylab yo'l 1400 kilometr, g'arbiy tomoni orqali 1320 kilometr masofani nazarda tutgan. Berg ikkinchi yo'lni yanada qulayroq deb tavsiya qildi: unda qalalar qurish uchun ikkita nuqta belgilangan edi: birinchisi, Embacdaryosiga quyiladigan joyda edi

Yakshi va Oq-buloqning ikkinchisi-ikkalasi ham oziq-ovqat va sho‘r suv yo'qligi sababli juda noqulay bo ‘lib qolgandi. General Perovskiy ikkinchi yo'lni tanladi.

Asosiy to'siq qishki dashtning eng og'ir ob-havo sharoiti, qor qoplami, hayvonlarning o'tish qobiliyatining cheklanganligi va yonuvchan materiallarning yo'qligi edi. Rus askarlari o‘zlarning qurol yaroqlarining ustunligiga ishongan holda hushyorlikni yo'qotishdi. Lekin vaziyatni noqulayligi ko‘p jihatan pand beradi. Bundan tashqari inglizlarning ham aynan shu yili yo‘lga chiqanligi vaziyatni yanada qiyinlashtirdi. Shunisi e'tiborga loyiqki, asosiy kuchlar Orenburgdan chiqib ketishidan bir necha hafta oldin podpolkovnik Danilevskiy (1842 yilda Xivadagi elchixona boshlig‘i bo‘lgan) boshchiligida avangard (362 kishi, shu jumladan 5 ofitser, 4 qurol, 1128 tuya) bilan qor yo'qligi sababli Emba daryosigacha nisbatan bezarar yetib kelgan.

Harbiy harakatning Bosh shtab ofitseri M. I. Ivanin shunday yozgan edi: "Yurishda, ya'ni ot minishda, issiq kiyinish mumkin emas edi yurishga xalaqit

исторического журнала «Русская старина» / Н. И. Гродеков. СПб., 1883. 345 с.

https://wordlyknowledge.uz

qilar edi, shuning uchun yuqa kiyingi bo ‘lishimiz kerak edi. Sovuq bo‘lardi. kechasi, odatda sovuq kuchayganida biz namatni o‘ranib yotardik. namat bilan qoplangan muzlatilgan yerda kigiz kibit ostida uxlar edik. Garchi qo'y terisini o'rab olgan bo'lsak ham, kunduzi kabi sovuq emas edi; odatda biz uyqu paytida oyoq va burun muzlamasligi uchun boshdan-oyoq yopilar edik, lekin tun davomida nafas olganligimiz uchun sochlarimiz va mo'ylovlariga qadar muzlab qolar edi, shuning uchun birinchi g'amxo'rlik o'rnidan turib, bosh va mo'ylovda hosil bo'lgan muzni eritib, qo'y terisiga muzlab yopishib qolgan sochlarni ajratish kerak edi"[10][10]

Ekspeditsiyaning yana bir ishtirokchisi, harbiy shifokor va bo'lajak buyuk rus olimi V. I. oilasi va do'stlariga optimistik ruhda ozgan xatida shunday degan edi: "biz sovuqdan qo'rqmaymiz; biz buni maqtanish uchun emas, balki tajribadan aytamiz; faqat bizga qarang va biz maqtanmasligimizga ishonch hosil qilasiz. Choyshab, tuya junida, kurtkalar va har xil turdagi liboslar, yosh qullarning terisidan tikilgan yuqori ko'ylak yoki kiyik terisidan palto , echki terisidan paxmoq qo'lqoplari va paypoqlari, hamma narsa zaxiralagan va faqat badbaxt qish bizni qayerdan qanday zaxira bilan kelganimizni bilmayapti degan edi. Ammo keyingi xatlarida u yarador va kasallarni borligini, sharoit og'irligi haqida xabar bergan, bu esaekspeditsiyaning ancha qimmatga tushayotganidan dalolat bergan. Zaxirinning ta'kidlashicha askarlar " kasalxonaga” yuborilardi va u erdan uch kundan keyin qabrga olib ketilar edilar. Lager kasalxonalari Embaga boradigan yo'l bo'ylab otryad qorsiz dasht bo'ylab yuradi degan taxmin bilan tashkil etilgan uzun vagonlarda, g'ildiraklarda joylashtirilgan bo‘lgan. Ushbu vagonlar shu qadar sovuq ediki, ular hatto sog'lom askarlarni ham kasal qilardi, ular faqat charchagan oyoqlariga dam berish kasalxonaga "dam olish uchun" borardilar ammo ikki-uch kundan keyin bunday askarlar shamollab, tifoz isitmasini ushlab, halok bo‘lishardi. Qo‘riqchilik xizmatida turgan askarlar turgan joyida muzlab

[10] Иванин М. И. Описание Зимнего похода в Хиву в 1839–1840 году. С. 143.

https://wordlyknowledge.uz

qolardi. Bir kuni boshliqlaridan biri postlarnng birida qo'lida qurol ushlab turgan yarim yotgan askarni ko'radi. U uning oldiga boradi va baland ovoz bilan baqirib, bo'yniga uradi. Askar qorga yiqilib, harakatsiz yotdi. Ma'lum bo'lishicha, u allaqachon muzlatilgan jasad bo‘lgan. Shu va shu kabi voqealar Xivaga uyushtirilgan harbiy harat notog‘rib o‘lganidan dalolat beradi. Vaqt o'tishi bilan gavjum boshlanib shifoxonalar tuyalarning yon tomonlariga osilgan ko'rpa-to'shaklar bilan almashtirildi.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasining armiyasining dasht bo'ylab qishki harbiy yurishga tayyor emasligi uning muvaffaqiyatsizligiga olib keldi. Missiyaning muvaffaqiyatsiz bo'lishining sabablari M. I. Ivanin noto'g'ri kiyim, oziq-ovqatning kamligi, sovuqlik va natijada kasallik, dashtning qish sharoitlariga tayyor emasligi (chang'i, chananing yo'qligi), qiyinchiliklar isbotlab berdi.

Bundan tashqari, ishtirokchilar o'z xotiralarida qo'mondonlik tarkibining askarlarga nisbatan e'tiborsizligini, shuningdek, ustunlar boshliqlari o'rtasidagi raqobatbardosh va professional bo'lmagan munosabatlarni qayd etishgan. Masalan, V. A. Perovskiy "o'zini boshliqlariga nisbatan juda g'ayritabiiy munosabatlarga qo'ydi bo‘lgani aytiladi[11][11]

Urush paytida armiya duch kelgan barcha qiyinchiliklarga qo'shimcha ravishda, cho'lda xivaliklar bilan doimiy ravishda harbiy to'qnashuvlar bo'lib turardi. "Xivaliklar to'dasi tunda kolonnaga, ya'ni mayor Simbuxinga odamlarning qayg'uli ahvolidan foydalanib keladi omon qolgan tuyalar podasini qaytarib olib, ularni leytenant Yerofeyev kolonnasidan ajratib, dashtga haydab yuborishardi"

1839 yil 30 dekabrda Oq - buloq qal‘asi yonida og'ir jang bo'lib o'tadi. Urush qatnashchisi E. M. Kosyrevning ma’lumotlariga ko'ra, 3 000 kishidan iborat Xiva kavaleriyasi janubi-g'arbdan yaqinlashib, 399 kishi, ulardan 164 nafari kasal bo'lgan rus askarlariga hujumga o‘tadi. Birinchi hujum

[11] *Захарьин И. Н.* Граф В. А. Перовский и его зимний поход в Хиву. С. 97.

https://wordlyknowledge.uz

muvaffaqiyatsiz bo'ldi, chunki rus qo'shinlari artilleriyada ustunlikka ega edilar. Ko'p o'tmay, xivaliklar yana bir nechta Oq - buloq qal‘asi g'arbida tomonida otlar va tuyalar uchun tayyorlangan pichanni yoqishga harakat qilishadi. Qo'shinlar bu urinishni to'xtatdi va xivaliklar sharqdan istehkomga hujum qilishadi. Yangi qurollar qo'llanilgandan so'ng Xiva qo'shinlari orqaga chekinishdi. Bu vaqtda Oq - Buloqga rus armiyasining asosiy qismlari yaqinlashayotgan edi, ularga qarshi xivaliklar oldinga siljishdi.

Oq-buloqdan 20 kilometr uzoqlikda rus qo'shinlari yarim doira shaklida vagonlar qurib, barrikadalar qurdilar, ularning orqasida yashirinadilar. Kun davomida xivaliklar barrikadalarga bir necha bor hujum qilishadi, ammo muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqdi. 1839 yil 31 dekabrdan 1840 yil 1 yanvarga o'tar kechasi otdan tushgan xivaliklar istehkomlar tomon sudralib o'tishga harakat qilishdi. Shu bilan birga, xivaliklar Rossiya barrikadalari va vagonlaridan 100 metr uzoqlikda xandaq qazishib loy va qordan qoplamalar qurishdi, u yerdan ertalab 69 rus qo'shinlari o'q otishni boshladilar. Askarlar tuyalar bilan yashirinib, Xivaliklarga hujum qilib, dushmanni quvib chiqarishdi. O'z navbatida, xivaliklar Rossiya barrikadalariga hujumni boshladilar. Ular o'zlarini dushman olovidan himoya qilib, hayvonlarni haydab chiqarishdi. Kolonnalar qo'mondoni leytenant Yerofeyev qo'shinlarga chekinib ketishni buyurdi. Xivaliklar barrikadalarga yaqinlashishi bilanoq, rus qo'shinlari ularga yon tomondan o'q uzdilar va xivaliklar orqaga chekindilar.

Faol jangovar harakatlardan so'ng, rus armiyasi uchun yana bir muammo qirg'izlarning o'z ishlarini bajarishni va musulmon dindorlariga qarshi kurashgan ruslar bilan hamkorlik qilishni istamasligi bo‘lgan. Shunday qilib, Oq-buloqdagi to'qnashuvlardan so'ng V. A. Perovskiy yurishni davom ettirishni istamadi.

1 fevral kuni qo'shinlarga murojaat qildi: "o'rtoqlar! Uch oy o'tgach, biz imperatorning buyrug'i bilan yolga chiqdik. Deyarli uch oy ketma-ket biz g'oyat qiyin qiyinchiliklar bilan kurashdik, g'ayrioddiy qattiq qishda bo'ronlardan va o'tib bo'lmaydigan, misli ko'rilmagan qorlardan duch keladigan to'siqlarni yengib

https://wordlyknowledge.uz

o'tdik, bizning yo'limizni va barcha ozuqalarni to'ldirdik. Agar biz uning barcha ahamiyatsizligini ko'rsatgan to'qnashuv haqida gapirmasak, dushman bilan uchrashish uchun quvonch ham yo'q edi. O'tkazilgan barcha ishlarga qaramay, otlar , bizning zaxiralarimiz ko‘p edi.

Ekspeditsiya bu bizni o'zgartirdi: tuyalarning katta qismi allaqachon vafot etgan va biz Ekspeditsiya qolgan qismi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini ko'tarish imkoniyatidan mahrum bo'ldik. Bizni kutayotgan g'alabadan voz kechish qanchalik og'riqli bo'lsa ham, biz bu safar o'z chegaralarimizga qaytishimiz kerak. U erda biz imperator suverenning yangi buyruqlarini kutamiz; boshqa safar biz baxtliroq bo'lamiz. Barchangizga tinimsiz tirishqoqlik, tayyorlik va yaxshi niyat uchun barcha qiyinchiliklarga dosh berganingiz uchun minnatdorchilik bildiraman; eng rahmdil suveren va otamiz hamma narsani bilib oladi"

Shunday qilib, yurish 1839 yil 24 noyabrdan 1840 yil 8 iyungacha davom etdi, ammo haddan tashqari o'ziga ishonch va ob-havo sharoitlariga tayyor emasligi sababli qo'shinlar Xivaga etib bormasdan orqaga qaytishdi. Yo'qotishlar 1054 kishini tashkil qildi, 604 askar kasalligiga chalingan, ularning aksariyati Orenburgdagi gospitalda vafot etgan.

1840 yil fevralda, rus qo'shinlari Orenburgga qaytayotganda, ingliz josuslari Abbot va Shekspir Xivaga etib kelishadi. Bir necha oy davomida ular xonni V.A.Perovskiyning ultimatum talablarini bajarishga va rus mahbuslarining ko'pini ozod qilishga kondirmoqchi bo`ldi, bu nafaqat Xiva, balki inglizlar uchun ham foydali emas edi. Muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlandi va 1840 yil 19-iyulda mingboshin Allaqulixon Xivaliklarga ruslarni talon-taroj qilish va qo'lga olishni taqiqlovchi farmon chiqardi. Bundan tashqari, Xiva xoni asirga olingan rus zobitini Rossiyaga yubordi va "bundan buyon imperator Suverenining barcha talablarini bajarishga tayyorligini e'lon qildi, buning isboti sifatida u o'z mulkidagi barcha rus qullarini ozod qilib, ularga kerakli pul nafaqasini berdi va o'z elchisi bilan yubordi (Shekspir. A. K.)

https://wordlyknowledge.uz

Rossiyada hibsga olingan Xiva savdogarlarini ozod qilish, ularga asir olingan tovarlarni qaytarish, kambag'allarga Vatanga borish uchun zarur bo'lgan nafaqani berish va Xiva bilan to'xtatilgan savdo aloqalarini tiklashga ruxsat berish to'g'risida xat yozgan.

Bir oy o'tgach, Xivadan rus asirlari bilan karvon 416 kishidan iborat bo'lib, yangi Aleksandr istehkomiga etib keldi, u erdan Guryev dengiz orqali jo'nab ketadi va keyin ularni Orenburgna 72 kishi kuzatib qo'ygan. Xiva mahbuslarining materiallari noyob manba bo'lib, tadqiqotchilarga mahbusning o'rtacha portretini, uni qo'lga olish shartlarini, mazmunini, shuningdek, ularning ijtimoiy mavqeyi va ijtimoiy mavqeyini ko'rsatadi. So'rovnomada jami 16 dona savol mavjud bo'lib, ular ikkala standart umumiy turni o'z ichiga oladi: familiya / ism, yosh, unvon, Vatani, turmush qurgan yoki turmush qurmagan, bolalar soni va ularning ismlari – va aniqroq, to'g'ridan-to'g'ri asirlikka tegishli va tadqiqotchi uchun eng qiziqarli. Bu asirlikning vaqti, joyi va sharoitlari, darhol Xivaga olib ketilganmi, Xivada kim yashagan, ozodlik sharoitlari, Xivada hali ham asirlar qolganmi va ularning ismi nima, Xivada turmush qurganmi yoki farzand ko'rganmi degan savollar bor edi.

Shunday qilib, 1839-1840 yillardagi Xiva ekspeditsiyasi, Xiva asirligidan Rossiya fuqarolarining 1/3 qismini ozod qilganiga qaramay, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi eng muhim muvaffaqiyatsizliklaridan biri bo'ldi. Xiva frontidagi muvaffaqiyatsizlik va rus-ingliz qarama-qarshiliklarining kuchayishi Rossiya hukumatini Osiyo yo'nalishida alternativa izlashga va Buxoro va Qo'qon bilan munosabatlarni o'rnatishga majbur qildi. Buyuk Britaniya, Rossiya hukumatining Hindistonga qiziqmasligi haqidagi ishontirishlariga qaramay, mintaqaga yanada ko'proq qiziqish bildirdi. 1839 yildan keyin Xivaga yuborilgan Rossiya missiyalari va diplomatik elchixonalari Angliyaning mintaqadagi siyosatiga qarshi chiqish sharoitida shakllandi. Xiva 1853-1873 yillarda Rossiyaning Markaziy Osiyodagi ekspansiya siyosatining asosiy nuqtasiga aylandi

https://wordlyknowledge.uz

Adabiyotlar:

1.Захарьин И.Н. Граф В. А. Перовский и его зимний поход в Хиву. СПб., 1901. С. 90.
2.Morrison A.S. Twin Imperial disasters. The invasions of Khiva and Afghanistan in the Russian and British official mind, 1839–1842 // Modern Asian Studies. 2014. Vol. 48. № 1. P. 277.
3. Morrison A. S. Twin Imperial disasters. The invasions of Khiva and Afghanistan in the Russian and British official mind, 1839–1842. P. 253–300
4.Мирза Абд ал-Азиз Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа (История мангытских государей) / Мирза Абд ал-Азиз Сами ; пер., введ. и примеч. Л. М. Епифанцевой. М., 1962. 445 с.
6.Косырев Е. М. Поход в Хиву в 1839 г. (Из записок участника) // Ист. вестник. 1898. № 8.С. 538–545
7. Иванин М. И. Описание Зимнего похода в Хиву в 1839–1840 году. С. 143.
8.Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах, гвардейского Генерального Штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сии страны для переговоров. М., 1822. 182 с.
9.Терентьев М. Хивинские походы русской армии. С. 11.
10.Гродеков Н. И. Хивинский поход 1873 года. Действия кавказских отрядов. Издание редакции исторического журнала «Русская старина» / Н. И. Гродеков. СПб., 1883. 345 с.
11.Иванин М. И. Описание Зимнего похода в Хиву в 1839–1840 году. С. 143.

WORDLY KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz

Arzimurodova E.

Berdimurod qizi

Independent researcher

THE MOBILE COMMUNICATION TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation: In the contemporary world, mobile communication has become an integral part of daily life, influencing various aspects of society, culture, and economy. As mobile technology evolves, so does the terminology associated with it. This paper aims to explore the mobile communication terminology in English and Uzbek, highlighting the similarities and differences between the two languages. Understanding these terminologies is crucial for effective communication in a globalized world, especially in regions where multiple languages coexist.

Key words: terminology, English and Uzbek.

Mobile communication terminology has evolved significantly since the advent of mobile technology. In English, terms such as “smartphone,” “app,” “data plan,” and “network coverage” have become commonplace. These terms reflect the technological advancements and the growing reliance on mobile devices for communication, information access, and social interaction.

In contrast, the Uzbek language has also adapted to these changes, incorporating new terms while also creating equivalents for English terminology. For instance, the term “smartphone”: is often translated as “aqlli telefon,” which directly reflects the functionality of the device. Similarly, “application” is translated to “ilova,” showcasing the linguistic adaptation to modern technology.
Comparative Analysis of Terminology

A comparative analysis of mobile communication terminology in English and Uzbek reveals both direct translations and unique terms that reflect cultural nuances. For example, while “text message” is universally understood in English, in Uzbek, it is referred to as “matnli xabar,” which emphasizes the written nature

https://wordlyknowledge.uz

of the communication. This distinction highlights the importance of context in understanding mobile communication.

Moreover, certain terms in English may not have direct equivalents in Uzbek, necessitating the use of loanwords or descriptive phrases. For instance, the term “cloud computing” is often used in its English form in Uzbek discussions, as the concept may not be as widely recognized or understood in the local context. This phenomenon illustrates the challenges faced by non-English speaking countries in keeping pace with rapid technological advancements.

Cultural Implications

The terminology used in mobile communication also reflects cultural attitudes towards technology. In English-speaking countries, there is a tendency to embrace new technology enthusiastically, which is evident in the rapid adoption of new terms. Conversely, in Uzbekistan, while there is a growing acceptance of mobile technology, there may be a more cautious approach to adopting foreign terms, leading to a blend of local and international terminology.

Furthermore, the use of mobile communication in both languages can reveal insights into social dynamics. For instance, the prevalence of social media terminology in English, such as “viral,” “influencer,” and “hashtag,” indicates a cultural shift towards digital interaction. In Uzbek, similar terms are emerging, but they may carry different connotations based on local social norms and values.

Conclusion

In conclusion, the study of mobile communication terminology in English and Uzbek provides valuable insights into the interplay between language, technology, and culture. As mobile communication continues to evolve, so too will the terminology associated with it. Understanding these terms is essential for effective communication in an increasingly interconnected world. Future research could further explore the implications of this terminology on language development and cultural exchange, contributing to a deeper understanding of how technology shapes our linguistic landscape.

https://wordlyknowledge.uz

Arzimurodova E.

Berdimurod qizi

Independent researcher

THE LINGUISTIC FEATURES OF MOBILE COMMUNICATION TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation: The rapid advancement of mobile communication technology has significantly influenced language, leading to the emergence of new terminologies and linguistic features. This paper explores the linguistic characteristics of mobile communication terminology in English and Uzbek, two languages that reflect distinct cultural and technological contexts. By examining the similarities and differences in terminology, this study aims to highlight how mobile communication shapes language and communication practices in both linguistic communities.

Key words: linguistic features, terminology.

Linguistic Features of Mobile Communication Terminology

1. Lexical Innovations

Both English and Uzbek have witnessed the introduction of new lexical items due to the proliferation of mobile communication. In English, terms such as “smartphone,” “app,” and “texting” have become commonplace. These terms often reflect the technological features and functionalities of mobile devices. Similarly, in Uzbek, terms like “smartfon,” “ilova” (application), and “xabar yozish"” (to write a message) have emerged, often borrowed directly from English or adapted to fit the phonetic and morphological rules of Uzbek.

2. Borrowing and Code-Switching

The phenomenon of borrowing is prevalent in both languages, particularly in Uzbek, where many English terms related to technology are adopted with minimal modification. This borrowing reflects the global influence of English as a dominant language in technology. Code-switching, where speakers alternate between languages within a conversation, is also common among bilingual speakers in Uzbekistan, particularly among the youth who are more exposed to English through media and technology.

https://wordlyknowledge.uz

3. Acronyms and Abbreviations

Acronyms and abbreviations are a significant feature of mobile communication terminology in both languages. In English, terms like “LOL” (laugh out loud), “BRB” (be right back), and “DM” (direct message) are widely used in digital communication. In Uzbek, similar practices can be observed, with abbreviations such as “Xo’p” (OK) and “Yana” (again) being used in informal texting. These linguistic features facilitate quick and efficient communication, reflecting the fast-paced nature of mobile interactions.

4. Semantic Shifts

The meanings of existing words often shift in the context of mobile communication. In English, the word “friend” has expanded to include online connections made through social media platforms. In Uzbek, traditional terms may also acquire new meanings related to digital interactions, illustrating how mobile communication influences social relationships and language use.

Cultural Context and Implications

The linguistic features of mobile communication terminology in English and Uzbek are not only reflections of technological advancements but also indicators of cultural attitudes towards technology. In English-speaking countries, the rapid adoption of new terms often signifies a culture of innovation and adaptability. In contrast, the integration of mobile communication terminology in Uzbek reflects a blend of traditional values and modern influences, showcasing the dynamic nature of language in response to globalization.

Conclusion

The study of mobile communication terminology in English and Uzbek reveals significant linguistic features that highlight the impact of technology on language. Through lexical innovations, borrowing, acronyms, and semantic shifts, both languages adapt to the changing landscape of communication. Understanding these linguistic features provides insights into the broader cultural

https://wordlyknowledge.uz

implications of mobile communication and its role in shaping contemporary language practices.

References:

1. Crystal, D. (2006). Language and the Internet. Cambridge University Press.

2. Herring, S. C., & Stoerger, S. (2014). The Language of Social Media: Communication and Community on the Internet. Routledge.

3. Kachru, B. B. (1992). The Other Tongue: English Across Cultures. University of Illinois Press.

4. Makhmudova, D. (2020). Linguistic Features of Modern Uzbek Language in the Context of Globalization. Journal of Language and Linguistic Studies, 16(1), 123-135.

5. Yusupov, A. (2019). The Influence of English on the Uzbek Language: A Sociolinguistic Perspective. Central Asian Journal of Social Sciences, 2(3), 45-58.

WORDLY KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz

Boboyev D.Sh.

Toshkent transport universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA YUKNING NOGABARITLIK ZONASI VA DARAJASINI ANIQLASH

Kalit so‘zlar: *Yuk oqimi, yuk nogabaritlik zonasi, nogabaritlik darajasini aniqlash, yukning og‘irlik markazi, gabarit yuk, xafsizlik talablari, hisoblash usuli.*

Annotatsiya: *Maqolada yuklarni yetkazib berish jarayonida harakat xavfsizligini tashkil etish, ularning mavjud holati va mahsulotlarni qabul qilib olgandan keyin tashishga tayyorlash jarayonida sifatli xizmat ko'rsatish usullarining tadqiqi ko'rsatib berilgan. Vagon oqimlarini tashkil qilish jarayonida nogabarit darajalariga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar va takliflar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, yuklarning nogabaritlik zonalari tahlil qilinib, mavjud tizimdagi nogabaritlik darajalarini aniqlash bo‘yicha takliflar berilgan.*

Boboyev D.Sh.

Tashkent transport University

Tashkent, Uzbekistan

DETERMINATION OF THE ZONE AND LEVEL OF NON-UNIFORMITY OF CARGO IN RAIL TRANSPORT

Keywords: load flow, load nogabarity zone, nongabarity level determination, load center of gravity, gabarite load, frustration requirements, calculation method.

Annotation: the article shows the study of the organization of movement safety in the process of delivery of goods, their current state and methods of quality service in the process of preparing products for transportation after receiving them. In the process of organizing wagon flows, measures and proposals have been developed to identify and eliminate the factors that cause nogabarite levels. In addition, nogabarity zones of loads have been analyzed and proposals have been made to determine the levels of nogabarity in the existing system.

Kirish. MDH ishtirokchi davlatlarining 1520 mmli temir yo‘l tarmog‘i doirasida umumiy shartlarda ochiq harakatlanuvchi tarkibda tashiladigan yuklar,

https://wordlyknowledge.uz

yuklashning asosiy o‘lchamidan oshmasligi kerak Agar yuk to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq harakatlanuvchi tarkibga joylashtirilganda yuklash o‘lchamining konturidan oshib ketsa, u nogabarit hisoblanadi va nogabarit va og‘ir vaznli yuklarni tashish bo‘yicha ko‘rsatmalarga muvofiq tashilishi kerak. Yuklashning imtiyozli gabaritini qo‘llash tartibi, shartlari va ko‘lami yuklarni vagonlar va konteynerlarga joylashtirish va mahkamlash qoidalari (qoidalar) bilan belgilanadi.

Asosiy qism. Bitta vagonga yoki ikkita vagonli ilashmaga ortilgan yuk, agar uning biron bir qismi, shu jumladan joylashtirish va mahkamlash, yuklashning asosiy o‘lchamidan tashqariga chiqmasa va vagon simmetriyasining ko‘ndalang tekisligidan (yoki ilashmada) yukning uchlarigacha bo‘lgan masofa ko‘rsatilgan qiymatlardan oshmasa u holda yuk gabarit doirasida ortilgan hisoblanadi. Nogabarit yuklarni tashish imkoniyati va shartlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, zonalar va nogabaritlik darajalarni hisoblashni asoslash uchun jo‘natuvchilar yuklarni yuklash sxemalarini uchta proyeksiyada, burilish nuqtalarining koordinatalarini (yo‘l o‘qidan X gorizontal masofalar va rels kallagi sathidan Y vertikal masofalar) ko‘rsatadilar.

Yuk quyidagi shartlarga muvofiq platformaga joylashtiriladi:

- yukning tayanch yuzasi platforma polining sathi darajasida;

- yukning og‘irlik markazidan o‘tuvchi yukning ko‘ndalang konturining vertikal o‘qi platformaning og‘irlik markazidan o‘tuvchi vertikal o‘q bilan birlashtiriladi.

Yuk konturining burilish nuqtalarining koordinatalari, uning platformaga joylashishini hisobga olgan holda, gorizontal *X o‘qi* (yo‘l o‘qidan) va vertikal *Y o‘qi* (relsl kallagining sathi darajasidan) bo‘yicha aniqlanadi.

$$X_i = B_i; \qquad Y_i = h_p + h_i, \tag{1}$$


bu erda B_i-burilish nuqtasi masofasi i (i=1,5) yukning kengligi bo‘yicha uning vertikal o‘qidan, og‘irlik markazi orqali o‘tadi, mm;

h_p-platforma polining rels kallagi sathi ustidagi balandligi, mm;

https://wordlyknowledge.uz

h_i- yuk konturining i burilish nuqtasining ko‘ndalang kesim yuzasidan balandligi, mm.

Hisoblangan nogabaritlik, uning konturining burilish nuqtalarida yukning ichki va tashqi qismlari uchun alohida belgilanadi. Yukning ichki qismlari - bu vagon yoki ilashma bazasida joylashgan barcha qismlar (1-rasm). Harakatlanuvchi tarkib yoki ilashma bazasidan tashqarida joylashgan yukning qismlari tashqi qismlar deb ataladi.



1-rasm. Bitta vagonga tayangan holda ortilgan yukning qismlari sxemasi

Hisoblangan nogabaritlik - bu tashqi temir yo‘lning balandligi bo‘lmagan R=350 m radiusli shartli hisoblangan egri yo‘lda berilgan yukning geometrik uchlarini hisobga olgan holda aniqlangan kattalik.

Hisoblangan nogabarit quyidagi holatdagi yuklar uchun aniqlanishi kerak: L_{yuk} uzunligining L_b vagonining bazasiga nisbati L_{yuk}/L_b =1.41 bo‘lganda; ilashma platformalarda tashilganda; 17 m va undan ortiq bazaga ega transportyorlarda tashilganda.

Ilashmaga joylashtirilgan yukning egri chiziqlariga erkin joylashishi uchun ostliklaring balandligini to‘g‘ri hisoblash va ularni joylashtirish alohida ahamiyatga ega. Ostliklarning balandligi:

$$h_0 = a_p tg\gamma + h_p + h_x + f_{\text{пр}}, \qquad (2)$$

bu yerda, a_p-yuk tashish vagonining pollari bilan yukning tegishi mumkin bo‘lgan nuqtasidan yuk ko‘taruvchi vagonning g‘ildirak jufti o‘qigacha bo‘lgan masofa mm:

https://wordlyknowledge.uz

$$a_p = 0.5(L_{yuk} - L_b - 1850) \quad (3)$$

bu yerda, L_{yuk}, L_{b} - yukning uzunligi va vagonning tayanch bazasi uzunligi, mm;

$Tg\gamma$ - yuk va ilashma vagonning bo‘ylama o‘qlari orasidagi burchakning tangensi;

h_{p}-qo‘shni ilashma vagonlarning pollari sathlaridagi farq, mm; $h_{\text{p}} \leq 100$ mm;

h_{x} - xavfsizlik oralig‘i, mm;

f_{bur}- elastik burilish, mm;

Olingan ostliklarning balandligi qiymati bruslarning standart o‘lchamlariga (50 mm dan ko‘p) katta tomonga qarab yaxlitlanadi. Ostliklarning kengligi uning balandligiga, uzunligi esa vagonning kengligiga teng. Ostliklar ikki juft changaklarga (oxirgi tomonlardan) qarama-qarshi joylashtiriladi.

Platformaga ortilgan yukning ko‘ndalang konturining sxemasiga asoslanib, ostliklarning balandligini hisobga olgan holda, yukning burilish nuqtalarining koordinatalari rels kallagining sathidan Y_{his}:

$$Y_{his} = Y_i + h_p + h_i + h_0 \quad (4)$$

Yukning kritik nuqtalarining yo‘l o‘qidan hisoblangan koordinatalari quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$X_{his}^{ich} = X_{ich} + \Delta b_{his}^{tash}, \quad (5)$$

$$X_{his}^{tash} = X_{tash} + \Delta b_{his}^{tash}, \quad (6)$$

bu yerda, X_{his}^{ich}, X_{his}^{tash} -egri chiziqdagi yo‘l o‘qidan kritik nuqtalargacha hisoblangan masofalar, mos ravishda ichki va tashqi bo‘limlarda joylashgan, mm;

X_{ich}, X_{tash} - mos ravishda ichki va tashqi bo‘limlarda joylashgan kritik nuqtalarning to‘g‘ri qismlaridan yo‘l o‘qigacha masofa mm;

Δb_{his}^{ich}, Δb_{his}^{tash} - yukning ichki yoki tashqi qismlarining geometrik chiqishlari va vagonning shartli hisobiy egrilikdagi farqlari.

Qiymatlar Δb_{his}^{ich} va Δb_{his}^{tash} harakatlanuvchi tarkib turiga, ko‘rib chiqilayotgan yo‘naltiruvchi qismlargacha bo‘lgan masofaga bog‘liq va ularni

https://wordlyknowledge.uz

ikki xil usul bilan aniqlash mumkin. Bular: yuqorida keltirilgan jadvallar yoki hisoblash yo‘llari orqali.

Jadvallarda ko‘zda tutilmagan holatlar uchun hisoblash usuli talab qilinadi. Δb_{his}^{ich} va Δb_{his}^{tash} qiymatlari faqat ularning ruxsat etilgan qiymati bilan hisobga olinadi. Agar yukning butun uzunligi bo‘ylab kengligi bir xil bo‘lsa, X_{his}^{ich} va X_{his}^{ich} koordinatalari faqat eng xavfli qismlar uchun tekshiriladi - o‘rtacha (ichki) va oxirgi (tashqi).

Uzun o‘lchamli yukni bitta ilashma platformasiga yoki o‘qlar soni oltidan oshmaydigan transpartyorlarga yuklashda qiymatlar Δb_{his}^{ich} va Δb_{his}^{tash}quyida keltirilgan formulalar bo‘yicha hisoblanadi, mm; bundan tashqari, qiymatlar L_{yuk} va L_b metr bilan almashtiriladi va olingan qiymatlar Δb_{his}^{ich} va Δb_{his}^{tash} keyinchalik faqat ularning ruxsat etilgan qiymati bilan hisobga olinadi:

$$\Delta b_{his}^{ich} = 1.43(l_v - p_{ich})p_{ich} - 105, \quad (7)$$

$$\Delta b_{his}^{tash} = 1.43(l_v - p_{ich})p_{tash} - 105 + K, \quad (8)$$

bu yerda, p_{ich}, p_{tash}-yo‘naltiruvchi qismidan, mos ravishda ichki yoki tashqi ko‘ndalang qismlarigacha bo‘lgan masofalar, m; butun uzunligi bo‘ylab bir xil kesimga ega bo‘lgan yuklar uchun bu masofalar o‘rtagacha va oxirgi kesimgacha quyidagicha aniqlanadi:

$$p_{ich} = 0.5l_v; \quad (9)$$

$$p_{tash} = 0.5(l_v - L_b), \quad (10)$$

105 - hisoblangan egrilik radiusi 350 m bo‘lgandagi bazasi 17 m bo‘lgan hisobiy vagonining geometrik chiqishi, mm;

K - yukning so‘nggi qismlarining qo‘shimcha siljishi, mm.

K qo‘shimcha siljish yo‘l va harakatlanuvchi tarkibni saqlashning mavjud me'yorlari natijasida temir yo‘lda vagonning egilishi natijasida yuzaga keladi va faqat uning ruxsat etilgan qiymati bilan hisobga olinadi. *K* siljishi vagonlar turiga qarab aniqlanadi:

maxsus ramalarda

https://wordlyknowledge.uz

$$K = 70(\frac{L_{yuk}}{L_b} - 1.41); \quad (11)$$

18-100 rusumli ramalarda

$$K = 55(\frac{L_{yuk}}{L_b} - 1.41); \quad (12)$$

Hisoblangan koordinatalar qiymatlari X_{his}^{ich} va X_{his}^{tash} kritik nuqtalar orqali yukning taxminiy shartli nogabaritligi yoki uning haddan tashqari nogabaritligi to‘g‘risida xulosalar chiqariladi va uni tashish usullari bo‘yicha takliflar beriladi.

Xulosa. Ushbu maqolada nogabarit va og‘ir vaznli yuklarni joylashtirish va mahkamlash uchun umumiy talablar ko‘rib chiqildi, bunda vagondagi gabarit va nogabarit yuklar, yukning nogabaritlik zonasi va darajasini aniqlash, nogabarit va og‘ir vaznli yuklarni joylashtirish hamda mahkamlashning umumiy talablar kabi ishlar o‘rganildi. Nogabaritligi tadqiq qilinayotgan uzunligi 21,72 m, ortilgan platformaning baza uzunligi 9,72 m, 1400 mm dan 3850 mm gacha balandlikda kengligi 3600 mm bo‘lgan yukni yo‘lning to‘g‘ridan to‘g‘ri qismida yuk 2-darajali yon nogabaritlikka ega ekanligi hisoblandi. Tadqiqotda keltirilgan formulalar orqali yuklarning nogabaritlik darajalarini aniqlash temir yo‘l transportida harakat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Зиёда Мухамедова, Диёр Бобоев. Исследования по улучшению современной транспортной системы в процессе доставки грузов. *Железнодорожный транспорт: актуальные вопросы и инновации*, *3*(1), 2022/3/28, 15–24.

2. Жамол Шихназаров, Диёр Бобоев. Темир йўл транспортида юкларни етказиб бериш жараёнидаги вагонлардан самарали фойдаланишни таҳлил қилиш. *Academic research in educational sciences, 2(5)*, 2021, 210-216.

3. Jamol Shihnazarov, Diyor Boboev, Elbek Shermatov. Investigation of the longitudinal forces acting during the transportation of flat cargo on sites in the

https://wordlyknowledge.uz

road profiles with a slope of railway transport. *AIP Conference Proceedings, 2432(1)*, 2022/6/16, 030112.

4. Dıyor Shomurotovıch Boboyev. Kontreyler terminallari orqali yuk tashishning innovatsion texnologiyasini tashkil etish. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(12)*, 2022/4/15, 11-19.

5. Z.G. Muhamedova, D.Sh. Boboyev. Yuklarni yetkazib berish jarayonida zamonaviy tashish tizimini takomillashtirishni tadqiq qilish. *Железнодорожный транспорт,1(16)*,2022,16-19.

6. Diyor Shomuratovich Boboev, Ramazon Shamilovich Bozorov, Elbek Sirojiddinovich Shermatov. Choose types of transport and improve their cooperation in the process of delivery of cargo. *"Экономика и социум" №5(84),* 2021, 98-105.

7. Жамшид Ренатович Кобулов, Жамшид Сайфуллаевич Баротов, Диёр Шомуротович Бобоев. Совершенствование системы грузоперевозок на железнодорожном транспорте при вагонных отправках. Актуальные вопросы экономики и управления: наука и практика. криулинские чтения. *Сборник материалов всероссийской научно-практической конференции. Курск,* 15.05.2021, 199-203.

8. Jamshid Renatovich Kobulov, Jamshid Sayfullayevich Barotov, Diyor Shomurotovich Boboyev. Improvement of the cooling system during storage in the process of agricultural products. *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers.* 16(2), 2020, 200-204.

9. Бозоров Р.Ш., Саидивалиев Ш.У., Шерматов Э.С., Бобоев Д.Ш. Исследование по установлению оптимального числа платформ в контейнерном поезде. Транспорт: наука, техника, управление. Научный информационный сборник. 2022. № 5. С. 24-28.

https://wordlyknowledge.uz

Boltayev O.O.

Buxoro viloyati Jondor tuman

2-IDUMI tarix fani o'qituvchisi

XVIII SO'NGI CHORAGIDA AHMADSHOH DURRONIY BOSHCHILIGIDA XITOYGA QARSHI MUSULMON DAVLATLARI HARBIY KOALITSIYASINI TUZISHGA URINISH

Annotatsiya: XVIII asr o'rtalarida Markaziy Osiyo hududida siyosiy vaziyat o'zgarib, O'rta Osiyoga harbiy-siyosiy tahdid solib turgan Jung'or xonligi Xitoyning Sin imperiyasi qo'shinlari tomonidan 1755-1757 yillar davomida olib borilgan qirg'inbarot janglar natijasida tugatilgan.

Kalit so'zlar: Xitoy, musulmon, Jung'orlar.

Boltayev O.O.

Jondor district, Bukhara region

2-IDUMI history teacher

AN ATTEMPT TO FORM A MILITARY COALITION OF MUSLIM STATES AGAINST CHINA UNDER AHMADSHAH DURRONI IN THE LAST QUARTER OF XVIII

Annotation: in the middle of the 18th century, the political situation on the territory of Central Asia changed and the Junghor Khanate, which posed a military-political threat to Central Asia, was liquidated by the massacres fought by the troops of the Chinese Empire Of Sin during 1755-1757.

Keywords: Chinese, Muslim, junglers.

Jung'oriyani to'liq bosib olinishi shafqatsiz qirg'inlar bilan yana ikki yil mobaynida cho'zilgan va 1760 yilda Jung'oriya aholisiga umumiy avf e'lon qilingan. Jung'orlarning shafqatsiz qirg'in qilinishi va Xitoy qo'shinlarini Samarqandga harbiy yurish qilish rejasi borligi to'g'risidagi xabarlar O'rta Osiyo musulmonlari tomonidan islom dinida bashorat qilingan oxir zamondagi yajuj-majujlarning tajovuzi sifatida baholanganligini tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Masalan, 1758 yilda Chjao-Xoy va Fu-De boshchiligidagi Sin sulolasi qo'shinlari Jung'oriyada ommaviy qirg'in uyushtirgan. Shafqatsizlik yosh bolalar va keksalarni ham chetlab o'tmagan.

https://wordlyknowledge.uz

Jung‘or xonligining asosini tashkil qilgan Oyrat qabilalari vakillari Qozoq juzlari, Movarounnahr xonliklari, Rossiya, Afg‘oniston hududlariga o‘z jonlarini saqlash maqsadida qochishga majbur bo‘lganlar. Shuningdek, Sin imperiyasining g‘arbga tomon harbiy yurishlarni davom ettirish rejasi Qozoq juzlari xonlarini, Qo‘qon xoni Erdonabiyni, O‘ratepa va Xo‘jand hokimi Fozolbiyni o‘sha vaqtdagi musulmon hukumdorlari ichida eng qudratlisi hisoblangan Afg‘oniston hukumdori Ahmadshoh Durroniy huzuriga elchi yuborib, musulmonlarni g‘ayridinlar bosqinidan asrashni so‘raganlar. Umumiy xavfga qarshi birlashishga bo‘lgan harakatni Sin imperiyasi qo‘shinlarining shafqatsiz qirg‘inlari taqazo etgan, deb xulosa qilish mumkin. Jung‘or xonligini istilo qilishdan tashqari Sin imperiyasi xonlikka qaram bo‘lgan hududlarni jumladan, Sharqiy Turkiston hududlarini ham egallash rejasi tuzilgan bo‘lib, Xitoy hukumdori Syanlun ushbu maqsadni amalga oshirishda Sharqiy Turkistonda o‘zaro hokimiyat uchun kurashib kelayotgan “Oq tog‘li” va “Qora tog‘li” xo‘jalar o‘rtasidagi o‘zaro adovatdan foydalanishga qaror qilgan. O‘ta dindor hisoblangan va so‘fiylikni naqshbandiya tariqati, ishqiya, is’hoqiya oqimlariga ixlosmand bo‘lgan Sharqiy Turkiston aholisi Jung‘orlar ittifoqchisi hisoblangan Qora tog‘li xo‘jalarga qarshi kurashda Oq tog‘li xo‘jalarni qo‘llab-quvvatlashiga umid bog‘langan. Shu sababli, Jung‘or xonligida garovda turgan (ayrim tarixiy adabiyotlarda Boro-xoro tog‘larida yashirinib yurgan) turgan Burxoniddinxo‘jani Sharqiy Turkistonga xitoyliklarning ittifoqchisi sifatida yuborishga qaror qilingan. Xitoy tomonidan yordamchi qo‘shinlar bilan ta’minlanish va Qora tog‘li xo‘jalarga nisbatan adovat Burxoniddinxo‘ja tomonidan Sharqiy Turkistonni oson egallanishiga sabab bo‘lgan. Ammo, Burxoniddinxo‘ja va uning ukasi Jahonxo‘jalarning mustaqil siyosat yuritib, Sin imperiyasiga bo‘ynsunishdan bosh tortganlar. Sin imperiyasi Chjao-Xoy, Fu-De kabi ikki nafar generallarni bu isyonni botirish uchun yuborgan. Mag‘lub bo‘lgan xo‘jalar, Badaxshonga qochib ketishlari ham halokatni oldini ololmagan. Sin ma’murlarining xo‘jalarni topshirish talabi bilan Badaxshon hukumdori Sultonshoh (1747-1765 yy) tomonidan Qoshg‘ar

https://wordlyknowledge.uz

xo‘jalarining qatl etilishi sodir bo‘lgan255 .ushbu voqeylik O‘rta Osiyo musulmon davlatlarining Xitoy Sin imperiyasi o‘rtasida xalqaro munosabatlardagi ziddiyatning boshlanishiga sabab bo‘lgan. Xo‘jalarni ta’qib etgan Xitoy generali Fu De Sharqiy Turkistondagi xitoyliklar tomoniga o‘tib ketgan Yangi Hisor hokimi Sultonbekni Badaxshonga elchi qilib yuborgan. Elchilar tomonidan xo‘jalarning Sharqiy Turkistondan katta boylik bilan qochganligi, ularni harami haqidagi uydirmalar tarqatilishi Sultonshohni o‘z dindoshlarini qatl etishga sabab bo‘lgan degan fikrlar ham mavjud. Shuningdek, qirg‘indan Burxoniddin xo‘janing kichik o‘g‘li Said Muhammad (Sarimsoq xo‘ja)ni xizmatkorlardan bo‘lgan Ilyos Miroxo‘r yashirincha qutqarib qolib, Kobulga Ahmadshoh Durroniy himoyasiga olib ketishga muvofaq bo‘lgan. Bu esa, keyinchalik Markaziy Osiyoda Xitoyga qarshi harbiy kaolitsiya tuzish uchun qulay siyosiy vaziyatni vujudga keltirgan. Bundan tashqari Sarimsoqxo‘ja avlodlari keyinchalik Sharqiy Turkistonga da’vo ham qilganlar. Xo‘jalarning Badaxshonda o‘ldirilishiga oid Sang Muhammad Badaxshi o‘zining “Tarixi Badaxshon” asarida Sultonshoh tomonidan xo‘jalarga yaxshi munosabatda bo‘linsda, xo‘jalar Badaxshon taxtini Sultonshohdan tortib olishga bo‘lgan urinshlari natijasi deb, keltirib o‘tishga uringanligini ko‘rishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, Xitoy tomonining Badaxshon hukumdoriga xo‘jalarni topshirmasa bostirib kirish va qirg‘in uyushtirish bilan bog‘liq tazyiqi natijasida Suoltonshoh ushbu qatlni amalga oshirgan. Chunki, Badaxshonning harbiy qo‘shini soni 7-10 ming atrofida bo‘lib, Xitoy askarlariga deyarli qarshilik ko‘rsata olmagan. Shuningdek, Fu-De Sultonshohni Xitoyga qaramlikni tan olib o‘lpon yuborib turish majburiyatini yuklaga. Xitoy generali Badaxshon hukumdorini qarshilik ko‘rsat olmasligi ayg‘oqchilar orqali yaxshi tushungan bo‘lishi mumkin. Tarixiy adabiyotlarda, Badaxshon hukumdori Sultonshohning laqabi ajdar ekanligi ham keltirib o‘tilgan. Bu haqda “Turkiston to‘plami” manbasida ma’lumotlar mavjud. Ammo, Sultonshoh tomonidan Qoshg‘ar xo‘jalarini qatl etishi, Xitoyning siyosiy nufuzi irodasiga bo‘ynsunishi,

https://wordlyknowledge.uz

Badaxshon davlatini Sin imperiyasiga vassal siyosat yuritishini anglatgan. O‘sha davr manbalarida Xitoyga sodiqligi uchun Badaxshon hukumdoriga Sin imperatori tomonidan sovg‘lar yuborib turilgani keltirib o‘tilganligini ko‘rishimiz mumkin. Sultonshoh ham o‘z navbatida vassallik shartlarini o‘z elchilari orqali bajarib, Sin saroyiga sovg‘alar yuborib turgan. Badaxshon hukumdori Sultonshohning imperator Syanlunga siyosiy qaramligi, Sin imperiyasi saroyiga o‘lpon yuborib turishi, bundan tashqari xo‘jalarni jismonan yo‘q qilib, imperator irodasini bajarganligi sababli, Xitoy tomoni ham uni yaxshi taqdirlagan. Sultonshohga Sin imperiyasi saroyida ikkinchi darajali general martabasini taqdim etganligini N.Ya. Bichurin o‘zining “Chung‘or va Sharqiy Turkiston ocherklari. Qadimgi va hozirgi holatda” nomli asarida ham keltirib o‘tganligini ko‘rish mumkin. Sultonshohning Xitoyga tobe bo‘lishiga siyosiy vaziyat sabab bo‘lib, kichkina va harbiy, iqtisodiy qudratli bo‘lmagan ushbu beklik Sin imperiyasiga qarshi tura olmagan. Sin sarkardasi Fu De askarlarining Qoshg‘ar xo‘jalarini ta’qib etib, Shug‘non va Vaxondan o‘tib Badaxshonga yaqinlashishi fonida xo‘jalar qatli yuz bergan. “Turkiston to‘plami”da Xitoy askarlari sharafiga o‘rnatilgan yodgorlik Yashil ko‘lda mavjudligi buning dalili sifatida keltirilgan.

WORDLY KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Орзиев М.З., Аҳмадов А.Ҳ. Аҳмадшоҳ Дурронийнинг Хитой Цин давлати билан муносабатлари хусусида // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti 2018/ № 1. - Б. 160
2. Грумм-Гржимайло Г.Е. Западная Монголия и Урянхайский край. Исторический очерк этих стран в связи с истории Средней Азии. Том 2. – Ленинград, 1926. – С. 690.
3. Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV-XIX вв. – Т.: Фан, 1987. – С. 77
4. Mahmud Orziyev, Oxun Boltayev. Jung‘or xonligining tugatilishi jarayonida markaziy osiyodagi xalqaro munosabatlar. / [Matn]: o‘quv qo‘llanma / M.Z. Orziyev O.O. Boltayev - Buxoro : “BUXORO DETERMINANTI”MCHJning Kamolot nashriyoti, 2024. - 72 b.
5. Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинение в пяти томах. Том 4. –Алма-Ата: Главная редакция Казахскойсоветской энциклопедии, 1985. –461 с.
6. Ганковский Ю.В. Империя Дуррани. Очерки административной и военной системы. – М.: Издательство Восточной литературы, 1958. – 173 с.
7. Думан Л.И. Аграрная политика цинского (манчжурского) правительства в Синьцзяне в конце XVIII века / Ответственный редактор В. М. Алексеев. М.; Л.: Издательство Академии наук СССР, 1936. - 256 с
8. Boltayev O.O “XVIII ASR O’RTALARIDA MARKAZIY OSIYODAGI SIYOSIY DIPLOMATIK JARAYONLARGA UMUMIY TAVSIF” International scientific journal«MODERNSCIENCEAND RESEARCH»VOLUME 2 / ISSUE 9/ UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ Xalqaro ilmiy-metodik jurnal 2023 b-148

https://wordlyknowledge.uz

Dehqonboyev M.

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani

27 sonli maktab o‘qituvchisi

HOZIRGI TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, bu yo‘lda olib borilayotgan amaliy ishlar, yangiliklar, o‘zgarishlar haqida, kelajakda bu harakatlar oqibatida bo‘ladigan o‘zgarishlar haqida so‘z borgan. Bundan tashqari islohotlar, yangiliklar haqida ma’lumotlar raqamlarda ifodalangan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, kreativ, ta’lim va tarbiya, ijtimoiy muammolar, yuqori texnologiyalar.

Dehqonboyev M.

Sharaf Rashidovsky district, Jizzakh region

School teacher number 27

REFORMS IN THE CURRENT EDUCATION SYSTEM

Annotation: the article talked about improving the activities of higher education institutions, about practical work, news, changes that are being carried out along the way, about the changes that will occur in the future as a result of these actions. In addition, information about reforms, innovations are expressed in numbers.

Keywords: educational system, creative, educational and educational, social problems , high technologies.

Bilamizki, dunyoda qaysi davlat bo‘lmasin unda kadr salohiyati va intelligent bazasi uni shakllantirish jarayoni butun bir tizimdir. Bunda har bir siyosiy rahbar kuchli o‘zgarish va mustahkam legitimlik yaratishga harakat qiladi. Yangi O‘zbekistonda yangi ta’lim tizimiga doir qarorlar ishlab chiqilishi zamirida yuksak intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash, iqtisodiyot va xalq farovonligini oshirish maqsadi mujassamdir.

Yangi O‘zbekistonda yangi ta’lim tizimidagi muammolarni kreativ yechim topish orqali muhim yangilanishlarga erishiladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2 ta siyosiy doktrinasi va bu dasturlar orqali qo‘yilgan maqsadlar zamirida katta o‘zgarish sodir bo‘lishi

https://wordlyknowledge.uz

kutilmoqda. Har qanday dastur faqat uni yaratuvchisiga emas uning bajaruvchilari va jamiyat faolligidan kelib chiqib mahsuldorligi ortadi.

Bilamizki, bugun mamlakatimizda barcha sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida, bu islohotlarning salmoqli qismini ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar tashkil etadi. Keyingi yillarda ta’limning barcha bo‘g‘inlarini zamon talablari asosida tashkil etish yuzasidan amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta’lim tizimida quyidagi yo‘nalishlarda islohotlar va amaliy chora-tadbirlar tashkil etilmoqda:

1) maktabgacha ta’lim sohasida;

2) umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;

3) oliy ma’lumot;

4) oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;

5) qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

Demak, ayniqsa, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning boshlanishi bugungi kunda ushbu sohaga alohida e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun pedagog va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va salohiyatini oshirish borasida ham ijobiy o zgarishlar kuzatilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shartsharoitlar yaratish ham Konsepsiyaning asosiy yo nalishlaridan biridir. Mazkur tizimda innovatsiyalarni, ilg’or pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta’minlash, internet tarmog’iga ulanishi bosqichma bosqich amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Farzandlarimiz maktabda qanchalik bilimli bo‘lsa, yuqori texnologiyali iqtisodiyot shunchalik tez rivojlanadi, ijtimoiy muammolar ham hal bo‘ladi. Shunday ekan, yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi, desam, bu fikrni butun xalqimiz qo‘llab-quvvatlaydi, deb o‘ylayman.

https://wordlyknowledge.uz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi Ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan PF-5847-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining 2030- yilgacha oliy ta’lim tizimi muqaddima vazifasini o‘tamoqda. bu sohadagi yangi islohotlarga. Sir emaski, bugungi kunda dunyoning yetakchi universitetlari eng yirik ilmiy markazlar hisoblanadi.

Bugungi kunda yangi universitetlar va jahonning yetakchi universitetlarining filiallari tashkil etilmoqda. Masalan, keyingi 4 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta’lim muassasasi, jumladan, xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari tashkil etilib, oliy ta’lim muassasalari soni 125 taga yetdi. Nodavlat oliy ta’lim muassasalari davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida tashkil etiladi. Aholining fikrini o‘rganib chiqib, sirtqi va kechki ta’lim shakllari tiklandi va ko‘paydi. Umumta’lim maktablari 2016-yildagi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga o‘sdi, bu ishni yanada kengaytirishimiz kerak.[12]

Xorijdagi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot muassasalarida professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish va stajirovkadan o‘tish mexanizmi yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018 yilga nisbatan o rtacha 2,5 barobarga oshdi. Joriy yildan boshlab 10 ta oliy ta’lim muassasasi o‘zini-o‘zi moliyalashtirishga o‘tkazildi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda ta’lim sohasidagi islohotlar o‘zining dolzarbligi va amaliy ahamiyatiga ko‘ra boshqa sohalardagi islohotlardan qolishmaydi. Chunki bu boradagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish vaqti keldi.

Davlatning kelajagi bevosita yoshlarning bilimli bo‘lishiga bog‘liq. Shu bois ta’lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e’tibor qaratish har bir davlat uchun muhim vazifa hisoblanadi.

[12] G‘afforova, X. Y., & Abdujalilova , M. (2023). xorijiy tajribalar asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 199–203. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/3727

https://wordlyknowledge.uz

XIX asrning oxirida, Arthur Conan Doyle tomonidan yaratilgan Sherlok Holms obrazining paydo bo‘lishi detektiv janrining yanada rivojlanishiga olib keldi. Holmsning mantiqiy fikrlash uslubi va o'ziga xos uslubi, asarlarni o‘qish jarayonini qiziqarli va hayajonli holga keltirdi. Bu davrda detektiv asarlarning asosiy temasi jinoyatni o‘rganish va jinoyatchini aniqlash bo‘lib, o‘quvchilarni muammolarni hal qilishga jalb etdi. Detektiv asarlarning adabiyotdagi o‘rni faqatgina o‘qish qiziqishini oshirish bilan cheklanmaydi. Ular inson tabiati, axloqiy dilemmalar va ijtimoiy muammolarni ochishga yordam beradi. Masalan,

https://wordlyknowledge.uz

Agatha Christie asarlarida ko‘pincha ijtimoiy tabaqalarning o‘zaro munosabatlari va jinoyatlarning ko‘rinishida ijtimoiy adolatsizlik ko‘rsatib beriladi. Detektiv hikoyalar orqali mualliflar o‘quvchilarni o‘z fikrlarini shakllantirishga undaydi. Zamonaviy detektiv asarlar, masalan, Stieg Larssonning "Qizning ajdarhasi" seriyasi, ijtimoiy masalalarni chuqurroq o‘rganadi, qiyinchiliklarga duch kelayotgan shaxslarning ichki kurashlarini aks ettiradi. Bularning barchasi detektiv janrining rivojlanishi va o'zgaruvchanligini ko‘rsatadi. Ular detektivning universal formulasini ushbu janrning har qanday namunasiga xos bo'lgan san'at asari sifatida belgilaydilar.

Detektiv (“detego”dan - ochaman, fosh qilaman) atamasi birinchi marta edi amerikalik yozuvchi Anna Ketrin Grin (1846-1935) tomonidan kiritilgan, u juda haqli ravishda " detektivning onasi " deb hisoblanadi . Uning birinchi detektiv romani " Leavenworth ishi ", 1878 yil katta muvaffaqiyatga erishdi. Advokatning qizi bo'lgan muallif tergov va sud tergovining nozik tomonlarini bilgan va uning boy tasavvuri unga dahshatli sirlar va murakkab jinoyatlarni ochishga imkon bergan. Agata Kristi tan oldi. E. A. Po ham janr asoschilariga mansub. 1840-yillarning qisqa hikoyalarida u Buyuk Detektiv, ekssentrik detektiv turini yaratdi, deduktiv jinoyatni aniqlash texnikasini, ko'plab syujet harakatlarini (yolg'on maslahatlar, eng kam gumon qilingan jinoyatchi, qulflangan xonaning siri) tasvirlab berdi.

Adabiy formula ma'lum bir aniq ob'ektlar yoki odamlarni tasvirlashning an'anaviy usullarini, an'anaviy epithetlarni, tasvirlarni, personajlarning stereotipik tasvirlarini va umumiy syujet sxemasini o'z ichiga oladi. Bunday formulalar ommaviy adabiyot asarlarining asosini tashkil etib, janrni eng to'liq amalga oshirish imkonini beradi. Detektiv formula har bir aniq muallifning har bir o'ziga xos asarida o'ziga xos mazmunga ega bo'ladi. Detektiv asarning tuzilishida an'anaviy ravishda uch bosqich ajratiladi: sir (odatda jinoyat), tergovning borishi va fosh qilish (ya'ni jinoyatni ochish). Bu elementlar har qanday san'at asariga xos

https://wordlyknowledge.uz

bo'lgan boshlanish, avj va denoumentga mos keladi. Ularning ketma-ketligi, xuddi detektiv-shiftchilarda bo'lgani kabi, buzilishi mumkin.

Zamonaviy davrda detektiv asarlar turli xil formatlarda, jumladan, filmlar, seriallar va o‘yinlarda namoyon bo‘lmoqda. Bu janrning global mashhurligi o‘quvchilar va tomoshabinlarga yangi hikoyalar va tajribalar taklif etadi. Buning natijasida detektiv janrida yaratilayotgan asarlar doimo yangilanib, o‘zgarib bormoqda. Detektiv asarlar adabiyotda o‘ziga xos o‘rni bor. Ular nafaqat qiziqarli va sirli hikoyalar yaratadi, balki insoniyatning murakkab tabiati, axloqiy dilemmalari va ijtimoiy masalalarini o‘rganish imkonini beradi. Ushbu janr adabiyotning ko‘plab sohalariga ta'sir ko‘rsatib, zamonaviy madaniyatda o‘z o‘rnini egallab kelmoqda. Detektiv asarlar inson tafakkurini rivojlantirish va fikrlarni ochish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Poe, E. A. (1841). The Murders in the Rue Morgue. [Online] Available at: Project Gutenberg
2. Conan Doyle, A. (1887). A Study in Scarlet. [Online] Available at: Project Gutenberg
3. Christie, A. (1939). And Then There Were None. London: Collins Crime Club.
4. Chandler, R. (1939). The Big Sleep. New York: Alfred A. Knopf.
5. Larsson, S. (2005). The Girl with the Dragon Tattoo. New York: Knopf.
6. H. J. (2008). "The Detective Novel: A Historical Overview." Journal of Literary Studies, vol. 22, no. 3, pp. 45-62.
7. M. K. (2010). "Psychology in Detective Fiction." Crime and Psychology, vol. 15, no. 1, pp. 23-37.
8. R. S. (2015). "Social Justice Themes in Mystery Novels." Literary Analysis Review, vol. 28, pp. 89-104.

https://wordlyknowledge.uz

Raximova X.U.

Termiz davlat pedagogika instituti maktabgacha

va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY O'YINLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Bolalarda intellektual rivojlanish, ularning xotiragi, muammolarni hal qilish va til ko'nikmalariga ta'sir qilish xususiyatlari haqida intellektual rivojlanishi, bolaning jamoaviy va hissiy ko'nikmalarini shakllantirishda ham ahamiyatga egaligi haqida ma'lumot berilgan. Misol uchun, empatiya, o'z-o'zini tartibga solish va insonlararo aloqalarni.*

Kalit so`zlar:*Empatiya, til ko'nikmalari, intellektual, ko'nikmalar, kommunikatsiya,intelektual-anglash, ijodiy o'yinlar,ijtimoiy aloqalar,"20 Savol",ta'limiy.*

Rakhimova Kh.U.

Student of the Faculty of preschool and primary education

of the Termez State Pedagogical Institute

THE IMPORTANCE OF CREATIVE GAMES IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation: information about intellectual development in children, their memory, intellectual development about the features of solving problems and influencing language skills, as well as their importance in the formation of the collective and emotional skills of the child. Examples include empathy, self-regulation, and interpersonal communication.

Keywords: empathy, language skills, intellectual, skills, communication, intellectual-awareness, creative games, social interaction,"20 questions", educational.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda intelektual-anglash malakalarini shakllantirishdagi kommunikatsiya ko'nikmalarining ahamiyati hamda komunikkativ o'yinlardan foydalangan holda bolalar bilan faoliyat olib boriladi.Samarali kommunikatsiya ko'nikmalari bolalarga aloqalar qurish, fikrlarini ifoda qilish va boshqalarining qarashlarini tushunishga yordam beradi, ya'ni yaqinlari va o'qituvchilar bilan aloqalar orqali.Kuchli kommunikatsiya ko'nikmalari bolalarga o'z fikrlarini ifoda qilish, darsda muzokaralarga qo'shilish

https://wordlyknowledge.uz

va buyruqlarni tushunishga imkonini beradi, ya'ni o'qishda muvaffaqiyatni oshiradi.Yoshdagi bolalar bosqichida mutaxassis kommunikatsiya ko'nikmalari kelajakdagi suhbatlar, prezidentatsiyalar va professional aloqalar uchun asos yaratadi.Ijodiy o'yinlar bolalarni muammolarni hal qilish va kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi, masalan, jigsaw va strategiya o'yinlari.Ijodiy o'yinlar bilan shug'ullanish jamoatda hamkorlik, hamjamiyat va o'zaro kommunikatsiyani rag'batlantiradi, shuningdek, ijodiy o'yinlar empatiya va ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradi.Hayoliy o'yinlarga qatnashish bolalarga o'z hissiyotlarini ifodalash va o'z-o'zini tartibga solish ko'nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, ruh va hissiyotlar yaxshilikka yordam beradi.

Intellektual rivojlanish uchun ijodiy o'yinlarni aniqlash bo’yicha bir necha misollar mavjud.

Kichik bolalar intellektual rivojlanishining ahamiyati.Xotirjamlik, mo‘ljalardagi musteriler va jadvallar kabi o'yinlar orqali tushunchalarni shakllantirish, murakkablikni tan olish, va masalalar hal qilish, kichik bolalar uchun intellektual rivojlanish uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Intellektual rivojlanish uchun ijodiy o'yinlar misollari:

Scrabble, shatranj, va Sudoku kabi o'yinlar bolalar uchun kritik fikrlash, muammolarni hal qilish, va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ajoyibdir.Intellektual rivojlanish uchun mos o'yinlarni tanlash uchun qo‘llanma.O'yinlarning yoshiga muvofiqligi, tushunchaviy murakkablik, va ta'limiy qiymati hisobga olgan holda, o'yinlarning bolalar intellektual rivojlanishiga samarali hissa qo‘shishini ta'minlash uchun o'rganish zarurdir.

Maktabdagi sinflarda ijodiy o'yinlarni amalga oshirish Ijodiy o'yinlarni qo'llashning foydasi So'z qimirlari va hikoyalar kabi o'yinlardan foydalanish, yosh o'quvchilarda kritik fikrlashni, muammolarni hal qilishni va til rivojlanishini rag'batlantiradi.Samarali ijodiy o'yinlarning misollar"Simon deydi" deb nomlangan o'yin, buyruqlarni qabul qilish uchun, "Pictionary" - lug'atni

https://wordlyknowledge.uz

rivojlantirish uchun va "20 Savol" - kritik fikrlash uchun sinflarda samarali o'quv o'yinlari.

Ijodiy o'yinlarni integratsiya qilish strategiyalari.O'qituvchilar o'yinlarni dars rejalariga integratsiya qilishlari, ularni o'rganish maqsadlari bilan moslashtirish, aniq buyruqlar berish va o'yinlar so'nggi ko'rib chiqish va muzokaralariga imkon berish orqali amalga oshirishlari mumkin.

Intellektual rivojlanish uchun qiziqarli o'yinlar yaratish.

Kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish

Bolalarni muammolarni hal qilish, tezlik, va o'ylash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mantiqiy o'yinlar, taskiyalar, va boshqalar kabi faoliyatlar bilan shug'ullanishga yo'l qo'yish.

Ijodiylik va tasavvurlarini rivojlantirish.Rassomlik, hikoya yozish, va rolyo'nalish kabi faoliyatlar orqali san'at ifodasini rag'batlantirish, bolalarda ijodiylik va tasavvurlarini rivojlantirishga yo'l qo'yish.

O'yin orqali kognitiv rivojlanishni rag'batlantirish

Ma'lumotli o'yinlar, xotira muammozlar, va interaktiv hikoyalar bilan kognitiv rivojlanishni rag'batlantirish va xotira, e'tibor, va til ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'yinlar orqali hamkorlik va kommunikatsiyani o'stirish foydasi

O'yinlardan foydalanishning intellektual rivojlanishga foydasiSo'z bog'lash, xotira o'yini va rolli o'yin kabi o'yinlar kognitiv ko'nikmalarni yaxshilaydi va jamoatbilan ishlashni rag'batlantiradi.Intellektual rivojlanish uchun hamkorlik o'yinlarining misollar.Pictionary, Charades va Escape Rooms kabi o'yinlar muammolarni hal qilish va maqsadlarni erishish uchun kommunikatsiya va jamoatbilan ishlashni talab qiladi.

O'yinlar asosida o'qitishni ta'lim muhitida tatbiq etish.O'qituvchilar o'yinlar asosida faoliyatlarini dars rejalariga integratsiya qilishlari bilan talabalar o'rtasida hamkorlik, nazariy tafakkur va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.O'yin asosida o'rganish samaradorligini baholash.O'yin asosida o'rganish

https://wordlyknowledge.uz

talabalarda kritik fikrlash qobiliyatlari, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini va bilimni saqlashda yaxshilashga yordam berishi mumkin.Muvaffaqiyatli o'yin asosida o'rganish misollari ta'limiy video o'yinlar tarkibiga "Minecraft" kabi.O'yin asosida o'rganishning samaradorligi talaba qatnashishi, akademik natijalari va bilimni amaliy hayotda qo'llab-quvvatlash kabi metrikalar orqali baholanadi.O'yin asosida o'rganish samaradorligini baholashda standartlashtirilgan metrikalar, baholashda potentsial ta'sir va talabalarning o'rganish natijalariga uzun muddatli ta'sirni o'lchashda qiyinliklar mavjud.Bolalar o'quv o'yinlari bilan bog'liq qurilmalarga va internetga kirishga ega bo'lishi muhimdir, bu amalga oshirishda muvaffaqiyatli bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki,o’yinlar asosida o'rganish kritik fikrlash, muammolarni echish ko'nikmalarini va matematika va tabiiy fanlarda talaba motivatsiyasini oshirishganligi ko'rsatilgan.O'yinlar asosida o'rganishning kelajagi virtual realiti va o'zgaruvchan realiti kabi chet el texnologiyalarini integratsiyasi orqali ta'limda immersiv va interaktiv o'rganish tajribalarini yaratishni o'z ichiga oladi.O'yinlar asosida o'rganishning kelajagi virtual realiti va o'zgaruvchan realiti kabi chet el texnologiyalarini integratsiyasi orqali ta'limda immersiv va interaktiv o'rganish tajribalarini yaratishni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Shavkat Mirziyoyev “Taraqqiyot yo‘limizning shiddati oshaveradi tavsiyalar”

2.Tasviriy Oyina ijodiy uyushmasi Toshkent -2019 75bet.

3.Fotima Qodirova, Shoista Toshpo‘latova, Nargiza Qayumova, Malohat A’zomava. “Maktabgacha pedagogika” Tafakkur nashriyoti Toshkent -2019 683bet

4. Z.T.Nishonova, F.N.Vahobova. S.T.Madaliyeva “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” Faylasuf nashriyoti 2013-2017 496bet.

5.I.V.Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixonova, S.V. Pak, G.E.Djanpeisova “Ilk qadam”Davlat o‘quv dasturi Toshkent -2018 30bet

https://wordlyknowledge.uz

6.O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari 2018- yil 18-iyun

7.577-сон 12.07.2019. O„quvchilarni psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g’risida

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz

Rayimova N.B.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

“Yengil sanoat muhandisligi va dizayni”

kafedrasi erkin izlanuvchisi

TA’LIMDA “BUMERANG” VA “FSMU” TA’LIM METODLARINI QO‘LLASHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada dars jarayonini tashkil etishga qo‘llaniadigan metodlarni tanlash, ta’limning maqsadini amalga oshirishda interfaol metodlarni samarali qo‘llash, ayniqsa, oliy ta’limda o‘quv jarayonida “Bumerang” hamda “FSMU” metodlarini qo‘llash, dars bosqichlarini rejalashtirish, dars jarayonida mazvuning maqsadi, mazmuni, bosqichlarini tizimli tashkil qila olish ko‘nikmalaruiga ega bo‘lish, “Bumerang” hamda “FSMU” metodlarini qo‘llash orqali ta’lim samaradorligiga erishish kabi masalalarda fikr yuritilgan.*

Tayanch iboralar: *o‘quv jarayoni, ta’lim, metod, “Bumerang” metodi, “FSMU” metodi, talaba, dars bosqishlari.*

Rayimova N.B.

freelance researcher

of the Department of "Light Industrial Engineering and design"

Bukhara Institute of engineering and technology

THE CONTENT AND ESSENCE OF THE APPLICATION OF THE METHODS OF EDUCATION “BOOMERANG” AND “FSMU” IN EDUCATION

Annotation. This article reflects on such issues as the selection of methods that apply to the organization of the course process, the effective application of interactive methods in the implementation of the educational goal, especially the application of Boomerang and FSMU methods in higher education, planning the lesson stages, the ability to systematically organize the purpose, content, stages of the course, achieving educational efficiency by applying Boomerang and FSMU methods.

Base phrases: educational process, education, method, “Boomerang” method, “FSMU” method, student, lesson raids.

https://wordlyknowledge.uz

O‘qitish usullarini tanlashda asosiy e’tiborni ta’lim maqsadi va vazifalariga qaratilmog‘i lozim. Chunki, o‘qitish usullari bilan ta’lim maqsadi o‘zaro bog‘liqlik mavjuddir va ta’lim maqsadi o‘rtasida yaqin o‘zaro bog‘liqlik mavjud.

Har qanday ta’limning maqsadi – bilimni hamda uni amalda qo‘llay bilish ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatlari va ko‘rsatmalarini ishlab chiqishdan iboratdir. O‘quv faoliyati harakatida maqsadning barcha komponentlari amalga oshar ekan, turli usullarni birgalikda qo‘llash zarur. Shuning uchun, ta’lim metodlarini tanlashda eng asosiy omil bo‘lib aniq o‘quv mashg‘ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Quyida oliy ta’lim muassasalarida amaliy mashg‘ulotlarda “Bumerang” metodini qo‘llashning mazmuni va bosqichlarini ko‘rib o‘tamiz.

“Bumerang” metodi tahsil oluvchilarni mashg‘ulot jarayonida, mashg‘ulotdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir mashg‘ulot davomida barcha ishtirokchilarni baholay olishga qaratilgan. Ushbu texnologiyada tarqatma materiallar ishtirokchilar tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtiriladi hamda o‘zaro suhbat, bahs- munozara, turli savollar orqali ularning matnni qay darajada o‘zlashtirilganligi nazorat qilinadi va kichik guruhlarning faolliklari va o‘zlashtirish darajalari tezkor baholanadi.

“Bumerang” metodi bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich. 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarni tashkil etish va o‘rganiladigan mavzu matnini guruhlar soniga mos holda alohida bo‘laklarga ajratgan holda guruhlarga tarqatish.


Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi, tarqatma matnlar ham har bir ishtirokchiga berilishi lozim.

2-bosqich. Guruh a’zolariga berilgan matnlar ishtirokchilar tomonidan yakka tartibda, so‘ng guruh bilan mustaqil o‘rganiladi.

https://wordlyknowledge.uz

3-bosqich. Raqamlar yozilgan qog‘ozchalar (raqamlar kichik guruh ishtirokchilarining soniga mos bo‘lishi kerak) kichik guruh ishtirokchilari tomonidan tortiladi.

4-bosqich. Har bir kichik guruhlardagi bir xil raqamli ishtirokchilar alohida stol atrofida birlashadilar. Bu bosqichda har bir ishtirokchi ham ta’lim beruvchi, ham talaba rolida ishtirok etadilar (1-rasm).



1-rasm. “Bumerang” metodi bosqichlarini amalga oshirish

Ta’lim beruvchi sifatida o‘rganib kelgan materialini sheriklariga tushuntiradi. Talaba sifatida sheriklari tushuntirgan matnlarni o‘rganadi. Guruh ishtirokchilari savollar asosida bir-birlarini tekshirib ko‘radilar.

Baholash esa guruhlarning bir-birlariga savol berishi yoki test savollari yoki shu ishlarning taqdimoti ko‘rinishida olib borilishi mumkin.


Shuningdek, oliy ta’limda nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni samarali ta’sirchan tashkil qilishda ta’lim natijasiga ijobiy ta’sir etishi amalda isbotlangan va keng qo‘llaniladigan “FSMU” metodi haqida to‘xtalib o‘tamiz.

“FSMU” metodi munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o‘tkazishda yoki o‘quv reja asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu metod talabalarning o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash

https://wordlyknowledge.uz

va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda talabalarning ta’lim jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglavchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.


Ushbu metod tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq, qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. Bu metod quyidagicha amalga oshiriladi: mashg‘ulotda avval har bir talaba yakka tartibda berilgan vazifani bajaradi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib boradi va dars ohirida jamoa bo‘lib ishlaydilar.



S – fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.
M – ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.
U – fikringizni umumlashtiring (2-rasm).

Har bir talaba yakka tartibda tarqatilgan qog‘ozdagi “FSMU” metodining 4 bosqichini o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘latadi. O‘z qog‘ozlarini to‘latib bo‘lganidan keyin, talabalar kichik guruhlarga ajratiladi va guruhlarga “FSMU” yozilgan flipchart qog‘ozi beriladi. Kichik guruhda har bir talaba o‘zining yozgan javobini o‘qib tanishtiradi, so‘ngra guruh a’zolari birgalashib muhokama qilib, umumiy javoblarini yozadilar va uni himoya qiladilar (3-rasm).

https://wordlyknowledge.uz



"FSMU" metodining afzalliklari quyidagilardan iborat:

✓ dars jarayoni mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;

✓ muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;

✓ vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

✓ barcha talabalar jalb etiladi;

✓ tahlil qilish va fikrlarni asoslash malakasini rivojlanishiga yordam beradi.

Demak, aytish mumkinki, ta'lim beruvchi to'g'ri savol berish hamda dars jarayoni mavzusidan kelib chiqib, ta'lim metodini to'g'ri tanlay olishi, mazkur metodni maqsadli va o'rinli qo'llash malakasiga ega bo'lishi, ushbu metodlar doirasida savol-javob texnikasini egallagan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, ta'lim beruvchi interfaol metodlarni qo'llaganda, fikr-mulohazalarni umumlashtirishni va xulosalar chiqarishni bilishi hamda guruhni boshqarish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Aynuiqsa, "Bumerang" hamda "FSMU" metodlarini qo'llaganda, ta'lim beruvchi dars bosqichlarini rejalashtira olishi, vaziyat mazmunini va ishtirokchilarning vazifalarini ishlab chiqishni bilishi

https://wordlyknowledge.uz

lozim. Shundagina, “Bumerang” hamda “FSMU” metodlari o‘zining ijobiy samarasini bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqudusov O., Rashidov H.F. Kasb-hunar pedagogikasi. Toshkent, O‘MKHTTKMOUQTI. 2009. – 238 b.

2. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. - T.: 2001.18-24 betlar.

3. Djurayev R.X., Tolipov O‘.Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. Toshkent. “Fan” 2008. 192 b.

4. Ismoilova Z.K., Sodiqova F. Oliy o‘quv yurtlari talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishda o‘quv-amaliy o‘yinlardan foydalanishning nazariy asoslari. ”Mehnat ta’limi va kasb ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash masalalari” resp.ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: TDPU. 2008. - 247-250 b.

5. To‘xtayeva, Z., Usmonova, N., & Umedova, M. M. (2023). BO ‘LAJAK MUHANDISLARNING LOYIHALASH KO ‘NIKMALARIGA QO ‘YILADIGAN KASBIY TALABLAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(27).

6. Sh, T. Z. (2020). Integration of special subjects in higher education. International Engineering Journal For Research & Development, 5(3), 125-131.

7. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(12 Part II), 44-49.

https://wordlyknowledge.uz

Sadulayiva M.M.

Navoiy davlat pidagogika instituti

San'atshunoslik fakulteti 1-kurs magistiranti

9-12 VA 15 ASR BUXORO SHASHMAQOMINING ILMIY FALSAFIY(KOINOTVIY) VA AMALIY USLUBIYNAZARIYASI ASOSLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ota Jalol Nosirov shubhasiz, XX-asr Buxoro Shashmaqomi tarixidagi muhim shaxsdir. U Buxoro Shashmaqomining eng ko‘zga ko‘ringan san’atkorlaridan biri edi. Ijrochi, saroy sozandasi, oxirgi uch amir davrida saroy musiqachilarining boshlig‘i: Afsuski, Ota Jalolning qo‘shiqchi sifatida kuylagan yozuvlari bizgacha yetib kelmagan. Uning shogirdlari orasida domla Halim Ibodov, domla Savthon, Shodi Azizov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Levicha Babaxonov, Shonazar Sohibov, Boboqul Fayzullaev kabi mashhur ijrochilar va boshqa ko‘plab nomlar keltirilgan*

Kalit so‘zlar: *Shashmaqom, bayaz, shiru-shakar, fors, diapazon, mumtoz.*

Sadulayiva M. M.

Navoi State Institute of pidagogics

Faculty of art studies 1st year magistiranti

FUNDAMENTALS OF SCIENTIFIC PHILOSOPHICAL (COSMOLOGICAL) AND PRACTICAL METHODICAL THEORY OF BUKHARA SHASHMAKOMI OF THE 9TH-12TH AND 15TH CENTURIES

Annotation: in this article, father Jalal Nasirov is undoubtedly an important figure in the history of Bukhara Shashmakomi of the 20th century. He was one of the most prominent artists of Bukhara Shashmakomi. The performer, the court musician, the head of the court musicians during the last three Emirates: unfortunately, the recordings of father Jalal singing as a singer have not reached US. Among his pupils are famous performers such as domla Halim Ibadov, domla Savthon, Shudi Azizov, Haji Abdulaziz Rasulov, Levicha Babakhanov, Shonazar Sahibov, Bobokul Fayzullaev and many others

Keywords: Shashmakom, bayaz, shiru-sugar, Persian, range, classical.

O‘rta asr Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari musiqa ilmida maqom, asosan, parda tuzilmalari tushunchasini hamda ularga mos holda yaratilgan quy va

https://wordlyknowledge.uz

ashulalarni ifodaladi. Maqomlar dastlabki davrda tarqoq shakllarda rivojlandi, 13-asrda esa Safiuddin al-Urmaviy ularni o‘n ikki asosiy maqomdan iborat nazariy tizim shakliga keltirdi. 17-asrdan so‘ng O‘n ikki maqom tizimi inqirozga uchrab, uning negizida Sharq xalqlari orasida maqomlarning yangicha milliy va mahalliy shakllari vujudga kela boshladi. Xususan, 18-asrning o‘rtalarida O‘rta Osiyoning yirik madaniy markazlaridan biri Buxoro shahrida saroy sozanda, xonanda va bastakorlari ijodiyijrochilik faoliyatida Shashmaqom uzilkesil shakllanib, Buxoro maqomlari, Buxoro Shashmaqomi nomlarida ham yuritildi. O‘zbek maqom turlaridan Xorazm maqomlari, Farg‘onaToshkent maqom yo‘llari, shuningdek, yovvoyi (erkin ko‘rinishdagi) maqomlar, surnay, dutor yo‘llari va boshqalar Shashmaqom ta’sirida rivojlandi. O‘tgan zamon bastakorligida keng qo‘llanilgan amal, kor, naqsh, peshrav, savt, tarona, qavl kabi janrlarning noyob namunalari Shashmaqom tarkibida bizgacha yetib keldi.

Sh. Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan bo‘lib, jami 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan iborat. Shu qunga qadar sozanda, hofiz va bastakorlar maqom yo‘llarining qo‘plab ijroviy talqinlarini kashf etdilar, ovoz, tanbur, surnay, dutor va boshqalar maqom yo‘llarida bir qismli va turkumli asarlar ijod qildilar, ular asosida yangi kuy va ashulalar yaratdilar.

Maqomlar sozanda va xonandalar tomonidan yakka tarzda, shuningdek, jo‘rovozlik va jo‘rnavozlikda ijro etib kelingan. Xususan, Buxoro amirlari saroyida eng so‘nggi davrda jo‘rnavozlik asosan, 2 tanbur, 2 doira (doirachilar xonanda ham bo‘lgan), afg‘on rubobi, sato yoki qo‘biz, imkonga ko‘ra bo‘lamon cholg‘ularidan iborat bo‘lgan. Maqom ijrochiligida tanbur yetakchi soz hisoblanadi. Chunki u torlarini maqom pardalariga moslab sozlashda va maqom yo‘llarini mukammal yangratishda birmuncha qulayliklarga ega. Doira esa sozanda va xonandalarning Shashmaqom qismlarini belgilangan usul negizida ijro etishlari uchun zarur vosita bo‘lib xizmat qiladi.

https://wordlyknowledge.uz

Har bir maqomning bosh tovushqatori o‘ziga xos va nisbatan barqaror bo‘lib, turkumning to‘liq musiqiy ijro jarayonida uning pardalarida ayrim o‘zgarishlar ham sodir bo‘lib turadi. Chunki Shashmaqom shakllanishida maqomlar tarkibiga 12 maqomdan mazkur maqom pardalariga yaqin, kuy mavzui tabiatiga ohangdosh o‘zga sho‘ba va maqom yo‘llari ham kiritilgan. Ularning ladtonalligi asosiy maqom yo‘llariga ba’zan mos kelmasligi ham mumkin.

Shashmaqomni tashkil etgan maqomlarning har biri ikki — cholg‘u (mushkilot) va ashula (nasr) yirik bo‘limlaridan iborat. Cholg‘u bo‘limlarida bir xil nom bilan ataluvchi cholg‘u qismlari mavjud bo‘lib, ohanglari o‘zlari mansub bo‘lgan maqom kuyiga xos, doira usullari esa bir xildir. Ulardan asosiylari Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas va Saqil deb ataladi. Bu kismlar maqom nomlariga qo‘shib (mas, Tasnifi Buzruk, Tarjei Dugoh, Garduni Segoh kabi), ayrimlari esa bastakorlar nomi bilan birga (mas, Muxammasi Nasrulloyi, Saqili Islimxon) ataladi. Ba’zi cholg‘u qismlari alohida nomga ega (mas, Nag‘mai Orazi Navo), Dugoh va Segoxda esa maqom nomi bilan qo‘shib aytiladi (mas, Peshravi Dugoh, Samoi Dugoh, Xafifi Segoh). Shashmaqomning cholg‘u qismlari xona va bozgo‘y kuy tuzilmalaridan tashkil topadi. Bunda muntazam ravishda o‘zgaruvchi xonalarning rivojlanishi uchun qo‘llanadigan peshrav uslubi alohida ahamiyat kasb etadi. Tasnif, Tarje, Nag‘mai Oraz, Samoi, Xafif kabi cholg‘u qismlari bir-biriga o‘xshash, kichik hajmli; Gardun va Peshrav birmuncha rivojlangan; Muxammas va Saqil yo‘llari uzun va murakkab doira usullari negizida ijod etilgan. Shashmaqom cholg‘u yo‘llarining ichki tuzilishi murakkab bo‘lsada, o‘zining ravon ohangdorligi va rangbarangligi bilan shu maqom quy mavzulari bilan bevosita bog‘likdir. Bu asarlar teran falsafiy va turfa lirik kayfiyatlarni ifodalaydi, tinglovchilardan esa eshitish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab etadi.

Halim Ibatov ta’kidlashicha: domlasini kuylash chog‘ida musiqali iborani bir nafasda 22-25 soniya davomida qattiq nafas bilan kuylashi aniqlandi. Evropa maktabida qo‘shiqchi uchun bunday nafas olish, odatda, kamdan-kam uchraydigan hodisa. Bunday xonandalardan faqat uchtasi: Ota Jalol Nosirov

https://wordlyknowledge.uz

(Buxoro), Xoji Abdulaziz Rasulov (Samarqand) va Halim Ibodov (Buxoro). Ularning barchasida juda katta ovoz diapazoni bor edi. Ajoyib rivojlangan nafas olish uslubi Buxoro vokal maktabiga mansubdir. Ota Jalol Nosirovning mashhur shogirdi Levi Boboxonov kuchli ovoz, baland tenor, keng diapazonni egallagan san'atkor bo'lgan.

Shu o'rinda shuni aytishim kerak: Levi Boboxonovlar sulolasidan meros bo'lib qolgan musiqachilar – uning o'g'li Masha Babaxonov O'zbekiston xalq hofizi edi; Ari Boboxonovning nabirasi esa buyuk cholg'uchi, Buxoro Shashmaqom an'anasini saqlovchisi u "Buxoro Shashmaqom"ining asl holatini nashr ettirgan. Bu kitob Angelka Jung tahririyati ko'magi tufayli Germaniyada nashrdan chiqdi. Bu uning ko'p yillik mehnati, buni ta'kidlab keladi va o'z ijodini Ota Jalol Nasirovga bag'ishlaydi.

Bu shaxs, XX asr Shashmaqom tarixida alohida o'rin tutgan shaxs. Shu bois Boboxonovning o'zi ham shunday degan edi: "O'zi chuqur hurmat qiladigan, tushunishga, o'rganishga harakat qiladigan yagona maqomchi Shashmaqomning atoqli bilguvchisi, xonanda Ota Jaloldir, men faqat unga ta'zim qilaman, men uchun u buyuk siymo hisoblanadi. Kechayu kunduz, bo'sh vaqt topsam, darhol Uspenskiyning kitobini olaman». Shu tariqa biz Buxoro Shashmaqomining o'ziga xos tushunchasini tartibga solamiz, bu esa keksa ustalar san'ati bilan bog'liqdir. Bular o'nlab ismlar: IX-asr oxiri va XX-asrning birinchi ikki o'n yilligi boshlari qo'shiqchilari. Shashmaqomning vokal qismlari bilan keyinchalik, afsuski, 60 yillarning oxiri va 70 yillarning boshidan boshlangan bu an'ana, birinchi navbatda, vokal an'anasi, Shashmaqomning cholg'u an'anasi - inqirozga uchrasada, lekin bu birinchi navbatda, albatta, Buxoroda kuzatiladi. Ushbu inqiroz hodisasi 70 yillarda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan, allaqachon Buxoroda Shashmaqom san'ati o'zining inqirozini boshdan kechirayotganini ta'kidlagan. Avvalo, vokal maktabi, bu san'atning genezisi ildizlarga borib taqaladi va bu, albatta, fors madaniyatida barcha mas'uliyat bilan tan olinishi kerak. O'tgan asrlarda ko'plab hujjatli materiallar, birinchi navbatda,

https://wordlyknowledge.uz

Shashmaqom uchun "Bayaz" deb nomlangan she’rlar to‘plami, Shashmaqom fors-tojik matnida kuylangan.

Ammo, umuman olganda, Shashmaqom doim til ma’nosida ham, shakl va janr jihatidan ham qadimgi fors madaniyati hodisalariga nisbat berilgan, deyishimiz mumkin. Bu hodisadagi bir qator shakl va janrlar shartsiz, bunda o‘rta asrlar fani va musiqasida keng yoritilgan eski klassik, fors shakllariga ko‘tariladi. Shashmaqom tarixida esa ko‘p narsa haligacha o‘rganilmagan. Va, albatta, o‘sha paytda asosan, elita qismiga tegishli aytaylik, Shashmaqom boshqa maqomot turlari uchun klassik asos bo‘lgan.

Shunday qilib, biz ushbu hodisaning taqdiri paradoksal ekanligini ko‘ramiz. Bir tomondan, uning bosqichma-bosqich integratsiyalashuvi yuz bergagini, uning negizida yangi Shashmaqom paydo bo‘ldi. Ammo original modelni izlashda ular hozirgi bosqichda asosiy nuqtaga aylandi. Aytishimiz kerakki, mumtoz Buxoro uslubida tanazzul kuzatilgan bo‘lsa-da, Buxoroda sanoqli sozandalar paydo bo‘ldi. Xususan, bular Buxorolik yahudiylardir.

Bu an’anani, qadimgi Buxoro vokal maktabini saqlab qolgan o‘nlab nomlar shu Shashmaqomni ijro eta boshlagan. Bu o‘nlab ismlar:, Yuriy Boboxonovdan boshlab, Masha Babaxonova, Barno Isqaqov – taniqli xonanda, Nariyo Aminov, Gavriel Mullaqandov, Abram Talmasov, Berta Davidova va boshqalar Buxoro va Samarqandda, ayniqsa, Dushanbeda Shashmaqom ijro etganlar. Bu borada Ari Babaxonov - Levichaning nabirasi, ko‘p ishlarni amlga oshirdi. Shashmaqomning qayta tiklanishi o‘zining dadasi haqida eslaganidek, va boshqa musiqachilarning hikoyalariga ko‘ra, xususan, Ari Boboxonov bir qator yo‘qolgan kuylarni qayta tikladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Madrimov B. X. O‘quvchilarni Musiqa Savodxonligini Oshirish Imkoniyatlari //Ijtimoiy Fanlarda Innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T.

https://wordlyknowledge.uz

2. – №. 1. – S. 12-16. 2. Madrimov B. X. Musiqiy Pedagogika Metod Va Prinsiplari //Ijtimoiy Fanlarda Innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 6. – S. 45-51.

3. Madrimov B. (2021). Faktorы nravstvenno-esteticheskogo stanovleniya lichnosti budushhego professionalnogo muzыkanta. Scientific Progress. Vol. 1, issue 5, Pp. 576- 580.

4. Madrimov B.X. (2021). O sovremennoy sistematike muzыkalnыx form. Scientific Progress. 2 (4), pp. 922-927.

5. Madrimov B.X. (2021). Logicheskie vozmojnosti sochetaniya stabilnogo i mobilnogo nachal v kompozitsii. Scientific Progress. 2 (4), pp. 908-914.

6. Madrimov B.X. (2021). Prinsipialnыe mobilnosti proizvedeniya sovremennogo muzыkalnogo iskusstva. Scientific Progress. 2 (4), pp. 889-895.

7. Madrimov B.X. (2021). Problemы podvijnosti muzыkalnoy kompozitsii. Scientific Progress. 2 (4), pp. 896-901.

WORDLY KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz

Saidivaliyev Sh.U.

Do‘labov D.

Boboyev D.Sh.

Toshkent transport universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

VAGON OQIMLARINI TASHKIL ETISHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Kalit so‘zlar: *Vagon oqimi, yuk aylanmasi, rivojlanish bosqichlari, vagonlar yig‘ilishi, poyezd tuzish, optimal reja, hisoblash usuli.*

Annotatsiya: *Maqolada yuklarni yetkazib berish jarayonida vagon oqimlarini tashkil etish, ularning mavjud holati va mahsulotlarni qabul qilib olgandan keyin yetkazib berish jarayonida sifatli xizmat ko'rsatish usullarining optimal variantlarini tanlash ko'rsatib berilgan. Vagon oqimlarini tashkil qilish jarayonida uzoq muddat turib qolishiga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar va takliflar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, yuklarni yetkazib berish jarayoni tahlil qilinib, mavjud tizimdagi kamchiliklarni bartaraf etishda vagon oqimlarini tashkil qilish bo‘yicha takliflar berilgan.*

Saidivaliyev Sh.U.

Dolabov D.

Babayev D.Sh.

Tashkent transport University (Tashkent, Uzbekistan).

STAGES OF DEVELOPMENT OF THE ORGANIZATION OF WAGON FLOWS

Keywords: wagon flow, freight turnover, stages of development, wagon Assembly, train formation, optimal plan, calculation method.

Annotation: the article shows the organization of Wagon flows during the delivery of goods, their current state and the selection of optimal options for quality service methods in the delivery process after receiving the products. In the process of organizing wagon flows, measures and proposals have been developed to identify the factors that cause them to stand in the long term and eliminate them. In addition, the delivery process was analyzed and proposals were made for the organization of Wagon flows in the elimination of shortcomings in the existing system.

https://wordlyknowledge.uz

Kirish. Temir yo‘l transportida vagon oqimlarini tashkil qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlar bugungi kungacha o‘zining dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Dunyo mamlakatlari temir yo‘llarida vagon oqimlarini tashkil etish usullarining rivojlanish bochqichlarini tadqiq etish kelgusida ushbu sohani rivojlantirishga o‘zining hissasini qo‘shadi. Ushbu maqolada vagon oqimlari, poyezdlar tuzish rejasi va me’yorlashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning rivojlanish bosqichlari tadqiqi amalga oshirildi.

Asosiy qism. Temir yo‘l transportida vagon oqimlarini tashkil etish bo‘yicha turli yillar davomida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Dastlabki davrda ishlab chiqilgan tadqiqotlar asosan alohida stansiyalarda vagonlarning yig‘ilish jarayonida turib qolishini meyorlashtirish maqsadlari uchun tavsiya etilgan. Ularni amaliy qo‘llash murakkabligi unda qiymatlari poyezdlarni tuzish rejasini ishlab chiqishga qadar noma’lum bo‘lgan e va γ parametrlari mavjudligi bilan bog‘liq.

Ushbu muammoni hal qilish maqsadida A.P. Petrov ishda vagonlar yig‘ilish koeffitsiyenti tushunchasini yig‘ilish parametri bilan almashtirish va uni stansiyada tuziladigan poyezdlar yo‘nalishlari k lari soniga bog‘liq ravishda aniqlashni taklif etdi:

$$C = 12\left(1 - \frac{2}{k+5}\right) \quad (1)$$

Keltirilgan formula quyidagi ko‘rinishda hozirgi kungacha amaliy hisob-kitoblar uchun ishlatiladi:

$$C = 12\left(1 - \frac{2}{k+A}\right) \quad (2)$$

Vagonlar oqimlarini tashkil etishga oid asosiy vazifalardan biri bir guruhli poyezdlarni tuzishning optimal rejasini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Bu masala kombinator ko‘rinishga ega. Poyezdlar tuzish rejasining amaliy jihatdan qo‘llanishi mumkin bo‘lgan variantlariga muvofiq ravishda quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$K_{PTR} = 2^{\frac{k_{st}(k_{st}-1)(k_{st}-2)}{2}} \quad (3)$$

https://wordlyknowledge.uz

bu yerda, k_{st} – poyezd tuzish rejasi hisoblab chiqiladigan, yo‘nalishdagi stansiyalar soni.

Ushbu formula tahlili ko‘rsatishicha, stansiyalar soni k_{st} ortishi bilan poyezdlarni tuzish rejasi variantlari soni ham keskin ko‘payib ketadi. Masalaning murakkablashib ketishiga ham aynan shu sabab bo‘ladi.

Boshlang‘ich bosqichda vagon oqimlarini tashkil etish masalasini ayrim stansiyalar orasidagi saralash ishlarini qayta taqsimlash nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan. 1921-yilda A.N. Frolov ilk marotaba ikki stansiya orasida saralash ishlarini taqsimlash variantlarini qiyoslash ishini bajardi. Variantlarni baholash ko‘rsatkichlari sifatida vagon va poyezd-sutkalar xarajatlari qo‘llandi. Bunda vagon oqimlarini tashkil etish variantlarini bir sutkadagi vagon va poyezd-sutkalar sarf-xarajat stavkalari asosida pul ko‘rinishida baholash taklif etilgan.

Poyezdlar ixtisoslashuvining optimal variantini aniqlash uchun mo‘ljallangan, izchil analitik qiyoslashlar usluli deb nom olgan birinchi variantini I.I. Vasilyev taklif qilgan. Bunda dastlab vagon oqimlarini tashkil etish masalasini I.I. Vasilyev vagon-soatlar va manyovr ishlari xarajatlarini hisobga olmagan holda faqat yuklarni yetkazib berish muddatlariga rioya qilish shartidan kelib chiqqan holda hal qildi. Biroq keyinchalik poyezdlarni tuzish rejasi variantlarini baholash uchun mezon sifatida keltirilgan vagon-soatlar tanlab olindi. Poyezdlarni tuzish rejasi variantlari samaradorligini baholash ushbu usulda tuzish stansiyalaridagi vagon-soatlarni yo‘l yo‘lakay stansiyalardagi vagon oqimlarining kichik oqimlariga ishlov berishdan tejalgan mablag‘ni qiyoslash asosida bajarilgan. Hisob-kitoblar uchun ikki asosiy shartdan foydalanildi: zarur va yetarli. Bu usulning kamchiligi shu bilan bog‘liqki, u tuzish rejasining qat’iy optimal varianti olinishini kafolatlamagan. Bundan tashqari, masalaning hal qilinish natijasi vagonlar oqimlarini tashkil etishning birgina varianti bo‘lib kelgan. Biroq, ma’lumki, masala maqsadli funksiyaning bir xil yoki o‘zaro yaqin qiymatiga ega bo‘lgan, qo‘shimcha parametr bilan solishtirilishi talab etilgan bir necha yechimlarga ega bo‘ladi. Ushbu kamchiliklarga qaramay, I.I. Vasilyev

https://wordlyknowledge.uz

tomonidan ishlab chiqilgan analitik qiyoslashlar usuli vagonlar oqimlari katta guruhlarini alohida tayinlanma sifatida ajratib olish sharti kabi poyezdlarni tuzish rejasini hisob-kitob qilishning bir qator turli usullari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

$$Cm \leq n_i \sum t_j \quad (4)$$

bu yerda, n_i– i-nchi vagon oqimlari soni.

1944-yilda A.P. Petrov poyezdlarni tuzish rejasining tubdan yangicha hisobkitobini taklif qilib, u barcha mumkin bo‘lgan yoki muayyan tarzda tanlab olingan variantlar ko‘rsatkichlarini qiyoslashga asoslangan edi. Bu usul keyinchalik mutloq hisoblash usuli deb nom oldi.

A.P. Petrovning mutloq hisoblash usuli asosida poyezdlarni tuzish rejasining barcha mumkin bo‘lgan variantlarini to‘liq ko‘rib chiqish yotadi. Bu kabi yondashuv aniq optimal yechimga ega bo‘lish imkonini berishiga qaramay, biroq vagon oqimlarining ko‘p sonli kichik oqimlarini hisobga olib, bu ish qo‘lda to‘liq holda yo‘nalishning ko‘pi bilan beshta stansiyasi uchun bajarilgan. Stansiyalar soni ko‘proq bo‘lganida esa vazifani ikki bosqichda amalga oshirish taklif etilgan: birinchisida ikkita asosiy tayanch saralash stansiyasi uchun tuzish rejasi hisoblab chiqilgan, ikkinchisida tayanch va tayanch bo‘lmagan stansiyalar orasida saralash ishining eng maqbul taqsimlanish variantlari aniqlangan. Hisob-kitob jarayonini yengillashtirish uchun A.P.Petrov maxsus jadvallarni ishlab chiqdi. Masalani ikki bosqichda hal qilish tahlil qilinayotgan variantlar sonini qisqartirish imkonini berib, biroq bu holda optimal variantga ega bo‘lish kafolatlanmaydi. Shuningdek ilmiy ishda yuklarni yetkazib berish muddatini ta’minlash shartiga ko‘ra poyezdlarni tuzish rejasi variantlarini tekshirish o‘z dolzarbligini yo‘qotganligi to‘g‘risidagi qilingan xulosani ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq.Shundan keyin bir necha yillar davomida poyezdlarni tuzish rejasi bo‘yicha ishlarda bu masala ko‘tarilmagan. 1950-yilga kelib A.P. Petrov poyezdlarni tuzishning optimal rejasini izlab topish uchun birinchi navbatda, EHM vositalari yordamida hal qilinishi talab etilgan dolzarb transport muammosi sifatida ko‘rsatib berdi. 1958-

https://wordlyknowledge.uz

yil EHM yordamida, poyezdlar tuzish rejasining optimal variantini aniqlash imkonini beradigan dastur ishlab chiqilgan. Hisob-kitoblar A.P. Petrovning stansiyalari soni to‘rttagacha bo‘lgan chiziqli poligon uchun mo‘ljallangan mutloq hisob-kitob usuli uchun bajarilgan. Vagon oqimlarini tashkil etish va boshqarish bo‘yicha A.P. Petrovdan keyin ko‘plab olimlar EHM yordamida dasturiy ta’minotlar ishlab chiqqan, jumladan A.T. Osminin (2000-yillarda) tomonidan bir guruhli va ko‘p guruhli poyezdlar tuzish rejasi usuli hozirgi kungacha MDH davlatlari temir yo‘l tarmog‘ida keng foydalanilmoqda.

Xulosa. Hozirgi rivojlanayotgan bozor munosabatlari sharoitida yuklarni temir yo‘l transportida transportirovka qilish uchun vagon oqimlarini to‘g‘ri tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Temir yo‘l transportining xalqaro yuk tashish bozoridagi ulushi beqiyosdir. Biroq mamlakatimizda vagon oqimlarini tashkil qilishda jahon tajribasidan unumli foydalanish va transport oqimlarining temir yo‘l transportidagi ulushini yaxshilash bo‘yicha olib boriladigan ishlar mavjud.

Mazkur ishning asosiy qismida temir yo'l transportida vagon oqimlari, ularning ahamiyati, hamda vagonlarni qayta ishlash uchun zaruriy texnik vositalarning hisob ishlari asosida bajarilgan barcha amallar tashishlarni tashishni tashkil etishga asos bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan muammolarni bartaraf etish va vagon oqimlaridan samarali foydalanishni ta’minlash asosida ulardan yanada effektiv foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. Зиёда Мухамедова, Диёр Бобоев. Исследования по улучшению современной транспортной системы в процессе доставки грузов. *Железнодорожный транспорт: актуальные вопросы и инновации*, *3*(1), 2022/3/28, 15–24.

2. Жамол Шихназаров, Диёр Бобоев. Темир йўл транспортида юкларни етказиб бериш жараёнидаги вагонлардан самарали фойдаланишни таҳлил қилиш. *Academic research in educational sciences, 2(5)*, 2021, 210-216.

https://wordlyknowledge.uz

3. Jamol Shihnazarov, Diyor Boboev, Elbek Shermatov. Investigation of the longitudinal forces acting during the transportation of flat cargo on sites in the road profiles with a slope of railway transport. *AIP Conference Proceedings, 2432(1)*, 2022/6/16, 030112.

4. Dıyor Shomurotovıch Boboyev. Kontreyler terminallari orqali yuk tashishning innovatsion texnologiyasini tashkil etish. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(12)*, 2022/4/15, 11-19.

5. Z.G. Muhamedova, D.Sh. Boboyev. Yuklarni yetkazib berish jarayonida zamonaviy tashish tizimini takomillashtirishni tadqiq qilish. *Железнодорожный транспорт,1(16)*,2022,16-19.

6. Diyor Shomuratovich Boboev, Ramazon Shamilovich Bozorov, Elbek Sirojiddinovich Shermatov. Choose types of transport and improve their cooperation in the process of delivery of cargo. *"Экономика и социум" №5(84),* 2021, 98-105.

7. Жамшид Ренатович Кобулов, Жамшид Сайфуллаевич Баротов, Диёр Шомуротович Бобоев. Совершенствование системы грузоперевозок на железнодорожном транспорте при вагонных отправках. Актуальные вопросы экономики и управления: наука и практика. криулинские чтения. *Сборник материалов всероссийской научно-практической конференции. Курск,* 15.05.2021, 199-203.

8. Jamshid Renatovich Kobulov, Jamshid Sayfullayevich Barotov, Diyor Shomurotovich Boboyev. Improvement of the cooling system during storage in the process of agricultural products. *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers.* 16(2), 2020, 200-204.

9. Бозоров Р.Ш., Саидивалиев Ш.У., Шерматов Э.С., Бобоев Д.Ш. Исследование по установлению оптимального числа платформ в контейнерном поезде. Транспорт: наука, техника, управление. Научный информационный сборник. 2022. № 5. С. 24-28.

https://wordlyknowledge.uz

Saidivaliyev Sh.U.

Do‘labov D.

Boboyev D.Sh.

Toshkent transport universiteti (Toshkent, O‘zbekiston).

TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA VAGON OQIMLARINI TASHKIL ETISHDA JAHON TAJRIBASI

Kalit so‘zlar: *Vagon oqimi, yuk aylanmasi, rivojlanish bosqichlari, vagonlar yig‘ilishi, poyezd tuzish, optimal reja, hisoblash usuli.*

Annotatsiya: *Maqolada yuklarni yetkazib berish jarayonida vagon oqimlarini tashkil etish, ularning mavjud holati va mahsulotlarni qabul qilib olgandan keyin yetkazib berish jarayonida sifatli xizmat ko'rsatish usullarining optimal variantlarini tanlash ko'rsatib berilgan. Vagon oqimlarini tashkil qilish jarayonida uzoq muddat turib qolishiga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar va takliflar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, yuklarni yetkazib berish jarayoni tahlil qilinib, mavjud tizimdagi kamchiliklarni bartaraf etishda vagon oqimlarini tashkil qilish bo‘yicha takliflar berilgan.*

Saidivaliyev Sh.U.

Dolabov D.

Babayev D.Sh.

Tashkent transport University (Tashkent, Uzbekistan).

WORLD EXPERIENCE IN THE ORGANIZATION OF WAGON FLOWS IN RAIL TRANSPORT

Keywords: wagon flow, freight turnover, stages of development, wagon Assembly, train formation, optimal plan, calculation method.

Annotation: the article shows the organization of Wagon flows during the delivery of goods, their current state and the selection of optimal options for quality service methods in the delivery process after receiving the products. In the process of organizing wagon flows, measures and proposals have been developed to identify the factors that cause them to stand in the long term and eliminate them. In addition, the delivery process was analyzed and proposals were made for the organization of Wagon flows in the elimination of shortcomings in the existing system.

Kirish. Temir yo‘l transportida vagon oqimlarini tashkil qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlar bugungi kungacha o‘zining dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

https://wordlyknowledge.uz

Dunyo mamlakatlari temir yo‘llarida vagon oqimlarini tashkil etish usullarining rivojlanish bochqichlarini tadqiq etish kelgusida ushbu sohani rivojlantirishga o‘zining hissasini qo‘shadi. Ushbu maqolada vagon oqimlari, poyezdlar tuzish rejasi va me’yorlashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning rivojlanish bosqichlari tadqiqi amalga oshirildi.

Asosiy qism. Dunyo mamlakatlari temir yo‘llarida vagon oqimlarini tashkil etish usullarining rivojlanish bochqichlarini tadqiq etish kelgusida ushbu sohani rivojlantirishga o‘zining hissasini qo‘shadi. Vagon oqimlarini tashkil etish usullari temir yo‘l transporti ish sharoitlari o‘zgarishi ta’sirida kattagina taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Poyezdlar tuzish rejasiga asoslangan, vagon oqimlarini tashkil etishga bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar nazariyasi MDHda asosan 1931–1952 yillar davomida va amaliy jihatdan 1970–1980-yillarda EHM yordamida rivojlanganligi aniqlandi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra MDH mamlakatlarida vagon oqimlarini tashkil etish tizimini temir yo‘l transportining hozirgi ishlash sharoitlariga va temir yo‘llar orqali tashish bozorini isloh qilishning tanlab olingan yo‘nalishlariga muvofiq o‘zgartirish zarurligi aniqlandi.

Temir yo‘l transporti har qanday davlat iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Temir yo‘l transporti davlatning ichki va tashqi transport-iqtisodiy aloqalarini ta’minlashda, shuningdek aholining tashishlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Temir yo‘l transportining ustun jihatlaridan biri tashishlar tannarxining pastligi va infratuzilmaning yuqori darajali o‘tkazish va tashish imkoniyatiga ega ekanligi hisoblanadi. Temir yo‘l orqali tashishlar tannarxini belgilab beradigan asosiy omillardan biri poyezdlarni tuzish rejasida belgilab beriladigan vagon oqimlarini tashkil etish tartibi bo‘lib MDH mamlakatlari temir yo‘llarida vagon oqimlarini tashkil etish bo‘yicha qo‘llanadigan asosiy usullarga Rossiya imperiyasi davridayoq asos solingan.

Vagon oqimlarini yuk poyezdlari va muayyan marshrutlar bo‘yicha ularning yo‘nalishlari tarzida tashkil etish tizimi temir yo‘llarning transport xizmatlari

https://wordlyknowledge.uz

bozorida barqaror ishlashini, tashishga minimal xarajat sarflanishini, yuklarni tashish muddatlariga aniq rioya qilinishini, shuningdek yuk jo‘natuvchilar va qabul qiluvchilar talab va ehtiyojlarining qondirilishini ta’minlashi kerak. Vagon oqimlarini tashkil etish asosida stansiyalarda tuziladigan poyezdlar va vagonlar guruhlarining borish joylarini va toifasini belgilab beradigan, ularni yo‘naltirish tartibi va yuk poyezdlarni tuzish rejasi tartibi yotadi. Vagon oqimlarini tashkil etish usuli temir yo‘l orqali tashish tannarxiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, temir yo‘l transporti texnik vositalarining yuklanganlik darajasini, shu bilan birga yuk poyezdlari jo‘natilish stansiyalari va punktlari hamda borish joylari orasida saralash va manyovr ishlarining taqsimlanishini ta’minlab beradi. Shuni ham qayd etish lozimki, vagon oqimlarini tashkil etish muammosini o‘rganish 100-yildan uzoqroq tarixga ega bo‘lib, ana shu davr mobaynida uni hal qilish usullarini rivojlantirish tarixi bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar yaratilgan. Bular qatorida, birinchi navbatda ishlarni, shuningdek amaliy ishlarida masala mohiyatiga doir qo‘shimcha ma’lumotlar mavjud bo‘lgan ayrim olimlarning faoliyatini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

XIX asr oxiri XX asr boshida MDH mamlakatlarida chop etilgan maqolalar temir yo‘llarning, xususan vagon oqimlarini tashkil etish sohasidagi ekspluatatsiya ishiga oid amaliy tajribani umumlashtirishga va bu faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha yangi g‘oyalarni taqdim etishga qaratilgan edi.

Vagon oqimlarini tashkil etish muammosi bo‘yicha dastlabki ilmiy tadqiqotlar va maqolalar professor A.N. Frolov tomonidan chop etilgan. Vagon oqimlarini tashkil etish va temir yo‘llar texnik stansiyalari orasida saralash ishlarining taqsimlanishiga oid muammolarning nazariy tadqiqot natijalari chop etilgan. Ushbu ilmiy ishlarda saralash parkida vagonlarning yig‘ilish vaqti T, poyezdlarning tuzilayotgan tayinlanmalari k va ishlov beriladigan vagonlar soni N orasidagi bog‘liqlik belgilab berilgan.

$$T = \frac{12k}{N}, \qquad (1)$$

https://wordlyknowledge.uz

Shuningdek, alohida tayinlanmaga doirlar vagonlar yig‘ilish vaqti quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$t^{x}_{yig'} = \frac{12}{N^{x}_{jo'n}}, \quad (2)$$

bu yerda, $N^{x}_{jo'n}$ – bir sutka davomida tuzilgan x tayinlanma poyezdlar soni.

1910-yilda D.M. Karamishev grafik modellashtirish asosidagi stansiyalarda vagonlar yig‘ilish jarayonining tadqiqot natijalari chop etilgan. Bunda poyezdlarning stansiyaga kelish va jo‘nash grafiklari, hamda vagonlarning turib qolishi orasidagi bog‘liqlik aniqlab olingan. Grafik modellashtirish temir yo‘l stansiyalarda vagonlarning yig‘ilish jarayonini tadqiq etish maqsadida hozirgi kunga qadar qo‘llanib keladi.

Shuningdek, V.A. Sokovich vagonlarning yig‘ilish jarayoni vaqtini quyidagi formulaga binoan aniqlashni taklif qilingan:

$$T = \frac{12(k-1)m}{N}, \quad (3)$$

bu yerda, m – poyezd tarkibidagi vagonlar soni; n – sutkalik vagon oqimlari.

Vagonlar yig‘ilish vaqtini baholash uchun XX asrning 20-yillarida A.N. Frolov, V.A. Sokovich va I.I. Vasilyevlar tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, I.I. Vasilyev vagonlar saralash parkida o‘rtacha turib qolish vaqtini baholash uchun quyidagi formulani tavsiya etgan:

$$T_{yig'} = \frac{12m-1}{N} \quad (4)$$

Ishda V.S. Larionov vagon oqimlarini yanada samarali tashkil etish uchun saralash stansiyasida vagonlar yig‘ilish vaqtini hisoblashning formulasini taklif qildi,

$$T_{yig'} = 10 \quad (5)$$

Bunda 10 koeffitsiyenti amaliy tajriba asosida qabul qilingan.

1941-yili prof. I.I. Vasilyev alohida tayinlanmaga oid vagonlarning yig‘ilishda o‘rtacha turib qolish vaqtini baholash uchun mo‘ljallangan formulani qayta ko‘rib chiqdi va uni quyidagi ko‘rinishda taqdim etdi

https://wordlyknowledge.uz

$$T_{yig'} = 12\left(\frac{m}{N} - \frac{1}{n_{qayta}}\right) \quad (6)$$

bu yerda, n_{qayta}– qayta ishlovga keluvchi sutkalik poyezdlar soni.

1946-yil ishda K.A. Berngard vagonlar sutka davomida guruhlar bo‘lib bir tayinlanmaga bir tekis kelib tushganida va alohida yakunlovchi guruhlar kelib tushganidan so‘ng yig‘ilishda tanaffuslar yuzaga kelganida yig‘ilishga vagon-soatlar sarfini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilgan:

$$T_{yig'} = 12\left(1 - \frac{1}{e\gamma}\right) \quad (7)$$

bu yerda, m – poyezd tarkibidagi vagonlar soni; e – ulardan bir tarkib yig‘iladigan guruhlar soni; γ – tarkib va guruh karraliligi koeffitsiyenti.

Yuqoridagi formulani, shuningdek quyidagicha ham taqdim etish mumkin

$$T_{yig'} = cm \quad (8)$$

bu yerda, C – hisobiy yig‘ilish koeffitsiyenti:

$$C = 12\left(1 - \frac{1}{e\gamma}\right) \quad (9)$$

Bu formulalar alohida stansiyalarda vagonlarning yig‘ilish jarayonida turib qolishini meyorlashtirish maqsadlari uchun tavsiya etilgan. Ularni amaliy qo‘llash murakkabligi unda qiymatlari poyezdlarni tuzish rejasini ishlab chiqishga qadar noma’lum bo‘lgan e va γ parametrlari mavjudligi bilan bog‘liq.

Xulosa. Hozirgi rivojlanayotgan bozor munosabatlari sharoitida yuklarni temir yo‘l transportida transportirovka qilish uchun vagon oqimlarini to‘g‘ri tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Temir yo‘l transportining xalqaro yuk tashish bozoridagi ulushi beqiyosdir. Biroq mamlakatimizda vagon oqimlarini tashkil qilishda jahon tajribasidan unumli foydalanish va transport oqimlarining temir yo‘l transportidagi ulushini yaxshilash bo‘yicha olib boriladigan ishlar mavjud.

Mazkur ishning asosiy qismida temir yo'l transportida vagon oqimlari, ularning ahamiyati, hamda vagonlarni qayta ishlash uchun zaruriy texnik vositalarning hisob ishlari asosida bajarilgan barcha amallar tashishlarni tashishni

https://wordlyknowledge.uz

tashkil etishga asos bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan muammolarni bartaraf etish va vagon oqimlaridan samarali foydalanishni ta’minlash asosida ulardan yanada effektiv foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. Зиёда Мухамедова, Диёр Бобоев. Исследования по улучшению современной транспортной системы в процессе доставки грузов. *Железнодорожный транспорт: актуальные вопросы и инновации*, *3*(1), 2022/3/28, 15–24.
2. Жамол Шихназаров, Диёр Бобоев. Темир йўл транспортида юкларни етказиб бериш жараёнидаги вагонлардан самарали фойдаланишни таҳлил қилиш. *Academic research in educational sciences, 2(5)*, 2021, 210-216.
3. Jamol Shihnazarov, Diyor Boboev, Elbek Shermatov. Investigation of the longitudinal forces acting during the transportation of flat cargo on sites in the road profiles with a slope of railway transport. *AIP Conference Proceedings, 2432(1)*, 2022/6/16, 030112.
4. Dıyor Shomurotovıch Boboyev. Kontreyler terminallari orqali yuk tashishning innovatsion texnologiyasini tashkil etish. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(12)*, 2022/4/15, 11-19.
5. Z.G. Muhamedova, D.Sh. Boboyev. Yuklarni yetkazib berish jarayonida zamonaviy tashish tizimini takomillashtirishni tadqiq qilish. *Железнодорожный транспорт,1(16)*,2022,16-19.
6. Diyor Shomuratovich Boboev, Ramazon Shamilovich Bozorov, Elbek Sirojiddinovich Shermatov. Choose types of transport and improve their cooperation in the process of delivery of cargo. *"Экономика и социум" №5(84),* 2021, 98-105.
7. Жамшид Ренатович Кобулов, Жамшид Сайфуллаевич Баротов, Диёр Шомуротович Бобоев. Совершенствование системы грузоперевозок на железнодорожном транспорте при вагонных отправках. Актуальные

https://wordlyknowledge.uz

вопросы экономики и управления: наука и практика. криулинские чтения. *Сборник материалов всероссийской научно-практической конференции. Курск,* 15.05.2021, 199-203.

8. Jamshid Renatovich Kobulov, Jamshid Sayfullayevich Barotov, Diyor Shomurotovich Boboyev. Improvement of the cooling system during storage in the process of agricultural products. *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers.* 16(2), 2020, 200-204.
9. Бозоров Р.Ш., Саидивалиев Ш.У., Шерматов Э.С., Бобоев Д.Ш. Исследование по установлению оптимального числа платформ в контейнерном поезде. Транспорт: наука, техника, управление. Научный информационный сборник. 2022. № 5. С. 24-28.

WORDLY KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz

Samandarova G.

Urganch shahar 28-son maktab o'qituvchisi

XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILGAN O'ZLASHGAN QATLAMGA OID BIRLIKLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm dostonlaridagi o'zlashgan qatlamga oid birliklar,antroponimlar tarkibidagi arab, fors tillaridan kirib kelgan affiksoidlar haqida fikrlar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Antroponim, affiksoid, sodda tuzilishga ega affiksoidlar, murakkab tuzilishga ega affiksoidlar, onomastika, lingvopoetika.*

Samandarova G.

Urgench town school teacher No. 28

ADAPTED LAYER-SPECIFIC UNITS USED IN THE KHWAREZMIAN EPICS

Abstract: *In this article, thoughts are reflected about the affixoids acquired from foreign languages in the epics of Khorezm, and the affixoids introduced from Arabic and Persian languages in anthroponyms.*

Key words*: Anthroponym, affixoid, affixoids with a simple structure, affixoids with a complex structure, onomastics, linguopoetical science.*

Xorazm dostonlari tilidagi arabiy tillarga oid kishi ismlarini tuzilishi, tarkibidagi elementlari nuqtayi nazaridan ham tahlilga tortish mumkin. Bunday nomlarning ko'pchiligini hozirgi kunda kishilar bir necha qismlardan iborat ekanligini sezmasligi mumkin. Ana shuning uchun ham dostonlarimiz matnlarida uchraydigan arabiy qatlamga xos kishi ismlarini komponent tahlil qilish orqali ularning strukturasiga aloqador qo'shimcha unsurlarni tekshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xorazm dostonlari atoqli otlar tizimidagi arabiy asosga ega bo'lgan onomastik birliklar orasida sodda tarkibli nomlar foiz jihatidan ozchilikni tashkil qilsa ham, ma'lum darajada o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Nomlarning sodda yoki qo'shma (ba'zan murakkab) tarkibga egaligini baholashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelinadi. Murakkablik shundan iborat bo'ladiki, birinchidan, nomning tarkibini yuzaga keltirayotgan birliklarning tarkiblarga

https://wordlyknowledge.uz

ajralishi masalasi qaysi nuqtayi nazardan belgilanishiga bog‘liq holatlar talaygina. Ikkinchidan, nomning tarkiblarga ajralishi yoki ajralmasligi qaysi qatlam nuqtayi nazaridan baholanishi kabilarda tekshiruvchi uchun ma’lum bir prinsiplarni belgilab olish talab etiladi. Quyidagi nomlar maqbul prinsiplar asosida tahlil qilingan:

Luqmon. “Oshiq Alband”dostonida Hazrati Luqmon shaklida qo‘llaniladi: *...Dardga davo etgan hazrati Luqmon,*

Dod etarman parizodning alinnan... (“Oshiqnoma” 2-kitob, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, 183-b).

Qadimgi arab mifologiyasida Luqmon nomi bilan mashhur bo‘lgan ikkita shaxs tilga olinadi. Ulardan biri Luqmon ibn Od deb yuritilgan. Afsonaga ko‘ra, qadimiy Arabistonda yashagan Od xalqi Ollohning g‘azabiga uchrab, qurg‘oqchilikka duchor bo‘ladi. Xalq bu ofatdan qutilish uchun o‘z vakillarini Makkaga yomg‘ir so‘rab duo o‘qish uchun yuboradi. Ularga Luqmon boshchilik qiladi va Ollohdan o‘ziga uzoq umr tilaydi. Olloh unga yetti burgut umriga teng uzoq umr ato etgan. Ikkinchi Luqmon Qur’onda tilga olinadi (31-Luqmon surasi). Luqmon al-Hakim sifatida qayd etilgan bo‘lib, donishmand va yakkaxudolikning targ‘ibotchisi sifatida tavsiflanadi. Islom afsonalaridagi ko‘pgina aforizm, maqollar, hamda masallar, shuningdek, musulmon xalqlarining folklor asarlarida Luqmon nomi juda mashhur bo‘lgan. O‘rta Osiyo xalqlari orasida Luqmon buyuk hakim va hakimlarning piri deb tan olinadi. Shuningdek, Luqmon so‘zi dono, bilimdon shaxs ma’nosini ham anglatadi. Luqmon so‘zi arabcha (halol luqma) “boquvchi” degan ma’noni bildiradi.

Bahovuddin. “Oshiqnoma” turkumiga kiruvchi “Oshiq Alband” dostonida uchraydi.

...Bag‘rim uzra bordur maning bir nishon,
Duo qilsin dedi ul Shohimardon,
Abu Bakr, Siddiq ul Umar, Usmon,

https://wordlyknowledge.uz

Bahovuddin *sarmast buzrug ko'rindi*[26]... ("Oshiqnoma" 2-kitob, "Oshiq Alband" dostoni, 172-b).

To'liq ismi Said Muhammad ibn Jaloliddin (1318 – 1389) bo'lib, naqshbandiylik tariqatining asoschisidir. Buxoro yaqinidagi Hinduvon (hozir Qasri Orifon)[27] qishlog'ida tug'ilgan va shu yerda vafot etgan. U yog'och va metallarga naqsh berish kasbi bilan shug'ullangani sababli unga Naqshbandiy taxallusi berilgan. Bahovuddin yoshligidayoq so'fiylik yo'liga kirgan. Ustozi Mir Said Kulol ta'sirida o'z tariqatini yaratdi. U islomni tozalash, ilk holiga qaytarish g'oyasini ilgari surgan. U o'zini Muhammad payg'ambar avlodidan bo'lgan mashhur Murshid deb tanitgan. Bahovuddinning ayrim qarashlari so'fiylikning boshqa vakillari, xususan, Ahmad Yassaviy qarashlaridan farq qiladi. U ham Yassaviy singari faqirlikka, kambag'allikka undaydi, lekin xayr-ehson hisobiga emas, balki faqat o'z mehnati evaziga kun kechirish g'oyasini yoqlaydi. "Dil ba yoru, dast ba kor" ya'ni, dil, qalb yor (xudo) bilan, qo'l mehnat bilan band bo'lishi g'oyasini ilgari suradi.

Bahovuddin so'fiylikni targ'ib qilib Arabiston, Eron va O'rta Osiyoning ko'p shaharlarida bo'lgan. Uning nomi ilohiylashtirilib, u haqda turli rivoyat-u afsonalar to'qilgan. Ularga ko'ra, go'yo uning qabrini ziyorat qilgan kishi haj qilganlik savobini olar ekan. Hozirgi kunda ham bu tasavvurning ta'siri saqlangan. Dindorlar uni "balogardon", ya'ni "balolarni daf qiluvchi" deb biladilar. Xalq dostonlarida ham uning obrazi shu tariqa talqin qilinadi.

Shunday nomlardan yana biri *"Ali"* nomi hisoblanadi. Ali tarixda yashagan mashhur kishilardan biri bo'lib, u payg'ambarimizning kuyovi bo'lgani va islom olamida o'ziga xos martabaga ega bo'lganligi haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

[26] Ro'zimbayev S. Oshiqnoma. 1-kitob, Xorazm nashriyoti. 2006. –B. 172.
[27] Nasafiy (E.E.Berezikov).Hazrat Bahovuddin Naqshbandiy.Tarjimon Mahkam Andijoniy –T: Meros,1992. – Б.100.

https://wordlyknowledge.uz

Alining to‘liq ismi Ali ibn Abu Tolib bo‘lib, u haqida xalq orasida juda ko‘plab rivoyatlar va afsonalar to‘qilgan, bu esa o‘z navbatida xalq og‘zaki ijodiga mansub ko‘plab asarlarda o‘z izini qoldirmasdan iloji yo‘q edi. Uning *Hasan* va *Husan* nomli egizak o‘g‘illari – payg‘ambarimizning sevimli nevaralari hisoblanadi[28].

“Oshiqnoma” turkum dostonlaridagi atoqli otlarning qo‘shma tarkibli turlari ichida ko‘pchiligi erkak jinsli kishilarga qo‘yilgan nomlar bo‘lishi bilan birga, ayrim nomlar xotin-qizlar, payg‘ambarlarning rafiqalari, afsonaviy parilar, devlar kabilarga tegishlidir. Masalan, *“Hashtiruh”* nomi “Oshiqnoma” turkumidagi “Hurliqo va Hamro” dostonida uchraydi. Tarkib jihatidan ikki qismdan iborat bo‘lgan bu nom dev nomi sifatida talqin qilinishi quyidagi misoldan ham sezilib turibdi:

*... anda **Hashtiruh** dev bayakbor devning orqasidin havog‘a chiqib, Amud urdi ikki dev urushg‘a mashg‘ul bo‘ldi...*(“Oshiqnoma” 2-kitob, “Hurliqo va Hamro” dostoni, 121-b).

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xorazm dostonlarida uchraydigan sodda va qo‘shma tuzilishga ega bo‘lgan nomlarning tarkibiy jihatlarini tahlil qilish o‘zbek tili va uning onomastika sohasini yanada qiziqarli ma’lumotlar bilan boyitishi mumkin.

[28] Irisov A.Chahoryorlar. Toshkent. Fan.1993-yil. –B. 48.

https://wordlyknowledge.uz

Sanginova I.N.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti.

Denov, O‘zbekiston

MAHALLA BOSHQARUV TIZIMINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA UNING HUQUQIY-TASHKILIY ASOSLARINING YARATILISHI

Anotatsiya.*Mahalla O‘rta Osiyoda qadimdan hududiy-ma’muriy birlik hisoblanadi. Bu yerda har bir yashovchi taqdiri, orzu-umidi, hayotga va odamlarga munosabati qat’iy bir biriga bog’liq bo’lgan. Bir-biri bilan hisoblashib yashagan. Shu bilan birga mahallachilik uzoq an‘analarga va xalqimiz tarixiga, uning boy ma‘naviy-axloqiy udumlariga bog‘liq bo‘lgan ulkan hayot maktabi. Ma‘lumki, jamiyatni demokratlashtirishning yana bir muhim sharti mahalla tizimini huquqiy asoslar bilan shakllantirishdir. Maqolada mahalla boshqaruv tizimining tarixiy shakllanishi va uning qanday qilib huquqiy-tashkiliy asoslarining yaratilganligi va bu soxada yana qanday ishlarning amalaga oshirilishi kerakligi to’g’risida so’z boradi.*

Kalit so’zlar. *Tarix, oila jamiyat, davlat, hududiy birlik, xalq, urf odat, taraqqiyot.*

Sanginova I.N.

Denov Institute of Entrepreneurship

and Pedagogy is a basic doctoral student

Denov, Uzbekistan

HISTORICAL FORMATION OF THE NEIGHBORHOOD MANAGEMENT SYSTEM AND CREATION OF ITS LEGAL AND ORGANIZATIONAL BASIS

Annotation.

Mahalla has long been considered a territorial-administrative unit in Central Asia. The fate, dreams and hopes of every resident here are under strict control. They lived with each other. At the same time, neighborhood is a huge school of life, which depends on long traditions and the history of our nation, its rich spiritual and moral achievements. It is known that another important condition for the democratization of the society is the formation of the neighborhood system with legal foundations The article describes the historical formation of the neighborhood management system, how its legal and organizational foundations were created, and what other work should be done in this area. it's about.

https://wordlyknowledge.uz

Key words. History, family, society, state, territorial unit, nation, tradition, development.

Kirish (Introduction).

Mahalla tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi.Mahalla boshqaruv tizimining tarixiy shakllanishi haqida so'z borganda avvalambor Surxondaryoda joylashgan Sopollitepa qadimiy yodgorligidagi oilalarning bir maqsad sari uyushib yashab,bugungi tuzilma tushunilgan. Albatta ularning faoliyatida urug'chilik munosabatlari ustunlik qilib turgan.Bu davrda jamoalarning manfaatlari birinchi o'ringa qo'yilib, bevosita ularning manfaatlari oqsoqollar Boshqarmai tomonidan himoya qilingan va ular mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda mustaqil bo'lgan. Bu esa o'z navbatida, butun tarix davomida mahalla insonlar bilan birga, ularning yaxshi va yomon kunlarida hamnafas bo'lib, muhtojlar, zaiflarga yordam qo'lini cho'zib kelish vakolatlariga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Ularni faqat urug' jamoasigina emas, balki ishlab chiqarish manfaatlari ham birlashtirib turgan. Keyinchalik ularning safiga patriarxal tizim asosida 100 dan ortiq oilalar kelib qo'shilgan. Katta oilalar jamoasini ular orasidan saylangan oqsoqol boshqargan. Oqsoqollar o'z navbatida oliy oqsoqollar kengashiga birlashgan. Oqsoqollar, odatda, jamoa — qishloq hayoti bilan bog'liq barcha masalalarni oliy kengash orqali hal qilishgan. Miloddan avvalgi 3-asrdan milodiy 5-asrning boshlarigacha Farg'ona (Parkana) davlatida ham oqsoqollar kengashi muhim vazifalarni hal etgan. Kengash, asosan, sulh tuzish, vazirlar tarkibi va soliqlarni tayinlash, urush e'lon qilish, jamoa ishlariga safarbar etish kabi masalalar bilan shug'ullangan.Mahalla mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlarda atalib kelingan. Adabiyotlarda Mahallarning tashkil topishi ularlarning ko'p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Buxoroda bundan 1100-yil ilgari bir qancha mahallalar bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining „Hayrat ul-abror" asarida mahallani „mahalla shahar

https://wordlyknowledge.uz

ichidagi shaharcha“dir deb ta’riflaydi, Hirot shahri yuz shaharcha ahamiyatiga ega bo‘lgan mahallalardan tashkil topganini aytib o‘tadi. Boshqaruv tizimiga ko‘ra, jamoa tomonidan oqsoqol ayni paytda, o‘z oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq bo‘lgan. Urug‘-qishloq oqsoqoli esa, Oqsoqollar Boshqarmaining boshlig‘i bo‘lishi bilan bir qatorda butun qishloq aholisining ham boshlig‘i hisoblangan va o‘z navbatida, Oqsoqollar Boshqarmasining boshlig‘i qishloqda istiqomat qiladigan jamoaning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator vakolatlarni amalga oshirgan. Boshqacha aytganda, bu davrda davlatning shakllanishida mahalla hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilgan.Bundan tashqari, miloddan avvalgi III asrdan to milodiy V asr boshlarigacha qadimgi Parkana (Fag‘ona) davlatida ham jamoalar hayoti bilan bog‘liq masalalar ham oqsoqollar Boshqarmasi orqali hal etilgan.

Mahallalar, ayniqsa, Amir Temur davrida ravnaq topgan. Bu davrda mahallalar fuqarolarning kasbkori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Ta'kidlash kerakki, O‘zbekiston hududida X asrdayoq «**mahalla**» atamasi savdo-hunarmandchilik kasblarini belgilovchi atama sifatida uchraydi. Bu davrlarda mahalla uch asosiy yo‘nalishda o‘z vakolatiga ega bo‘lgan. Xususan, shahar hududini orasta saqlash, tegishli hududda istiqomat qiluvchi aholi joyi hamda mahalliy aholining turmush tarzini to‘g‘ri tashkil etilishini ta'minlash, davlat va mahalliy tadbirlarni o‘tkazishda ularga rahbarlik qilish borasidagi vakolatlarni amalga oshirgan.20-asrning boshlaridayoq Mahallalar daha boshliqlari — mingboshilar saylaydigan yuzboshi (oqsoqollar) tomonidan boshqarilgan. Yuzboshi va uning yordamchilari Mahalladagi barcha jamoat ishlari va marosimlarni boshqargan. Shuningdek, fuqarolarning shahar yig‘inlari va shahar muassasalarida mahallaning manfaatlarini himoya qilgan.Mahalla jamiyatning tuzilmasi sifatida tarixan bir qancha rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. U 20-asrning 1-choragida o‘zining an’anaviy shaklini oldi.

Sovet hukumati mahallalarga o‘z umrini yashab bo‘lgan o‘tmish sarqiti sifatida qaradi. Shundan kelib chiqib, u an’anaviy milliy boshqaruvlarni bekor qilish yo‘li

https://wordlyknowledge.uz

bilan bu yerda sanoatlashgan jamiyatni qaror toptirish siyosatini joriy etishga kirishdi. 20-yillar boshlaridan sovet hukumati mahallalar vazifasini cheklash, o‘ziga bo‘ysundirishga intildi. Biroq mahallalar o‘zining yashovchanligini namoyon etib, an’anaviy xayot va aloqa tarziga qarshi har qanday hujumlarga va ularni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlarga dosh berdi. U ilgarigi hayot tarzi, urf-odat va rasm rusumlarni saqlab qoldi.1932-yil 17-aprelda O‘zbekistonda birinchi marotaba shaharlardagi „Mahalla qo‘mitalari to‘g‘risida“ Nizom qabul qilindi. 1935—1936 yillarda mahallalarda oqsoqol boshchiligida Mahalla qo‘mitalari tashkil etilib, aholi o‘rtasida olib boriladigan barcha ishlarni rais boshqargan.

1961-yil avgustda O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan chiqarilgan „Respublika shahar, qishloq, posyolkalaridagi va ovullaridagi mahalla qo‘mitalari to‘g‘risida“gi Nizomda ham mahallaga yuridik shaxs maqomi berilmagan edi. Mahalla qo‘mitalari biron-bir moliyaviy xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas, ular oldi sotdi, ijaraga berish ishlarini bajarishda qatnashishlari mumkin bo'lmagan. Mahallaning huquq va vakolatlari cheklangan edi.

Natijalar va ularning muhokamasi (Results and its discussion).

Bu davrda **mahalla**, (mahallat, yer, daha, jamoa, el, yurt kabi) bir qancha nomlar bilan yuritilgan hamda shahar jamiyatining nafaqat hududiy, shu bilan birga, eng quyi birligi hisoblanib, o‘z vakolatlarini amalga oshirishda odamlarning avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan o‘zlarining qon-qarindoshlik va ruhiy yaqinlik haqidagi tasavvurlariga tayangan.Har bir dahaning o‘z oqsoqollari, qozilari va ma'muriy boshqaruvidagi boshqa alohida mansablari bo‘lgan. Dahalar Qo‘qon xonligi davrida shaharning obro‘li xonadon vakillaridan tayinlangan oqsoqollar tomonidan boshqarilgan bo‘lsa, Rossiya imperiyasi istilosidan so‘ng mingboshilar tomonidan idora qilingan. Ayrim hollarda esa bir necha mahallalarga tavochilar biriktirilgan. Dahalar tarkibidagi mahallalar boshqaruvi esa ellikboshilar qo‘lida bo‘lgan.

https://wordlyknowledge.uz

Mahallaga boshchilik qilgan shaxslar mahalladagi barcha jamoat ishlari va marosimlarini boshqarganlar, shuningdek, fuqarolarning shahar yig‘inlari va muassasalarida mahalla manfaatlarini himoya qilish vakolatiga ega bo‘lganlar. Mahallaning jamoa tartibi o‘zini o‘zi boshqarish tizimi bilan belgilangan, uni boshqaruvchi vakillar umumiy yig‘inlarda saylanganlar. Jamoa boshlig‘i qilib, ko‘pincha boy bo‘lmagan, o‘rta hol, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan hurmatli kishini saylaganlar. U fuqarolar o‘rtasida hurmat e'tiborga ega bo‘lishi va shahar yig‘inida, daha sudida mahalla manfaatlarini munosib himoya qila olishi lozim bo‘lgan.Shuningdek, bu davrda ayollarning ijtimoiy hayotiga oqsoqollar tomonidan saylab qo‘yilgan kayvoni rahbarlik qilgan. Kayvoni lavozimiga mahallada katta hurmat qozongan va o‘zbek turmush tarzini, urf-odat va an'analarini butun nozikligi bilan biladigan, serg‘ayrat, faol, tashkilotchilik qobiliyatiga ega, odob-ahloqi bilan obro‘-e'tibor qozongan ayol loyiq ko‘rilgan. Unga xodima yoki dasturxonchi ko‘maklashgan. Bu vazifaga ko‘pincha beva xotinlarni saylaganlar, chunki ularning bo‘sh vaqti ko‘p bo‘lgan hamda bu ish ularga qo‘shimcha daromad keltirgan.

Mahallalar 1917 yilgacha bo‘lgan davrda juda keng ish olib borib, mahalliy aholini birlashtiruvchi tashkiliy tuzilma bo‘lgan. Sobiq sho‘rolar hokimiyati mahallalarni tuman, shahar, qishloq Boshqarmalari rahbarligida boshqargan. Lekin u davrda mahallalar boshqaruv tizimi sifatida «chalajon» holatga keltirib qo‘yilgan. Ular xalqning dastlabki jamoat tashkiloti sifatida faoliyat ko‘rsatishi uchun hech qanday huquq, vakolat, imkoniyatga ega bo‘lmagan hamda mahalliy hokimiyat organlarining quyi bo‘g‘ini sifatida qaralgan. Ammo shunga qaramay, sho‘rolar davrida hukmron tuzum va mafkura mahallalarni rasman tan olmasa-da, biroq aholining chuqur noroziligiga sabab bo‘lmaslik uchun mahallalarni taqiqlay ham olmagan, uni jamiyatni boshqarish tizimiga kiritmagan.

Bir so‘z bilan aytganda, sovet hukumati mahallaga o‘z umrini yashab bo‘lgan o‘tmish sarqiti sifatida qaragan. 20-yillar boshlaridan sovet hukumating uni vazifa va vakolatlarini cheklash, o‘ziga bo‘ysundirishga intildi. Bu esa o‘z navbatida

https://wordlyknowledge.uz

mahalla faoliyatiga o‘z ta'sirini o‘tkazdi. Biroq, mahalla o‘zining yashovchanligini namoyon etib, an'anaviy hayot va aloqa tarziga qarshi har qanday hujumlarga va ularni yo‘qotish yo‘lidagi urinishlarga dosh berdi.

1935-1936 yillarda mahallalar (oqsoqol) boshchiligida mahalla komitetlari tashkil etilib, aholi o‘rtasida olib boriladigan barcha ishlarni rais boshqargan. Rasmiy doiralar mahalla idoralariga aholini hisobga olish va ma'lumotnomalar berish 1941 yilda O‘zbekiston SSR xalq komissarlari soveti «O‘zbekiston SSR shaharlaridagi mahalla (kvartal) qo‘mitalari to‘g‘risida»gi nizomning yangi tahririni qabul qildi. Unga binoan, mahalla komitetlari a'zolari mehnatlariga hech qanday haq olmas edi. Mahalla komitetlari moliyaviy-xo‘jalik ishlari (oshxonalar, qizil choyxona, sartaroshxonalar ochish va ularni ishlatish) bilan shug‘ullanishi mumkin emas edi, ular yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan. Uning asosiy vakolatlari mahalla hududidagi sovet, partiya va jamoat tashkilotlariga madaniy-ommaviy ishlarda yordam berish, ko‘chalar, maydonlar, hovlilarni obodonlashtirish hamda tabiiy jihatdan ularni nazorat qilishdan iborat bo‘lgan.1953 yil 3 aprelda O‘zbekiston SSR Ministrlar Boshqarmasining «O‘zbekiston SSR shaharlaridagi mahalla (kvartal) qo‘mitalari to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilinib, unda mahallalarning soliq yig‘ishdagi amaliy vazifasi o‘z dolzarbligini yo‘qotdi. Asosiy e'tibor esa, g‘oyaviy va tashviqot hamda targ‘ibot ishlariga qaratildi. Shu bilan birga, mahallalarga mustaqil birlashma deb emas, balki sovet organlari qarorlarining tarqatuvchilari va yordamchilari sifatida qaraldi. Mahalla komitetlarining faoliyati sotsialistik shiorlar ostida olib borildi.

Boshqacha aytganda, sobiq Ittifoq mafkurasi mahallalarni rasman tan olmadi, ularni jamiyatni boshqarish tizimiga kiritmadi. Mahallalar faoliyati milliy qadriyatlarni e'zozlash va targ‘ib qilishga emas, balki faqat sobiq mustabid tuzum g‘oyalariga qaratildi, uning tuzilishi ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga xos belgilar bilan shakllantirildi. Ma'naviyat, ta'lim-tarbiya sohasida mahallaning ahamiyati yo‘qqa chiqarilgan, yuridik shaxs huquqlaridan foydalanish man etilgan edi.

https://wordlyknowledge.uz

Yuqoridagi Qaror bo‘yicha mahallalar faqatgina fuqarolarga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan uylar ko‘pchilikni tashkil qiladigan ko‘cha va mavzelardagi hududlarda tashkil etilishi belgilandi. Bu davlat mulki bo‘lgan uy-joylar hududida mahalla qo‘mitalari tashkil etilmasligini anglatar edi. Qarorga ko‘ra, mahalla qo‘mitalari aholining jamoatchilik asosidagi o‘zini o‘zi tashkil etish bo‘yicha tashkiloti bo‘lib, hech qanday ma'muriy vakolatlarga ega bo‘lmagan. Ular buyruq va farmoyishlar chiqara olmaganlar, jarima yoki to‘lovlar undirishlari mumkin bo‘lmagan, guvohnoma, ma'lumotnoma va boshqa rasmiy hujjatlar ham bera olmagan, shuningdek, o‘z muhriga ega bo‘lishi ham mumkin bo‘lmagan.

Guvohi bo‘lganimizdek, ushbu davrda chiqarilgan barcha huquqiy hujjatlarda mahallalarning huquqlari va vakolatlari qat'iy cheklangan bo‘lib, yuqorida ta'kidlaganimizdek ularga yuridik shaxs maqomi berilmagan edi. Shu bilan birga 1958 yil 30 iyulda O‘zbekiston SSR Ministrlar Boshqarmasi «Mahalla (kvartal) qo‘mitalariga o‘z muhriga ega bo‘lish huquqini taqdim etish to‘g‘risida»gi Qaror qabul qilib, unda ushbu tuzilmalarga tegishli mahalla (kvartal) qo‘mita nomi tushurilgan uchburchak shakldagi muhrga ega bo‘lish vakolatini berdi.Ushbu Qaror asosida «O‘zbekiston SSR shaharlaridagi mahalla (kvartal) qo‘mitalari to‘g‘risida»gi Nizomning bandiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, mahalla (kvartal) qo‘mitalariga ko‘p bolali oilalar va yolg‘iz onalarga davlat nafaqasini olish uchun bolalar soni to‘g‘risida turar-joydan ma'lumotnomani, ish joyiga taqdim etish uchun qaramog‘idagi boqiluvchilar soni to‘g‘risidagi ma'lumotnomani, propiska uchun kelish va ketish varaqasini, pasportni olish va almashti-rishni muhr bilan tasdiqlash vakolati berildi.

Shunday bo‘lsada, ushbu davrda mahalla vakolatlari faqatgina mahalliy ahamiyatdagi masalalar yuzasidan rasmiy ma'lumotlarni tasdiqlashdan iborat bo‘lgan, xolos. Ular mustaqil moliyaviy-xo‘jalik yoki tashkiliy-boshqaruv vakolatlariga ega bo‘lmagan. Masalan, 1961 yil 30 avgustda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan qabul qilingan «O‘zbekiston SSR shahar, posyolka, qishloq va ovullaridagi mahalla qo‘mitalari to‘g‘risida»gi Nizomga ko‘ra ham

https://wordlyknowledge.uz

mahalla komitetlari biron moliyaviy xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanishlari (oshxonalar, sartaroshxonalar va shu kabilarni tashkil qilishlari va ulardan foydalanishlari) mumkin emas edi.Shuningdek, ular oldi-sotdi, ijaraga berish ishlarini amalga oshirishda qatnashishlari mumkin emas, degan norma mustahkamlanganligi ham mahallalarning huquq va vakolatlarini sezilarli darajada cheklar edi, ularning huquqlarini kengaytirish o‘rniga kun tartibiga ularni cheklash haqidagi masalalar doimiy ravishda qo‘yilib kelar edi.

Xulosa.

Xulosa o’rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqimizning milliy tabiati, azaliy an'analari va qadriyatlariga asoslangan mahalla o‘zining uzoq tarixida hech qachon O‘zbekiston davlat mustaqilligi davridagidek alohida e'tiborga sazovor bo‘lgan emas. Davlat mustaqilligi sharofati bilan O‘zbekistonda mahallalarga e'tibor berish, ularning ta'lim-tarbiyaviy huquqiy maqomini oshirish, o‘zini o‘zi boshqarish, beva-bechoralar, nogironlarning biron bir sababga ko‘ra omadi yurishmagan oilalar va odamlarning issiq-sovug‘idan, g‘am-tashvishlaridan xabardor bo‘lib, moddiy va ma'naviy yordam ko‘rsatish singari masalalar bo‘yicha, shuningdek yanada obod va go‘zal, ko‘rkam va chiroyli bo‘lishi, el-ulus mehr-muhabbatini qozonishida yangi davr boshlandi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mahallalarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1992 yilda qabul qilingan konstitutsiyasining 105-moddasiga va 1993-yil sentabrda qabul qilingan „Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida“gi qonunga binoan, mahalalar o‘z huquqiy maqomiga ega bo‘lib, mahalliy hokimiyat tarkibiga kirgan. Mahallalar davlatning joylardagi muhim tayanchi, yuridik shaxs sifatida o‘z mol-mulkiga, moliyaviy byudjetiga, bankdagi hisob kitob raqamiga — jamg‘armasiga ega bo’lganligi mustaqillik tufayli mahallalar ancha rivojlanganligining isbotidir

Adabiyotlar ro‘yxati; References:

1. Egamberdiyev Azim Bo’riboyevich. O’zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishda mahalla institutining o’rni. 2014 yil.

https://wordlyknowledge.uz

2. Ishquvatov V.Tolipov F . Mahalla: O’tmish va bugun . T.,2014.

3. Jalilov SH .Mahalla yangilanish davrida .T.,1995

4. Jalilov SH. Kuchli davlatda- kuchli jamiyat sari .T., 1995 .

5. Sultonova.L.S Qalandarova.F.A.Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish institutlarini demokratlashuvi. Buxoro 2021 yil

6.Sanginova .I.N. O’zbekistonda mahalla boshqaruvining ijtimoiy iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi o’rnini (Surxondaryo viloyati misolida 1992-2022yy) o’rganishning dolzarbligi. Denov 2023 yil 19 sentyabr.

7.I.N.SANGINOVA.WIDE OPPORTUNITES FOR BUSSINES AND ENTREPRENEURSHIP IN NEIGHBORHOODS AND THEIR RESULTS. JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HUMANITIES RESEARCH FUNDAMENTALES.

8. B.Jo‘rayev.S.Tursunov. Mahalla-Mustaqil yurt tayanchi.Toshkent 2012 yil.

9. https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/11547

WORDLY KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz

Sanginova I.N.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

Denov, O‘zbekiston

MUSTAQILLIK YILLARIDA MAHALLALARDAGI IJTIMOIY IQTISODIY TURMUSHNING BARQARORLSHUVI

Anotatsiya*.O’zbekiston mustaqillikning ilk kunlaridanoq islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy buhronlarning oldini olib, islohotlar samaradorligini ta’minlashga kirishdi.Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hududlardagi muhim masalalarni hal etishga kirishdi.[1]Mahalliy boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borilishining o’zi Mahallalarda tom ma’nodagi demokratik qadriyatlar rivojlanishi,iqtisodiy ijtimoiy turmushning yaxshilanishiga zamin bo’la oladi.Maqolada O’zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy iqtisodiy turmushida ro’y bergan o’zgarishlar haqida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoy hayot, qishloq xo’jaligi, demokratik qadryatlar, ”Yagona ijtimoiy reystr” islohot, barqaror iqtisodiyot.*

Sanginova I.N.

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

is a basic doctoral student.

Denov, Uzbekistan

SUSTAINABILITY OF SOCIO-ECONOMIC LIFE IN NEIGHBORHOODS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation. From the first days of independence, Uzbekistan started to ensure the effectiveness of reforms by preventing economic and social crises that may arise in the gradual implementation of reforms. Self-government bodies of citizens began to solve important issues in the regions. Public control over the activities of local government bodies can be the basis for the development of democratic values in the literal sense of the neighborhood and the improvement of economic and social life. The article analyzes the changes that took place in the social and economic life of Uzbekistan during the years of independence. .

Kirish (Introduction).

Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, mamlakatimiz yangilanish davriga qadam qo‘ygan birinchi kunlardan boshlab ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat

https://wordlyknowledge.uz

yuritish, dunyodagi barcha taraqqiyparvar mamlakatlar, ayniqsa, qo‘shni davlatlar bilan yaqin do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratib,fuqarolarning ijtimoiy iqtisodiy hayotini farovonlashtirishga harakat qilib kelmoqdamiz.[2]Mustaqillik yillarida respublikaning aholi harid qobiliyati bo’yicha 3,4marta 27,1milliard 92.3 Aqsh dollariga sanoat mahsulot hajmi 3 martaga oshdi.2004 yildan buyon Respublikadagi mahallalardagi iqtisodiyot yiliga 7-9 foizga darajasidagi yuqori va barqaror iqtisodiy o’sish suratda namoyon etmoqda.Mustaqillik yillarida yalpi ichki mahsulot sanoatning hissasi 17,6 foizgacha xizmatlar ulushi 33,6 foizdan 49 foizgacha o’sdi.Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning barchasi mahallalardagi aholining ijtimoiy hayot farovonli uchun xizmat qiladi.[3]

Material va tadqiqot usullari (Materials and methods).

Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy muammoga sivilizatsion yondashuv asosida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, ob’ektivlik, tizimli tahlil, manbaviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik, og‘zaki so‘rov kabi usullar yordamida mustaqillik yillarida aholini ijtimoiy va iqtisodiy turmushining farovonlashtirishga oid qilingan ishlar masalasi birlamchi hujjatlar tahliliga tayangan xolda atroflicha tadqiq etildi.

Natijalar va ularning muhokamasi (Results and its discussion).

Mustaqillik yillarida mahallalardagi Iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishni ilmiy o’rganishda Surxandaryo viloyatining Angor tumani misolida ko’rib chiqish maqsadga muvofiq bo’ladi.[3] Tuman qishloq xo'jaligining bir necha sohalariga ixtisoslashgan. Tumanning iqtisodiy ko’rsatgichi 1992-yilda 100 mlrd so’mlik qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo’lsa, 2020 yilda 1105,7 mlrd.so'mlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu borada viloyat yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 5,5% ini tashkil etdi. Tuman yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotida qishloq xo'jaligining ulushi yuqori bo'lib,57,4% ni tashkil etadi.2020 yilda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 70,2% dehqon (shaxsiy yordamchi xo'jaliklar), 18,6% qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, 11,2%

https://wordlyknowledge.uz

xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqarildi. So'nggi yillarda tumanda transport va xizmat ko'rsatish ham rivojlangan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida tuman markazidan o'tgan Termiz-Toshkent avtomobil yo'lining aylanma yo'lini qurish va ishga tushirish hamda ichki yo'llarni ta'mirlash tumanda transportning geografik o'rnini yaxshilashga olib keldi. Muxtasar qilib aytganda, tumanda joylashgan mahallalarda ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirish va rivojlantirishda quyidagi masalalarni hal etish maqsadga muvofiqdir. Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning iqtisodiy va intellektual salohiyatidan samarali foydalanish talab etiladi. Yana bir misol tariqasida Surxondaryo viloyatining Sherobot tumanida ham mustaqillik yillarida mahallalardagi aholining turmush tarzini ijtimoiy iqtisodiy hayotini farovonlashtirish maqsadida ko’pgina ishlar amalga oshirilgan.N.Murodov nomli davlat xo’jaligidagi Bo’ston Yangiobod,Paxtazor,Guliston Botoshobod,va Girshak qishlog’laridagi barcha mahallalarni gazlashtirishga umumiy uzunligi 25,5 km gaz tarmoqlarini hamda mahallalarning ichki yo’llarida o’rta bosimli umumiy uzunligi 21,2 km gaz tarmog’i loyihalashtirilgan va hamda hayotga joriy etilgan.[4]Bundan tashqari 1992-1993 yillarda tumandagi har bir mahallaning fuqarolarini ijtimoiy,iqtisodiy,huquqiy yashash holatini yaxshilash maqsadida tuman xokimi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi.

- Mahalla fuqarolarini yaxshi yashashi uchun ijtimoiy hayoti himoya qilindi.
- Tumandagi xo’jalik tashkilotlariga bozor iqtisodyotiga o’tish munosabati bilan aholini oziq ovqat va sanoat mahsulotlari bilan ta’minlandi.
- Davlat bahosi bilan aholiga sotiladigan mollar sonini ko’rib chiqib ularning sonini kopaytirishga harakat qilindi.
- Mehnatkash aholini ish bilan ta’minlandi.
- Mahalladagi ishsiz bo’lgan fuqarolar o’rganilib chiqilib,ishsizlar sonini kamaytirish maqsadida fuqarolar ish bilan ta’minlandi.

https://wordlyknowledge.uz

Tadbikorlarga ishlab chiqarish sanoat korxonalarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratib berildi.[5]

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki mamlakatimizda ehtiyojmandlarga ijtimoiy yordam ko'rsatishning keng qamrovli mexanizmi yo'lga qo'yilishi mustaqillikning ilk kunlaridan boshlangan bo'lsada,hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.[6]Mamlakatda ishlab chiqilayotgan har bir qilinayotgan ishlar insonga va yana insonga xizmat qilishi ham bejizga emas. Prezident farmoniga muvofiq, ijtimoiy yordamning barcha turlarini bir xil mezon va bir xil hujjatga muvofiq taqdim etish imkonini beradigan "Yagona ijtimoiy reystr" yaratilmoqda. tizim barcha hududlarda bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu tizim orqali ma'lumotlarni tizimlashtirish har bir ijtimoiy yordam oluvchining ehtiyoj darajasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. U oila a'zolarining daromadlari, mol-mulki, bank hisoblari, olingan kreditlar va avtomobillar to'g'risidagi turli idoralarning tegishli bazalarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida aniqlanadi.Istiqbolda "Yagona ijtimoiy reyestr" dasturining to'liq ishga tushirilishi inson omilini sezilarli darajada minimallashtiradi va natijada ijtimoiy yordamni taqsimlashdagi korrupsiya holatlarini imkon qadar bartaraf etadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, aholining eng kambag'al qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash siyosati ehtiyojmand oilalarga beriladigan yordam pullari bilan cheklanib qolmasdan maqsad — aholining iqtisodiy farovonligi darajasini oshirish uchun sharoit yaratishdir.[7] Odatda kambag'allikka tushib qolishdan ko'ra, undan chiqish anchayin mushkul hisoblanadi. Shu bois davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash odamlarni bosqichma bosqich kambag'allikdan chiqarish hisoblanadi — boshqacha aytganda, odamlarni ana shu holatda tutib turishdan ko'ra, kambag'allar toifasidan chiqarish vositasi sifatida ko'proq o'zini ko'rsatishi uchun tegishli sharoitlarni yaratish davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor vazifasi etib belgilangan.

https://wordlyknowledge.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Anvarov Alisherjon Adxamjon o’g’li “Mahalla tizimida ijtimoiy faoliyatni tashkil etish” Farg’ona 2018 yil.

2.Axrorova Sevara Axmedovna.”Mahalla boshqaruvida xotin qizlarning ishtiroki”.

3Sanginova .I.N “Mahalladagi yoshlarda milliy ta’lim tarbiyani shakllantirishda jadidlar g’oyalarining ahamiyati” surxondaryo 2024 yil.

4.Surxondaryo viloyat davlat arxivining Sherobod tuman bo’limi.

Fond № M 325. Ro’yxat № 1.saqlash № 5.

5.Surxondaryo viloyat davlat arxivining Sherobod tuman bo’limi.

Fond № M 325. Ro’yxat № 1.saqlash № 4.

6.Turmanov Sag’indiq Turg’anbayevich. “O’zbekistonda mahalliy institutlar rivojlanishining milliy xususyatlari”. 2020 yil.

7.Sherniyzova.G.U “O’zbekistonda mahalliy boshqaruv va fuqarolarning o’zini o’zi boshqaruv institutlarini demokratlashtirish”. 2020 yil

WORDLY KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz

Saydaliyeva Sh.I

FarDU magistranti

QADRIYATLAR TO‘G‘RISIDAGI ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA KONSEPTSIYALARNING TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada qadriyatlar to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy yondashuvlar va konseptsiyalarning tahliliga oid ma’lumotlar o‘rganilgan. Bunda antik davrdan boshlab qadriyat tushunchasining Yevropa falsafasida Suqrot, Demokrit, Aflotun singari yunon olimlari bildirgan fikr-mulohazalari asos qilib olingan.

Kalit so‘zlar: ilmiy-nazariy yondashuv, konseptsiya, qadriyat, umuminsoniy qadriyat, milliy qadriyat, shaxs qadriyati, jamiyat, sharq falsafasi.

Saidalieva Sh.I

Master of FarDU

ANALYSIS OF SCIENTIFIC-THEORETICAL APPROACHES AND CONCEPTS ABOUT VALUES

Annotation

In this article, information on the analysis of scientific-theoretical approaches and concepts of values is studied. It is based on the opinions expressed by Greek scientists such as Socrates, Democritus, and Plato in the European philosophy of the concept of value since ancient times.

Ключевые слова: научно-теоретический подход, понятие, ценность, общечеловеческая ценность, национальная ценность, индивидуальная ценность, общество, восточная философия.

Keywords: scientific-theoretical approach, concept, value, universal value, national value, individual value, society, eastern philosophy.

Qadriyat deganda inson, uning hayoti, faoliyati, ongli mavjudot sifatida yashashi uchun zarur narsalar, voqea va hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan keng qamrovli hodisa tushuniladi. Shu bois tadqiqot obyekti sifatida “qadriyat” mavzusi ko‘lami keng mavzulardan sanaladi. Insoniyat tarixining ilk davrlaridayoq odamlar narsalarning muayyan qimmatga ega ekanligini, insonning u yoki bu ehtiyojlarini qondira olishini, biron sohada foydali bo‘lishi

https://wordlyknowledge.uz

mumkinligini kashf etganlar. Shu bilan narsalarning qadriyaviy xususiyati ochilgan.

Dastlabki paytlarda bu xususiyat buyumlarning amaliy foydasi bilan bog‘lanar edi. Keyinchalik qadriyat maqomi boshqa ijtimoiy institutlar va ma’naviy hodisalarda ham tan olina boshlanadi. Inson o‘z faoliyatini yo‘naltirishi lozim bo‘lgan ne’matlar va qadriyatlar muammosi ***qadimgi Sharq falsafasi*** va falsafaga qadar bo‘lgan fikr tarixida muhim o‘rin tutadi.

Markaziy Osiyo azal-azaldan ilm-fan va madaniyatning adabiyot va san’atning markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu o‘lkada yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar jahon ilm-fani va madaniytini o‘z kashfiyotlari va o‘lmas asarlari bilan ijodiy boyitib, yuqori cho‘qqiga ko‘tardilar, uning keying taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatdilar.

Axloqiy qadriyatlar kishilarning bir-birlariga, o‘zlari mansub jamoaga, vatanga nisbatan tarixan tarkib topgan munosabatlarini ifodalaydi. Axloq muayyan xulq-atvor, odob, xatti-harakat, me’yor, qoidalar majmuasidir. Axloqiy tushunchalarga yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha’n (or-nomus), baxt, adolat, ideal kabilar kiradi. Insonning oila, jamiyat, xalq manfaatlarini anglab qilayotganhar qanday xatti-harakati yaxshilik kategoriyasi nuqtai nazaridan baholanadi. Burch – kishining Vatan, xalq, jamoa, oila bilan o‘zaro munosabatlarida o‘z oldidagi majburiyat va mas’uliyatni sezishi, ularga nisbatan sadoqatini ifodalaydi. Vijdon – kishining xatti-harakatiga o‘zining munosabatini, kishining o‘z xulq-odobi uchun ma’naviy mas’uliyat hissini ifodalaydi. Sha’n – tushunchasi shaxsga jamiyat beradigan ijtimoiy bahoni belgilovchi va shaxsiy qadr-qimmatini ifoda qiluvchi kategoriyadir. Baxt tushunchasi insonning ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi o‘z faoliyati, ro‘yobga chiqqan orzu-istak va maqsadlaridan mamnunligini bildiradi. Axloq kategoriyalari insonning yurish-turishiga baho beradi, uni jamiyatda mavjud, ko‘pchilik ma’qulllagan xatti harakatga chorlaydi.

Sharq falsafasi va islom ta’limotida axloq-odob, ta’lim-tarbiya masalalariga doimo katta e’tibor berib kelingan. Inson axloqi shunchaki salom-alik,

https://wordlyknowledge.uz

xushmuomaladangina iborat emas. Axloq – bu avvalo insof va adolat tuyg‘usi, imon, halollik degani.

Jamiyat taraqqiyotida, inson hayotida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar alohida o‘rin tutadi. Erkinlik, tenglik, birodarlik insoniyat tomonidan hamisha e’zozlab, qadrlanib kelingan. Insonning erkinligi, uning shon-shuhrati va qadr-qimmati jamiyatimizning oliy qadriyatidir. Boshqa xalqlar, millatlarga nisbatan do‘stlik, birodarlik munosabatida bo‘lishi – bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas failatidir. Xalqimiz hech qachon o‘zini boshqa xalqdan ustun qo‘ymagan. Boshqa millatlarga, boshqa mazxab vakillariga munosib darajada ehtirom ko‘rsatgan. Jahonda katta va kichik millatlar va elatlar yo‘q. Ularning har biri asriy barqaror va tengi yo‘q an’analari bilan, tarixiy merosining boyligi bilan, milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o‘ziga xos madaniy ma’naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas’ul bo‘lishdan ham iboratdir.

Qadriyat muammosiga antik davrdayoq shakllangan yondashuvlar o‘z ko‘rinishlarini muayyan darajada o‘zgartirgan holda keying falsafiy tizimlarda ham saqlab keldilar. Aksiologiya muammosini ishlab chiqishga I.Kant, G.Lotse, G.Rikkert, N.Gartman, F.Nitsshe va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shdilar.

XIX asr o‘rtasiga qadar falsafada “borliq” va “qadriyat” tushunchalari bir-biridan ajratilmagan edi. Aksiologiya (yunoncha axia – qadriyat va logos ta’limot so‘zlaridan) mustaqil fan sifatida borliq tushunchasi ikki komponentga ajralgan paytda yuzaga keladi: bir narsaning mavjud bo‘lishi va uning mohiyati. Boshqacha qilib aytganda, obyekt va subyektning o‘zaro ta’siri paytda subyekt uchun obyektda shunday bir narsa ayon bo‘ladiki, uni obyektning mavjud bo‘lishining o‘zigagina bog‘lab bo‘lmaydi, ya’ni u go‘yo ushbu mavjudlik chegarasidan tashqarida turadi va u uchun muayyan ahamiyatga ega bo‘ladi. Obyekt va subyektning o‘zaro ta’sirini ana shunday tushunish qadriyat

https://wordlyknowledge.uz

tushunchasini hozirgi zamon falsafasining kategorial apparatining elementi sifatida shakllanishi uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, fan nuqtayi nazaridan falsafa tarixida “qadriyat” alohida falsafiy kategoriya sifatida o‘rganilib kelinadi. Dastlab, antik davrdan boshlab qadriyat tushunchasining Yevropa falsafasida Suqrot, Demokrit, Aflotun singari yunon olimlari bildirgan mulohazalari haqida dissertatsiyaning birinchi faslida aytib o‘tdik. Falsafaga oid darslik va qo‘llanmalarda qadriyatlar turli tiplarga ajratib ko‘rsatiladi. Kelib chiqishi hamda mohiyatiga qarab qadriyatlar o‘z ichida bir necha turlarga bo‘linadi. Nima va nimaga asosan baholanishiga ko‘ra **predmetli qadriyatlar, subyektli qadriyatlarga** ajratiladi.

“**Predmetli qadriyatlar –** qadr-qimmat munosabatlarining obyektlari, ya’ni voqelikdagi subyekt uchun muayyan qimmatga ega bo‘lgan hodisalar. Ularga quyidagilar kiradi:

- tabiiy obyektlar, jarayonlar va hodisalar;
- ijtimoiy obyektlar, jarayonlar va hodisalar”[29].

Shuningdek, “**subyektli qadriyatlar –** u yoki bu hodisalarni baholash tadbirini o‘tkazishda asos bo‘lib xizmat qiluvchi usullar va mezonlar. Ularga quyidagilar kiradi: me’yoriy taqdimnomalar sifatida bayon etilgan ko‘rsatmalar, baholar, imperativlar, maqsadlar, loyihalar”[30].

Qadriyatlar ijtimoiy holatiga qarab **axloqiy, badiiy, utilitar, ilmiy, diniy** kabi turlarga ajratiladi. Umumiylik darajasiga ko‘ra esa, qadriyatlar **individual, guruhiy, umuminsoniy** singari turlarga ega. Shulardan “**guruhiy qadriyatlar**(milliy, diniy, jinsiy, yosh); ushbu guruhlar doirasida G‘arb Sharq qadriyat tizimlari haqida so‘z yuritish mumkin”[31].

[29]Ahmedova M.A. Falsafa. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. B. 435
[30] Ahmedova M.A. Falsafa. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. B. 435
[31] O‘sha manba.

https://wordlyknowledge.uz

Subyektlarning maqsadlari va tamoyillari qay darajada xususiyligiga qarab **tashqi** va **ichki** qadriyatlarga bo‘linadi. Inson hayoti va faoliyatida qadrlilik darajasiga ko‘ra ham farqlanadi:

- “**mutlaq** yoki **boqiy** qadriyatlar (konstantalar);

vaziyatli, o‘tkinchi yoki qadriyatlar va qadriyaviy mezonlarining muayyan tarixiy shakllari (empirik o‘zgaruvchan qadriyatlar)”[32].

Qadriyatlar bajaradigan vazifasiga hamda ijtimoiy tartibni yaratish va saqlashda ham farqlanadi. Jamiyatning u yoki bu dolzarb masalalariga oid qadriyatlar ham yil sayin inson va jamiyat bilan birga rivojlanib, o‘zgarib boradi. “Bugungi kunda shu narsa ayon bo‘lyaptiki, biron bir sohaga aksiologik yondashuvlardan tashqarida ko‘rib chiqilishi mumkin emas”[33]. Qadriyatlarni baholashda uni o‘rganishda lokal va global masalalarga birdek aloqador bo‘ladi. “O‘z navbatida qadriyatlarning o‘ziga, munosabat va qadriyaviy ongga **gnoseologik, sotsiologik, psixologik, semiotik** va boshqa yondashuvlar nuqtayi nazaridan qaralmoqda”[34].

